XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi hududlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davlat iqtisodiy hayoti va moliya xo'jaligida katta yo'qotishlarga olib keldi. Xazinaga kelib tushadigan soliqlar va turli yig'imlarning miqdori davlat hududlarining qisqarishi hisobiga yildan-yilga kamayib bordi. Ayni vaqtda amirlikning qolgan hududlari Rossiya imperiyasi sanoatchilari tomonidan bir qator zavod va fabrikalarning qurilishi, temir yo'lining kirib kelishi, rus banklari filiallarining ochilishi esa bu yerda sanoat ishlab chiqarishning yuzaga kelishi, ayni paytda qishloq xo'jaligi, xususan chorvachilik, qorako'lchilik, ipakchilik, paxtachilik mahsulotlariga talabning ortib borishi esa bu sohalarining ma'lum darajada kengayib borishiga sharoit yaratdi [17].

1911 yili Buxoro amirligida Azov-Don banki o'z bo'limini tashkil etib, Peterburg va Rossiyaning g'arbiy o'lkalarni paxta tolasi bilan ta'minlash, gazlama sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq masalalarni hal etishga kirishdi. Oqibatda katta miqdordagi paxta tolasini Rossiya markaziga jo'natish ishlari ancha jadallashdi [19].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Buxoro amirligida hokimiyat tepasiga ashtarxoniyalar sulolasi o'rniga mang'itlar sulolasining kelishi ko'p yillar davomida hukm surib kelgan o'zaro urushlar va hududiy yaxlitlikka chek qo'yilgan. Amirlik hududida markazlashgan hokimiyat tizimining yuzaga kelishi va qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ishlab chiqarish borasida bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod va Denov bekkliklarining ham o'z o'rni va mavqei bo'lib, mang'itlar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda bir qator yuksalishlar ham bo'lib o'tgan. Ammo, Buxoro amirligi iqtisodiy jihatdan mustahkam va siyosiy jihatdan barqaror emas edi. Chunki, xonliklar o'rtasidagi siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik XIX asrning ikkinchi yarmida amirlik hududining katta qismini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. Основные вопросы древнейшей истории Средней Азии. ВДИ. №1, -М.,1938.,
2. Шарофуддин Али Яздий. Зафарнома.-Т., 1972.
3. Жабборов Исо. Ўзбеклар (Анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). -Т.: "Шарк", 2008. -Б.75.
4. Агзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. -Т.: "Ўзбекистон", 2000. -Б.39.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги давrida: Т.: "Шарк", 2000.-Б.45.
6. Kunits J. Dawn over Samarkand. The rebirth of central Asia.-New York/1935.-P.23.
7. Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva.-Oxford, 1959.- P.9.
8. Очилдиев Ф.Б.Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). -Т. 2008. - Б.83.
9. Ўзбекистон ССР тарихи. -Т., Ўзбекистон Фанлар Академияси. 1957 йил, 4 томли. 1 том, 2-китоб. -Б.42, 42-43.

10. Турсунов С.Н. Шеробод тарихидан лавҳалар. –Т.: “Yangi nashr”, 2014. –Б.144, 145.
11. Ўз МА. И-1-жамғарма, 34-рўйхат, 236-иш, 25-варақ.
12. Ўз МА. И-1-жамғарма, 1-рўйхат, 1267-иш, 72-варақ.
13. Ўз МА. И-126-жамғарма, 34-рўйхат, 1001-иш, 18-варақ.
14. Мухсинов К.З. Документы о крестьянских движениях в Бухарском ханстве в 80-е XIX в. // Из истории Средней Азии. – Ташкент, 1965. – С.18.
15. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинение Т.2.4.-М.: Узд во АН.СССР. 1963.-С.108.
16. Ўз МА. И-126-жамғарма, 1072-рўйхат, 1-иш, 8-варақ.
17. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). O'quv qo'llanma.-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022.-B.142, 144-145.
18. Эшов Б.Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.- Б.110.
19. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Akademnashr, 2012.-Б.95, 113-114.



Bekzod MAMATQULOV,
PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
E-mail: b.mamatqulov@mail.ru

QarDU professori, t.f.d., G.Mo'minova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy)

Аннотация

O'zbekistonda sanoat korxonalarining tashkil etilishi va taraqqiy etishining o'ziga xos tarixiy xususiyatlari mavjud. O'zbekiston janubiy viloyatlarida sanoat korxonalarining qurilishi va hududlar sanoatining ixtisoslashuvi jarayonining tarixiy tahlili, sanoatning yangi tarmoqlarining yuzaga kelishi hamda rivojlanishi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, sanoat, fabrika, zavod, gaz, kimyo, paxta sanoati, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari, oziq-ovqat, to'qimachilik.

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СОЗДАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЮЖНЫХ ОБЛАСТЯХ УЗБЕКИСТАНА И ПРОМЫШЛЕННОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ РЕГИОНОВ (1930-1950 гг.)

Аннотация

Создание и развитие промышленных предприятий в Узбекистане имеет свои исторические особенности. На научной основе анализируются исторический анализ, возникновение и развитие процесса строительства промышленных предприятий и процесса региональной специализации промышленности в южных регионах Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекская ССР, промышленность, фабрики, заводы, газовая, химическая, хлопчатобумажная промышленность, стройматериалы, электростанции, мукомольные заводы, пищевая промышленность, текстиль.

HISTORICAL ANALYSIS OF THE PROCESS OF ORGANIZATION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND SPECIALIZATION OF THE INDUSTRY OF REGIONS IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN (1930-1950)

Annotation

Uzbekistan has its own historical features of the organization and progress of industrial enterprises. The historical analysis, emergence and development of the process of construction of industrial enterprises and the process of regional industry specialization in the southern regions of Uzbekistan are analyzed on a scientific basis.

Key words: Uzbekistan SSR, industry, factory, plant, gas, chemical, cotton industry, building materials, power stations, flour factories, food, textile.

Kirish. Hozirgi tezkor va shiddatli zamonda jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va xarakteri tubdan o'zgardi. Jahon mamlakatlarida sanoatning jadal taraqqiy etishi, davlatlararo iqtisodiy munosabatlar sohasining chuqurlashishi, xalqaro miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti faoliyati va soha tarixiga qiziqish ortib, u bilan bo'lgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasa hamda oliy o'quv yurtlarida sanoat sohasi tarixi va uning yangi tarmoqlari bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib topirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda. Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi.

O'zbekiston SSRda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi jarayonida, ayniqsa janubiy viloyatlarda ayrim muammolar va oqibatlar yuzaga keldi. Sanoat

korxonalarini viloyatlar bo'yicha joylashtirishda doimiy ravishda nomuvofiqliklar mavjud bo'ldi. Masalan, 1927 – 1928-yillarda O'zbekiston hududida jami 191 ta yirik sanoat korxonasi bo'lib, ularni viloyatlar bo'yicha taqsimlaganda quyidagi holat bilan izohlanadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarida sanoat korxonalari ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, Samarqandda 29 ta, Andijonda 19 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritgan. Yirik sanoat korxonlari eng kam bo'lgan hududlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keldi.

Respublika sanoat korxonalarining asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Samarqand hamda Andijon viloyatlarida joylashtirildi. Bu borada Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSR eng orqada edi. Masalan, Surxondaryo viloyatida bu davrda faqat 1 ta, Qashqadaryoda 2 ta sanoat korxonasi faoliyat olib bordi [1, 2].

1927-1928-yillarda O'zbekistondagi sanoat korxonalarining soha bo'yicha taqsimlanishida ham o'ziga xoslikni ko'rish mumkin. Yirik sanoat korxonalarining tarkibida paxta tozalash zavodlari 43 ta, qurilish materiallari sanoati 17 ta, elektr stansiyalar va un zavodlari 16 tadan, yog' zavodlari 7 ta, metalni qayta ishlovchi korxonalar 5 tani tashkil etgan.

O'zbekistondagi sanoat korxonalari orasida paxta tozalash, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari hissi yuqori edi. Respublikada mavjud 191 ta yirik sanoat korxonasining 43 tasi paxta sanoatiga tegishli bo'ldi. Uning 20 tasi Farg'ona viloyatida joylashtirildi. O'zbekiston sharoitida

ba'zi oziq-ovqat sanoati korxonalarini ko'paytirishga imkon bo'lsa-da, ammo turli baholar ro'kach qilinib sohada yangi korxonalar barpo etilmadi. Respublika miqyosida faqat 3 ta konserva zavodi mavjud edi.

1925 – 1928-yillarda sanoat mahsulotlari mulk egaligi shakllari nuqtai nazaridan tahlil etiladigan bo'lsa, 1925 – 1926-yillarda davlat sanoati 97,2 foiz, kooperativ sanoati 1,5 foiz, xususiy sanoat esa 1,3 foizni tashkil etgan. 1927 – 1928-yillarda sanoat mahsulotlari mulk egaligi shakllaridan davlat sanoati 96,3 foiz, xususiy sanoat 0,4 foizni tashkil etib kamayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, bu davrda kooperativ sanoati 3,3 foizni tashkil etdi [2, 3].

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari davlat korxonalari hisobiga to'g'ri keldi. Kooperativ va xususiy sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi 2 foizdan nariga o'tmadi. Respublikadagi asosiy sanoat korxonalari Ittifoq tasarrufida bo'lib, respublika va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi korxonalar kam bo'ldi. Masalan, 1926-1927-yilda O'zbekiston sanoat korxonalarining 76,4 foizi Ittifoq tasarrufida bo'lsa, 1927-1928-yilda ularning salmog'i 78,4 foiz bo'ldi. Respublika ko'rsatkichi esa bu yillarda pasayib borib, 16,8 foizdan 14,1 foizga tushdi. [3, 219].

Shuningdek, sanoat korxonalari ham kamayib bordi. 1926-1927-yili faoliyat olib boruvchi sanoat korxonalari soni 175 tadan 1927-1928-yilda 165 taga tushadi. Bu korxonalariga ishchilar soni o'rtacha 77-80 kishidan to'g'ri keldi. Ammo, toshko'mir sanoatida turli sabablar tufayli bir korxonaga to'g'ri keladigan ishchilar soni kamayib bordi. Masalan, 1926-1927-yilda bu 83 kishi bo'lsa, 1927-1928-yilda 80 kishiga tushdi. O'zbekistonda 1926-yili 500 va undan ziyod ishchi hamda xizmatchilar ishlaydigan korxonalar soni 3 ta bo'lsa, 1928-yili ular soni 6 taga ko'paydi.

1932-yil O'zbekistonda sanoat korxonalari va ishchilar soni arxiv manbalariga asoslanib o'rganilganda, ular Ittifoqqa qarashli sanoat korxonalari, Respublikaga qarashli sanoat korxonalari va mahalliy sanoat korxonalariga ajratilib, asosan Respublikaga qarashli sanoat korxonalarining ulushi yuqori bo'lib, jami ishlab chiqariladigan mahsulotning yarmidan ko'pini ishlab chiqargan.

Ishchilar soni yakka dehqonlar, batraklar, kustarlar, kosiblar va mamlakatning boshqa hududlaridan kelgan kishilar hisobiga kuchayib bordi.

O'zbekistonda 1925-1926-yillarda sanoatda 11,125 kishi, 1926-1927-yillarda 14513 kishi, 1927-1928-yillarda 13250 kishi faoliyat olib bordi. Shuningdek, bir ishchiga bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 1925-1926-yillarda 73,1 cherv. rubl, 1926-1927-yilda 65,5 cherv. rubl, 1927-1928-yilda 72,7 cherv. rublni tashkil qildi. Demak, Sovet davri adabiyotlarida sanoat ishlab chiqarish yildan yilga o'sib borilganligi qayd etiladi, arxiv hujjatlaridagi raqamlar buning aksini ko'rsatadi. Bu davrda ishchilarning o'rtacha haqi 73-75 cherv. rublni tashkil qildi. [4, 184].

O'zbekiston sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1925-1926-yili 178,3 mln. rubl, 1927-1928-yili 239,8 mln. rublni tashkil qildi. Ammo, ishlab chiqarish rejalari yuqori darajada belgilanganligi tufayli ko'p hollarda bajarilmay qoldi. Masalan, 1928-1929-yillarda O'zbekistonda neft qazib olish 24 foiz, sement 45,6 foiz, ko'n zavodi 42 foiz, poyafzal fabrikasi 25 foiz, bosmaxonalar 37,5 foiz rejani bajardi. Davlat va partiya anjumanlarida sanoat sohasidagi vazifalar Ittifoq manfaatlariga muvofiq tarzda belgilab berildi [5, 302].

Masalan, O'zbekiston sovetlarning II syezdida sanoat sohasida quyidagi vazifalar ilgari surildi:

birinchidan, to'qimachilik sanoatini tashkil etish;

ikkinchidan, O'zbekiston tabiiy boyliklaridan unumli foydalanish va qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi yangi sanoat korxonalarini tuzish;

uchinchidan, elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

to'rtinchidan, foydali qazilma boyliklarini ilmiy o'rganish, sanoat yo'li bilan ularni qazib olish;

beshinchidan, qishloq xo'jaligi inventarlarini ishlab chiqarish bo'yicha sanoat tarmog'ini rivojlantirish. [6, 170].

O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida hududda sanoat mahsulotlar ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi bo'yicha o'zgarishlar ham bo'ldi. Buning sababi ushbu tarmoq mahsulotlariga nisbatan ehtiyojning yuzaga kelganligi va Ittifoq manfaatlaridan kelib chiqib, hududlarni sun'iy ravishda ixtisoslashtirilganligi bilan izohlanadi. Sanoatlashtirish siyosatining salbiy oqibatlari bilan birgalikda, mazkur jarayonning natijasi sifatida hududlarning rivojlanishi va bugungi kundagi viloyatlarning sanoat sohasidagi ixtisoslashuvi hamda ulardagi ishlab chiqarishning taraqqiy etishining ildizi sifatida ham ta'kidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mintaqalarni integratsiyalashgan va muvozanatli rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali foydalanish kabi omillar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari deb belgilandi.

Muhokama. Sanoatlashtirish siyosatining natijasi sifatida, shu soha olimlarining fikriga ko'ra, bugungi kunda hududlarda mavjud faoliyat turlari bo'yicha o'tkazilgan hisob – kitoblar shahar va tumanlar sanoatida chuqur ixtisoslashuv, ya'ni klasterlar tuzishning yuqori salohiyati mavjudligi va shakllanganligini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatining tuman va shaharlari misolida qiyosiy tahlil sifatida quyidagicha izohlanadi:

- neft va tabiiy gaz qazib olish (G'uzor, Muborak, Nishon tumanlari) hamda tog'-kon sanoati bilan bog'liq faoliyatga (Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari);

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga (Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Qamashi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari);

- teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishga (Qarshi shahri, G'uzor va Yakkabog' tumanlari);

Viloyatda sanoatining tog'-kon xom ashyosini qazib olish, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo mahsulotlarini, qurilish materiallarini, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi asosan boy xom ashyo bazasi, foydali qazilmalar konlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra Shahrisabz, Termiz va Xiva shaharlari shaharlarda sanoatning rivojlanganlik darajasi bo'yicha guruhlanganda, sanoat rivojlanishi past darajada bo'lgan shaharlar sifatida izohlanadi. Bu ham sanoatlashtirish siyosatining asorati sifatida mazkur jarayonning salbiy oqibati sifatida baholanadi. Chunki 1925-1941-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari sanoat korxonalarining faoliyati hamda soni jihatidan oxirgi o'rinlarda edi. [7, 324].

Viloyatlar kesimida sanoat ixtisoslashuvi va ishlab chiqarishdagi tarmoqlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, biz tadqiq etgan davrning natijasi va asorati sifatida bugungi kunda hududlar sanoati rivojlanishining xususiyatlari va ixtisoslashuv jarayonlari bevosita bog'liqdir. Xususan, viloyatlar kesimida hududlar sanoatining chuqur ixtisoslashuvi jarayonining tarixi ham 1925-1941-yillardagi sanoatlashtirish siyosatining natijasi sifatida ham izohlanadi. Masalan, kimyo sanoatida 1930-1940-yillarda Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Samarqandda sanoat korxonalari barpo etilib, hududlarning shu sohaga ixtisoslashtirilganligi ular sanoatining yetakchi tarmog'i sifatida, bu shakllangan sanoat ixtisoslashuvi viloyatlarning o'sish tayanch nuqtalari sifatida baholanmoqda.

Xulosa. Xullas, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoat sohasida ham ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror toptirilib, yangi iqtisodiy siyosat natijasida sanoat sohasida ba'zi ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo Ittifoq sanoat yalpi mahsulotlari ulushida O'rta Osiyo

respublikalarining hissasi juda past bo'ldi. Sanoatni rivojlantirishga bir tomonlama yondashuv natijasida faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq yo'nalishlarini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR

1. A'lamov X. O'n yil ichida sanoatimiz: Sanoatga endi ega bo'ldik; Milliy chegaralanishdan keyin sanoatimizning muvaffaqiyatlari va hozirgi holi; Elektrlash; Sanoat tuzish ishlari; Sanoatimizning istiqboli haqida // Qizil O'zbekiston.- 1927 . - 7-noyabr;
2. Yoqubov G'ulom. Sanoatimizdagi o'pirilishlarga qarshi kurashimiz! // Qizil O'zbekiston. - 1930.- 21-fevral;
3. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; 219 bet
4. Ziyodullayev S. Manoxin I. Sovet O'zbekistonining sotsialistik sanoati. – T., 1949. – 184 bet.
5. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 302 bet
6. To'xtayev A.Q. Surxondaryo viloyati an'anaviy sanoat korxonalar tarixi (1930 – 1940 yy). – Termiz davlat universiteti professor – o'qituvchilarining XXVIII ilmiy-nazariy konferensiya ma'ruzalar to'plami. – Termiz, 1996; 170 bet.
7. Ergasheva J. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonda Qashqadaryo sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi tajribasidan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish. – T.: "Fan", 2000; 324 bet



Mohira MATNAZAROVA

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: matnazarovamokhira1991@gmail.com

UrDU dotsenti, t.f.d. U.Abdullayev taqrizi asosida

ELEMENTS OF EARLY STATE FORMATIONS IN STOCK RAISING TRIBES

Annotation

With the development of society, people need to unite and act together. The formation of a state system is considered a vital necessity. Many nomadic tribes of Central Asia had a tribal system of government. The article shows that the first elements of statehood in pastoral tribes manifested themselves in a union of tribes, that is, in a confederation, and in a confederation, shepherds jointly guarded their livestock, their pastures, and had the opportunity to occupy new pastures. Using the example of nomadic pastoralists, the question of the first elements of statehood is analyzed.

Key words: nomadic confederation, title "Khakan", tribal union, nomadic tribes, early Iron Age.

ЭЛЕМЕНТЫ РАННЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАНИЙ В ПЛЕМЕНАХ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СКОТОВОДСТВОМ

Аннотация

С развитием общества людям необходимо объединяться и действовать сообща. Формирование государственного строя считается жизненной необходимостью. Многие кочевые племена Средней Азии имели родоплеменную систему управления. В статье показано, что первые элементы государственности в скотоводческих племенах проявлялись в союзе племен, то есть в конфедерации, а в конфедерации пастухи совместно охраняли свой скот, свои пастбища, имели возможность занимать новые пастбища. На примере кочевников-скотоводов анализируется вопрос о первых элементах государственности.

Ключевые слова: кочевая конфедерация, титул «хакан», племенной союз, кочевые племена, ранний железный век.

CHORVACHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN QABILALARDA ILK DAVLATCHILIK ELEMENTLARI

Annotatsiya

Jamiyat taraqqiy etishi bilan insonlarning birlashib, birgalikda harakat qilishi talab qilina boshlanadi. Davlatchilik tizimining shakllanishi bu hayotiy ehtiyoj sanaladi. O'rta Osiyodagi ko'pgina ko'chmanchi qabilalarda qabilaviy boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan. Maqolada chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda ilk davlatchilik elementlari qabilalar ittifoqi, ya'ni konfederatsiyada namoyon bo'lganligi, konfederatsiyada chorvadorlar birgalikda chorvalarni, o'z yaylovlarini himoya qilganlar va yangi yaylovlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lganligi keltiriladi. Davlatchilikning ilk elementlari masalasi ko'chmanchi chorvadorlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ko'chmanchilar konfederatsiya, "xoqon" unvoni, qabilalar ittifoqi, ko'chmanchi qabilalar, ilk temir davri.

Kirish. Jamiyatning yuksalishida, uning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishida boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan insonlarning birlashib, birgalikda harakat qilishi talab qilina boshlanadi. Bu ularning tinch va to'qin hayot kechirishlari kafolatlari sanaladi. Turli bosqinchilik harakatlaridan himoyalashda, hududlarni kengaytirishda ham boshqaruv tizimining ahamiyati muhim. Boshqaruv tizimi bu hududlarda shakllangan davlatchilik tizimi bilan bog'liq. Davlatchilik tizimining shakllanishi bu hayotiy ehtiyoj sanaladi. Chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarda ilk davlatchilik elementlari qabilalar ittifoqida, ya'ni konfederatsiyada namoyon bo'lgan. Konfederatsiyada chorvadorlar birgalikda chorvalarni, o'z yaylovlarini himoya qilganlar va yangi yaylovlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Chorvadorlar orasida o'zining aqliy qobiyati, tadbirkorligi, harbiy mahorati bilan ajralib chiqib, aholini birlashtira olgan, hayotiy muammolarning yechimini to'g'ri topgan va aholisini birlashtira olgan inson qabila boshlig'i bo'la olgan. Chorvadorlar yashagan hududlarning tabiiy sharoiti og'ir bo'lgan. Ularning eng katta muammosi chorvaga yetarli sharoit yaratish, ya'ni mo'l ozuqa bilan ta'minlash va ularni qishdan eson-omon chiqarib olish bo'lgan. Ular ko'plab yirik shohli chorvaga ega bo'lganliklari sababli bu muammo ular uchun hayot mamot masalasi hisoblangan.

Ko'chmanchilar konfederatsiyasi – bu o'z hayotining turli jabhalarida birga yashaydigan va hamkorlik qiladigan turli ko'chmanchi qabilalarning ittifoqi yoki birlashmasi hisoblanadi. Bunday konfederatsiyada turli qabilalar birgalikda ovchilik, oziq-ovqat yig'ish, savdo-sotiq, tashqi tahdidlardan himoya qilish, shuningdek, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, nizo va nizolarni hal qilishlari mumkin. Konfederatsiya o'z boshqaruv tizimi va qonunchiligiga, shuningdek, umumiy urf-odat va an'analarga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'chmanchi chorvadorlar orasida eng yuqori unvon "xoqon" unvoni hisoblangan. U Markaziy Osiyoda qadimgi va o'rta asrlarda ishlatilgan. E.Pulliblan va boshqa olimlarning tadqiqotlarida "xoqon" unvoni "hu-yu" (vah-va) tarzida miloddan avvalgi I-asrda hunlar tomonidan ishlatilgan deb ko'rsatilgan. Xitoy manbalarida esa, birinchi marta xiyanbi qabilasiga nisbatan milodiy III asrdan ishlatilgan. Ilk o'rta asrlarda bulg'or, xazar, ko'k turk, uyg'ur, pecheneglarda ishlatilgan. Qipchoq urug'-qabila birlashmalari, kimaki (kimeklar) va qoraxoniylar "kan" (xon) unvonini bilan birgalikda ishlatilgan.

B.N.Grakov skiflar qabilalari ittifoqi mil.avv. VII asrning birinchi yarmida vujudga kelgan deb ko'rsatishgan [3]. Bu davrda ularni qon qarindoshlik asosida birlashgan. Mil.avv. V asrning oxirlariga kelib, harbiy – demokratik

tuzum shakllangan, bunda qabila boshliqlarining yakka hokimligi o'rnatilgan. IV asrning boshlarida ularda ilk davlatchilik elementlari shakllangan. A.M.Xazanov skif- sak qabilalarining ijtimoiy siyosiy hayot tarzini tahlil qilib, ularda urug'chilik tuzumining an'analari saqlanib qolganligini qayd etgan [8]. Bu davrda olib borilgan tadqiqot ishlarida ko'chmanchi qabilalarning ijtimoiy tuzumi sinfiylik jihatdan yoritilgan va quldorlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi qayd etilgan [7].

Tahlil va natijalar. Qadimgi davrda ko'chmanchi chorvadorlarda konfederatsiya bilan bog'liq unvonlarning atamaları saqlanib qolmagan. Yozma manbalarda sak va massagetlar haqida berilgan ma'lumotlar asosida ularda ham oliy hukmdor, ya'ni podshoh va malika bo'lganligini asoslashimiz mumkin.

V.N.Yagodin fikricha, ahamoniylargacha bo'lgan davrda shakllangan davlatchilik kichik hududlarni o'zida birlashtirgan. Bunda qabila sardori o'z atrofidagi qabiladoshlarni birlashtirib, ularni ma'lum qonun va qoida asosida boshqargan. Asta-sekin uning hududni boshqarishdagi roli oshib borgan va u hukmdor "podsho" darajasigacha ko'tarilgan [9]. Lekin davlat boshqaruvida qabila sardorlari kengashining roli pasaymagan. Polien asarida Doro I ning saklarga qarshi jang boshlagandan keyin sak podsholari Saksafar, Omarg, Famirlar unga qarshi qanday jang qilishni maslahatlashish uchun cho'l ichikarisiga kirib ketishganligi haqida yozib qoldirgan [6]. Keyinchalik ular huzuriga cho'pon Shiroq kelib, o'zining taklifini bergan.

Ilk temir davrida sak va massaget qabilalar ittifoqi mavjud bo'lganligi, ularni podsholar tomonidan boshqarganligi yunon yozma manbalari asosida yoritilgan. Sak va massagetlarda hukmdorlik asosan, bir urug'da saqlanib qolgan. Agar podsho vafot etsa, uning o'rniga uning rafiqasi tayinlangan. Buni Ktesiyda berilgan malika Zarina va Geradot asarida berilgan malika To'maris asosida ko'rishimiz mumkin.

Ktesiy asarida saklar malikasi Zarinaning faoliyati xaqida ma'lumot mavjud. Unda Zarina qabila boshlig'i sifatidagi emas, balki Midiyaga bo'lgan munosabati va atrofidagi boshqa sak qabilalarini birlashtirib yirik davlat tashkil qilganligi yozib qoldirilgan. Midiya podshosi Astibar davrida parnlar Midiya hukmronligidan chiqib saklarga tobe bo'lganlar. Bu esa midiya va saklar o'rtasida uzoq va qonli janglar boshlanib ketishiga olib kelgan. Oxirida tinchlik shartnomasini tuzish bilan yakunlangan. Bu fikrlar ko'chmanchi chorvadorlar bilan qo'shni davlatlar o'rtasi o'zaro diplomatik aloqalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Shu davrda saklarni malika Zarina boshqargan. Zarina jangovor ayol bo'lib, mardligi va uddabironligi bilan boshqa sak ayollariga nisbatan yuqori mavqeiga ega bo'lgan. Ktesiy ma'lumoticha, Zarina turmush o'rtog'i va akasi vafot etgach, hokimiyatni boshqarish uning zimmasiga o'tgan. Unga bo'ysunishni istamay, hokimiyatni qo'lga olishga intilgan boshqa sak qabilalarini o'ziga qurol kuchi bilan bo'ysundirgan. Mamlakatning katta qismini o'ziga bo'ysundirib, birlashtirgan, obodonlashtirish ishiga alohida ahamiyat qaratgan. Ko'plab shaharlar qurganligi va o'z xalqi uchun baxtli hayot yaratganligi yozib qoldirilgan. Ktesiyning bu ma'lumoti o'troqlashgan chorvador saklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Geradotning "Tarix" asarida ham shunga o'xshash voqea bayon qilingan: "Massagetlar malikasi marhum podshohning xotini edi. Uning ismi Tomiris. Kir uni o'ziga xotini qilmoqchi bo'lib, sovchilik bahonasida unga elchilar yubordi. Biroq, Tomiris Kir niyatini bilib, ya'ni uning massagetlar yurtiga egalik qilmoqchi bo'lganligini anglab, rad qildi"[1]. Bu jarayonda ham qabilalar boshlig'i vafot etsa, uning o'rnini egallaydigan o'g'il farzand bo'lmasa, podshohning rafiqasi boshqarganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, ko'chmanchilar davlatida hokimiyatni boshqarishda

erkak va ayolga bir xil munosabat bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga oilaviy birlashuvlar ham davlatlarning bir-biriga qaramlilikiga olib kelgan. Buni ham Ktesiy ma'lumotidagi parnlarning Midiya hukmronligidan chiqib, saklarga qaram bo'lganligi va Midiyaliklarning saklarga qarshi harakatida ko'rinadi. Ktesiyning yozishicha, Zarina birinchi turmush o'rtog'i sak Kidreya vafot etgach, parfiya knyazi Mermerga tushmushga chiqadi. Parfiyaliklarning midiyaliklar ajralib, Saklar bilan birlashishiga ham shu sabab bo'lgan bo'lishi mumkin [2]. Midiya podshosi Striangey parfiyaliklarga qarshi yurishida Zarina ham ishtirok etgan. Zarina mag'lubiyatga uchrab, yarador bo'ladi. Qochib ketayotgan vaqtida uni Striangey ta'qib qilib borib otdan yiqitadi. Zarinaning iltijolari, yoshligi va go'zalligini ko'rib qo'yib yuboradi. Mermer yetib kelib, Striangeyni asirga oladi va o'limga mahkum qiladi. Zarina uni avf qilishni so'raydi. Mermer uning so'zlariga e'tibor qilmagach, Zarina, bir necha asirlar yordamida Striangeyni ozod qiladi, Mermerni esa, o'ldiradi. Parfiyani Midiyaga qaytaradi. Shundan keyin Midiyaliklar va saklar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatiladi.

Geradot asarida berilgan Kir II ning To'mariga sovchi yuborishi masalasi ham davlatlarni birlashtirish g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan. Qarindoshlik asosida davlatlarni birlashtirish masalalari keyingi davrlarda ham jahon taraqqiyotida keng qo'llanilgan. Bu g'oya davlatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini o'rnatishda yoki birlashishda qo'llanilgan.

Chjan Syanning ta'kidlashicha, Da-yuechji qabilalari aslida ko'chmanchi qabilalar bo'lib, yangi joylar aholisi madaniy-xo'jalik ta'sirida o'troqlashgan va qisman chorvachilik xo'jaligi bilan ham shug'ullanadilar. Yuechjilar haqidagi Chjan Syan xabarlari mil. avv. 126 yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bo'lib, u kezlarda yuechjilar Guysuan (To'xor) qabilasi yetakchiligida hali yagona davlatga birlashmagan edi. Shuning uchun elchi keltirgan ma'lumotlarda: "Dayg'iada yagona davlat boshlig'i yo'q, har bir shahar o'z hokimi tomonidan boshqariladi". "Dayg'iada 5ta patriarxal knyazlik xonadonlari (Xyumi, Shuanmi, Guysuan, Xise va Dyumi) mavjud" [2]. Chjan Syan Dayg'ia (Daxya) va Dayyuan (Davan)da: "Erkaklar o'z qarorlarida xotinlari bilan maslahatlashadilar" [2] deb xabar beradi. Aholining turmush tarzi va urf-odatlar haqida: "Dayg'iada o'troq hayot kechiradilar, shaharlari bor va uylarda yashaydilar, urf-odatlar bo'yicha dayyuanlilarga o'xshab ketadi; qo'shini kuchsizroq, lekin jangda chaqqon va chabdash. Aholisi savdoda ustamon. Dayg'iada aholi soni millionga yetadi. Poytaxti Lanshi deb ataladi. Bu shaharning xilma-xil tovarlarga boy bozori bor" [4] deb yozadi.

Saklar tomonidan tashkil qilingan Qang' va Kushon davlatlari ko'chmanchilar tomonidan tashkil qilingan.

Qadimgi Xorazm davlatining shimoli, shimoli-sharqi, shimoli-g'arbi, janubi va janubi-sharqiy hududlari yashagan va ko'chib yurgan ko'chmanchi qabilalar tomonidan qoldirilgan mozor-qo'rg'onlar orasida yirik hajmda qurilganlar bo'lgan. Ularga mayitlar qimmatbaho toshlar, oltin, kumush buyumlar bilan dafn etilgan. Bu o'sha davr aholisi o'rtasida tabaqalanishning bo'lganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan hukmdorlarga tegishli bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Bularga misol qilib, Tegesken mozor-qo'rg'onlari, Chirik-Rabot, Tume-Kichijik, Kazibaba I, Tarmqoya, Jeti asar hududlarini ko'rsatimiz mumkin. Jeti asar qal'asining atrofida 200 ga yaqin juda katta qilib qurilgan mozor-qo'rg'onlar aniqlangan [5]. Yirik tarzda bunyod etilgan mozor-qo'rg'onlarda vafot etgan odam bilan birgalikda uning rafiqasi, xizmatkorlari, jangchilar, otlari va buyumlari bilan dafn etilgan. Bunday qabrlarda ko'plab qimmatbaho toshlar, oltin va kumushlar qo'yilgan. Shu sababdan mozor-qo'rg'onlar o'sha davrning o'zidan o'g'irlab ketilgan.

Buzilmasdan saqlanib qolgan mozor-qo'rg'onlar tasodifan topiladi. Ular esa, ko'chmanchilarning turmush tarzi haqida to'liq ma'lumot berishi mumkin. Ba'zi saqlanib qolgan moddiy buyumlar bundan guvohlik beradi. Ko'chmanchi chorvadorlarda dafn etish urf odatlari deyarli o'zgartmagan. Uzoq yillar davomida bir xil saqlanib kelgan.

Uzboy daryosi bo'ylab ko'plab ko'chmanchi qabilalarning mozor-qo'rg'onlari va yirik tarqoq xoldagi manzilgohi topilgan. Ular mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrlarga oid bo'lib, qo'lda qo'pol tarzda ishlangan sopol idishlar topilgan. Muzor-qo'rg'onlari tosh sag'ana bo'lib, ko'p marotaba mayitlar dafn qilingan. Bu jarayonida ular tuproq bilan ko'milmagan. Milodiy era boshlariga kelib, ularda yirik sopol idishlarni suyakdon sifatida ishlata boshlaganlar [10]. Uzboy bo'yida mil.avv. V-II asrlarga oid bo'lgan Ichyanlitepa ibodatxona vazifasini bajargan. U ko'chmanchi qabilalarning katta mozor-qo'rg'oni Dordulning markazida joylashgan.

Ichyanlitepada charxda ishlangan sopol buyumlar ham topilgan bo'lib, u Kavkazorti hududlaridan olib kelishganligi aniqlangan. Quyi Uzboy bo'yida Kelkorning shimoli-g'arbiy qirg'og'ida tarqoq ko'chmanchilarning qarorgohi 1982 yilda aniqlangan. Bu yerdan uch parrakli bronzadan ishlangan va temirdan ishlangan yaproqsimon o'q uchlari, yorg'uchoqlar, teriga ishlov beradigan toshlar topilgan. Bu manzilgohdan uncha uzoq bo'lmagan yerda, mozor-qo'rg'on topilgan. Unda chuqurchaga meridional ko'milgan va idishga ko'milgan mayitlar topilgan. Manzilgoh va mozor-qo'rg'on mil.avv.IV-II asrlarga oid Uzboy bo'yidagi moddiy topilmalarga o'xshaydi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, O'rta Osiyoning ko'chmanchi qabilalarini boshqarish qabilaviy boshqaruv, siyosiy tuzilmalarining harakatchanligi, uyushqoqligi va moslashuvchanligi hamda diniy va an'anaviy urf-odatlar asosida qurilgan.

ADABIYOTLAR

1. Геродот. I. 205.
2. Григорьев В.В. О скифском народе саках. -С.20-21.
3. Граков Б. Н. Скифы: научно-популярный очерк. – М.: Изд-во МГУ. 1971.
4. История народов Узбекистана. Том I. 1950, -С.112.
5. Левина Л.М. Этнокультурная история восточного Приаралья. I тысячелетие до н.э. - I тысячелетие н.э. -М.: 1996. - С.68.
6. Полиен. Стратегема. VII китоб XI бўлим 6,8.; Григорьев В.В. О скифском народе саках. -СПб. 1873. -С.16.
7. Хазанов А. М. О характере рабовладения у скифов. // ВДИ. 1972. № 1. – С. 159–170.
8. Хазанов А. М. Социальная история скифов. – М.: Наука, 1975.
9. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. – С. 125.
10. Юсупов Х. Археологические памятники Узбоя и проблема водного пути из Индии в Каспий. / Туркменистан в эпоху раннежелезного века. – Ашхабад: Ёлым. 1984. -С.91-92.



UDK: 94:332.8 (575.1) "1991/2021"

Nurbek MATYAKUBOV,

Urganch innovatsion universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) O.Radjabov taqrizi asosida

PROVIDING THE POPULATION WITH AFFORDABLE HOUSING AS A STATE POLICY

Annotation

The government of Uzbekistan has carried out a number of effective works to provide the population with housing. First of all, the legal basis and norms of providing housing to the population were developed. These legal documents were put into practice taking into account the shortcomings and problems in providing housing to local residents.

Key words: Housing policy, "Kamolot" houses, mortgage loans, law, young families, construction, affordable houses, politics.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ДОСТУПНЫМ ЖИЛЬЕМ КАК ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА

Аннотация

Правительством Узбекистана проведен ряд эффективных работ по обеспечению населения жильем. Прежде всего были разработаны правовая база и нормы обеспечения населения жильем. Данные правовые документы были реализованы на практике с учетом недостатков и проблем в обеспечении жильем местных жителей.

Ключевые слова: Жилищная политика, дома «Камолот», ипотечное кредитование, право, молодые семьи, строительство, доступное жилье, политика.

AHOLINI ARZON UY-JOY BILAN TA'MINLASH DAVLAT SIYOSATI SIFATIDA

Annotatsiya

O'zbekiston hukumati aholini uy-joy bilan ta'minlash uchun bir qancha samarali ishlarni olib borgan. Dastavval aholini uy-joy bilan ta'minlashning huquqiy asoslari hamda me'yorlari ishlab chiqilgan. Mazkur huquqiy hujjatlar joylardagi aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi kamchiliklar va muammolarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy qilingan.

Kalit so'zlar: Uy-joy siyosati, "Kamolot" uylari, ipoteka kreditlari, qonun, yosh oilalar, qurilish, arzon uylar, siyosat.

Kirish. Mustaqillik yillarida harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlashga e'tibor kuchaygan. Respublikaning turli hududlarida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar uchun o'sha hududlarda uylar qurib berilgan.

2010-yildan keyin O'zbekistonning bir qancha hududlarida yoshlar va yosh oilalar uchun uylar qurila boshlandi. Bu uylar aholi orasida asosan "Kamolot" uylari nomi bilan mashhur bo'lgan. "Kamolot" uylarini fan, san'at, adabiyot, sport va boshqa sohalarda yuksak natijalarga erishgan hamda ariza berilgan paytda o'ttiz yoshdan oshmagan er-xotinlar ipoteka krediti asosida sotib olish huquqiga ega bo'lgan. Buning uchun tegishli hujjatlar "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hududiy kengashlariga topshirilgan va ular orqali harakatning markaziy kengashiga taqdim etilgan[1].

Boshqa manbaga ko'ra, "Kamolot" uylari turar-joyga muhtoj shaxslarga berilgan. Bu toifaga asosan doimiy ro'yxatdan o'tgan manzilda uy-joy mulkdori bo'lmagan, ijara shartlari asosida yoki yashash uchun yaroqsiz binolarda istiqomat qilgan, er yoki xotin sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq surunkali kasallik tufayli alohida xonadonlarda yashashga ehtiyojmand bo'lgan hamda davlat mukofoti bilan taqdirlangan, fan, san'at, madaniyat bo'yicha tanlovlar va sport musobaqalarida sovrinli o'rinni egallagan shaxslar kiritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2014-yilda O'zbekistonning bir qancha shaharlarida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faollari uchun uylar qurilgan hamda ushbu uylar "Kamolot" uylari deb nomlangan. Xususan, ushbu yilda Andijon viloyatining Andijon shahri hamda Asaka va Baliqchi tumanlarida yoshlar uchun "Kamolot" uylari qurilgan. Andijon shahridagi 48 xonadonli ko'p qavatli uylar "Andkonstrakshn" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan qurilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy

asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mavjud manbalar Toshkent viloyati misolida ham bu masalani ko'rib chiqishga imkon beradi. 2014-yil "Sog'lom bola yili" munosabati bilan Toshkent viloyatida yosh oilalar uchun namunaviy loyihalar asosida 1050 ta uy-joy qurish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, aynan mana shu yili 192 ta yosh oilaga uy-joy qurish uchun imtiyozli kreditlar ajratilgan. Ayrim hollarda aholini uy bilan ta'minlashda foydalanishda bo'lmagan yoki yaroqsiz holda bo'lgan turar joylarni rekonstruksiya qilish orqali maqsadga erishishga harakat qilingan. Xususan, 2014-yilda Angren shahrida 65 xonadonli ko'p qavatli uylar qayta rekonstruksiya qilingan bo'lib, bu xonadonlar yosh oilalarga berilgan. Ushbu xonadonlar 1, 2 va 3 xonali uylardan iborat bo'lgan. Xonadonlar Angren shahar hokimligi va "Angren ko'mir" OAJ korxonasi mehnat qilgan yosh ishchi-xodimlarga hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faollaridan iborat bo'lgan 65 nafar yosh oilaga imtiyozli kredit asosida berilgan[3].

Keyingi yillarda ham "Kamolot" uylari qurilishi davom etgan. Xususan, 2015-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ko'p qavatli 64 tagacha xonadondan iborat bo'lgan 50 dan ziyod "Kamolot" uylari qurish rejalashtirilgan. Jumladan, 2015-yilda Toshkent shahrining Sirg'ali tumanida joylashgan Shukur Burhonov mahallasida ikkita "Kamolot" uylari foydalanishga topshirilgan. Mazkur uylar qurilishi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining Sirg'ali filiali va "O'zsanootqurilishbank"ning Chilonzor filiali tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, ularning har biri 32 xonadondan iborat bo'lgan[4].

Tadqiqotchi Ruslan Bozorov fikriga ko'ra, aholini uy-joy bilan ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlar uning huquqiy asosi samaradorligi bilan baholanadi. So'nggi yillarda aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va amaliyotga joriy qilindi. O'z navbatida, ushbu hujjatlarni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruhga aholining barcha qatlamini arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qaror hamda farmonlar kiradi. Jumladan, bu guruhga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639-son[5], 2016-yil 22-noyabrdagi "2017-2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2660-son[6], 2018-yil 6-martdagi "2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturini "Saudiya" taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3587-son qarorlari, 2021-yil 11-martdagi "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6186-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi "Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-182-son qarorini kiritish mumkin. Ushbu hujjatlar tahlilidan ko'rinadiki, aholini uy-joy bilan ta'minlashda shahar va qishloq hududlarida yakka tartibdagi uylar va ko'p kvartirali uylar qurish hamda aholini uy-joy sotib olish uchun moliyaviy ko'mak ko'rsatish asosiy jihat sifatida tanlab olingan. Ikkinchi guruh esa aholining ma'lum bir toifalarini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Bunday toifaga harbiy xizmatchilar[7], ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari[8], yosh oilalar[9], xotin-qizlar, mehnat migrantlari hamda "Sardoba suv ombori" to'g'onida yuz bergan favqulodda hodisa natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholi[10] kirgan. Masalan, uy-joyga ehtiyoji mavjud bo'lgan ayollardan biri Feruza Husniddinova shunday deydi: "Ikki xonali uyda uch oila siqilib qolgan edik. O'tgan yili uyimizga tuman hokimligidan mas'ullar kelib, oilaviy ahvolimizni o'rgandi. Sizga yangi qurilayotgan uylardan beramiz, deyishdi. Ishonmadim. Sababi, shuncha yildan buyon uyimga biror kimsa kelib, sizga uy beramiz, demagan. O'zimiz shuncha harakat qildik, lekin pulimiz yetmadi. Yaqinda Sirg'ali tumanida yangi qurilgan uylardan biriga ko'chib o'tdik. Tuman hokimligi yordami bilan uyimizning boshlang'ich to'lovi ham qoplab berildi. Hozir oilamiz farovon, baxtlimiz. Biz, onalar uchun bundan ortiq nima kerak?! Shunday uylarni qurib bergani uchun Prezidentimizga ming rahmat"[11].

Qonunga ko'ra, ijtimoiy uy-joydan nochor guruhlariga mansub shaxslarning uy-joyga muhtoj va ijtimoiy uy-joy olish navbatida ro'yxatdan o'tgan muayyan toifalari foydalanishi mumkin. Ushbu guruhlar, boshqalar bilan bir qatorda, 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan ishsiz shaxslar, bemor shaxslarning muayyan toifalari, yolg'iz yashaydigan pensionerlar, ikkinchi jahon urushining ba'zi faxriylari va yetimlarni asrab olgan oilalardan tashkil topgan. Shunga muvofiq, garchi qonunda

"ehtiyot" mezon sifatida qo'llanilsa ham, uysiz bo'lishning o'zi yuqorida zikr etilgan ro'yxatga kiritish uchun yetarli shart bo'lmagan. Umuman olganda, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslar toifasining tavsifi mavjud bo'lgan[12].

2016-2021-yillarda qishloq hududlarida uy-joy qurish orqali aholini turar-joy bilan ta'minlash keng rivojlangan. Shuningdek, aholiga mazkur uy-joylarni sotib olish uchun imtiyozli ipoteka kreditlari ajratilgan. Boshqa tomondan, iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon bir tekisda kechmagan.

Djumaniyazov Umrbek fikriga ko'ra, qishloq hududlarida aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi muammolarning bir qancha sabablari mavjud bo'lgan. Xususan, u yosh avlod va aholining tabiiy o'sishi, migrant ishchilarning uy-joy bozoriga ta'siri, uy-joyi uzoq muddatli moliyalashdan foydalanishning cheklanganligi, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi kamchiliklar muammolarni keltirib chiqarganligini aytgan. Mazkur sabablar natijasida qishloq joylarida aholi turmush darajasi va yashash sharoitlarining talab darajasidan pastligi kabi rivojlanish muammolariga olib kelgan. Bu holat o'z navbatida shaharda migratsiyaning oshishiga, shahar infratuzilmasiga bosim hamda nomutanosib va beqaror iqtisodiy o'sishlarga ta'sir qilgan. Shuningdek, aholining to'lov qobiliyati pastligi hamda namunaviy uylar noqulay hududlarda qurilganligi qishloqlarda aholini turar-joy bilan ta'minlashda qiyinchiliklarni olib kelgan[13].

Shu sababli, qishloq hududlarida aholini uy-joy bilan ta'minlash boshqa yo'llari qidirilgan. Bu qishloq hududlarida qurilgan yangi uylar keyinchalik "arzon uylar" nomi bilan aholi orasida mashhur bo'lgan. Shuningdek, davlatning xususiy kompaniyalar bilan hamkorligi qishloq hududlarida turar-joy qurishni rivojlantirgan[14].

2017-2021-yillarda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ulardan biri mazkur bolalarni uy-joy bilan ta'minlash masalasi bo'lgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun belgilangan imtiyoz qxshimcha ravishda ularga davlat tomonidan ajratiladigan uy-joylar bo'yicha ular 23 yoshga to'lguniga qadar amal qilishi belgilanib, mol-mulk solig'idan ozod qilingan[15].

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, 2016-2021-yillarda O'zbekiston hukumati aholini uy-joy bilan ta'minlash uchun bir qancha samarali ishlarni olib borgan. Dastavval aholini uy-joy bilan ta'minlashning huquqiy asoslari hamda me'yorlari ishlab chiqilgan. Mazkur huquqiy hujjatlar joylardagi aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi kamchiliklar va muammolarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy qilingan. Xususan, bu bosqichda aholining qaysi qatlami ko'proq uy-joyga muhtojligi va buning sabablari o'rganilgan hamda o'rganishlarning yakuniy xulosalari orqali jarayonlar amaliyotga oshirilgan. Bu, ayniqsa, qishloq hududlari misolida o'zining yaqqol aksini ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR

1. Файзиев О. Энг улуг мақсад – фарзандларимиз бахту саодати // Халқ сўзи. – 2015. – № 112.
2. Шукуров С. "Камолот" уйлари бунёд этилмоқда // Халқ сўзи. – 2014. – № 223.
3. Ёш оилаларга байрамона тухфа // Тошкент ҳақиқати. – 2014. – № 23.
4. Файзиев О. Энг улуг мақсад – фарзандларимиз бахту саодати // Халқ сўзи. – 2015. – № 112.
5. Мазкур қарорни қабул қилишдан мақсад қишлоқ жойларда яшаш учун ижтимоий-маиший шарт-шароитларни яхшилаш, қишлоқ аҳолисининг замонавий, сифатли, шинам, арзон уй-жойга бўлган эҳтиёжларини қондириш

- ҳисобланади (Бозоров Р. Аҳолини уй-жой билан таъминлаш - ижтимоий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида. // “UzBridge” журнали. – 2021. – № 1. – Б. 106).
6. Ушбу қарорнинг қабул қилинишидан мақсад республика шаҳарларида яшаётган аҳолини, шу жумладан ёш оилаларни, эскирган уй-жойларда яшаётганларни ва уй-жой шароитларини яхшилашга муҳтож бўлган фуқароларнинг бошқа тоифаларини арзон, қулай, замонавий уй-жойлар билан таъминлаш орқали уларнинг турмуш даражаси ва сифатини янада ошириш, уларни ижтимоий қўллаб-қувватлашни кучайтиришдан иборат бўлди (Бозоров Р. Аҳолини уй-жой билан таъминлаш - ижтимоий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида. // “UzBridge” журнали. – 2021. – № 1. – Б. 107).
 7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий хизматчилари учун уй-жойлар қуриш дастури тўғрисида”ги ПҚ–2858-сон қарори.
 8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Ички ишлар органлари таянч пунктларининг профилактика инспекторларини хизмат уй-жойи билан таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–2906-сон қарори / <https://lex.uz/docs/3175657>
 9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 23 сентябрдаги “Мамлакат ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этаётган ёш оилаларни уй-жой билан таъминлашда қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ВМҚ–753-сон қарори / <https://lex.uz/docs/3367383>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 28 июндаги “2021-2023 йилларда ёшлар уйлари қуришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ВМҚ–394-сон қарори / <http://test.lex.uz/acts/2458685>
 10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 19 майдаги “Сирдарё вилоятининг Сардоба, Оқолтин ва Мирзаобод туманларида аҳоли уй-жойларини қуриш ва таъмирлаш, ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмалари билан таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ВМҚ–294 сон қарори / <https://lex.uz/docs/4817200>
 11. Бу шунчаки рақамлар эмас: Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан мамлакатимизда амалга оширилаётган уй-жой сиёсати ҳақида // Янги Ўзбекистон. – 2021. – №104.
 12. Бозоров Р. Аҳолини уй-жой билан таъминлаш - ижтимоий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида // “UzBridge” журнали. – 2021. – № 1. – Б. 107.
 13. Джуманиязов У. Ўзбекистонда аҳолини уй-жой билан таъминлашни давлат-хусусий шерикчилиги асосида бошқариш механизми хусусиятлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 2019. – № 2. – Б. 9
 14. қаранг: Джуманиязов У. Ўзбекистонда аҳолини уй-жой билан таъминлашни давлат-хусусий шерикчилиги асосида бошқариш механизми хусусиятлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 2019. – № 2. – Б. 1-9.
 15. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг йигирма иккинчи ялпи мажлиси биринчи иш куни тўғрисида ахборот // Халқ сўзи. – 2021. – №268.



UDK:93/94

Qodirjon NAJMIDDINOV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: najmiddinovqodirjon13@gmail.com,

Taqrizchi: Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti t.f.n A.A. Erqo‘ziyev

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTONDAGI EVAKOGOSPITALAR FAOLIYATI (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Аннотация

Mqolada 1941-1945-yillar Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston SSRda tashkil etilgan va ko‘chirib keltirilgan evakogospitallar faoliyati, ularning ikkinchi jahon urushidagi g‘alabani qo‘lga kiritilishidagi ahamiyati ochib berilgan. O‘zbek xalqi urushning dastlabki kunlaridayoq fashizmga qarshi kurashda bor imkoniyat darajasida o‘z hissasini qo‘sha boshladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikada 120 dan ortiq gospitallar faoliyat ko‘rsatgan. Farg‘ona viloyatida esa 16 ta shunday davolash muassasasi faoliyat olib bordi. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi organlari zimmasiga yuklangan murakkab vazifalardan biri bu evakuatsiya qilingan gospitallar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularning ish jarayonlarini tashkil etib, yarador va bemorlarni davolash ishlarini olib borish edi. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalqining evakogospitallar faoliyatidagi ishtiroki, ayniqsa Farg‘ona vodiysidagi evakogospitallar va ulardagi shifokorlarning mehnat jarayonlari dalil va hujjatlar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Gospitallar, mobilizatsiya, “sog‘lomlashtirish pavilyoni”, xalq komissarligi, sanitariya nazorati, Qizil armiya, rentgen, donorlar

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЭВАКОБОЛЬНИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ В ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА)

Аннотация

В статье описана деятельность эвакогоспиталей, созданных и переведенных в Узбекскую ССР в годы Великой Отечественной войны в 1941-1945 годах, и их значение в завоевании победы во Второй мировой войне. Узбекский народ начал вносить свой вклад в борьбу с фашизмом с первых дней войны. В годы Второй мировой войны в республике действовало более 120 госпиталей. В Ферганской области действовало 16 таких очистных сооружений. В годы Великой Отечественной войны одной из сложных задач, возложенных на систему здравоохранения Узбекистана, было налаживание деятельности эвакуированных госпиталей, организация их работы, лечение раненых и больных. В данной статье на основе доказательств и документов раскрывается участие народа Узбекистана в деятельности эвакогоспиталей, особенно эвакогоспиталей Ферганской долины и рабочих процессов врачей в них.

Ключевые слова: Hospitals, mobilization, "health care pavilion", people's commissariat, sanitary control, Red army, X-ray, donors.

ACTIVITY OF EVACOHOSPITALS IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR (EXAMPLE OF FERGONA VALLEY)

Annotation

The article describes the activities of the evacuation hospitals established and moved to the Uzbekistan SSR during the Second World War in 1941-1945, and their importance in winning the victory in the Second World War. The Uzbek people began to contribute to the fight against fascism in the first days of the war. During the Second World War, more than 120 hospitals operated in the republic. 16 such treatment facilities operated in Fergana region. In the years of the Second World War, one of the complex tasks assigned to the health care system of Uzbekistan was to establish the activities of the evacuated hospitals, organize their work processes, and treat the wounded and sick. In this article, the participation of the people of Uzbekistan in the activities of evacuation hospitals, especially evacuation hospitals in the Fergana Valley and the work processes of doctors in them, is revealed on the basis of evidence and documents.

Key words: Больницы, мобилизация, «здравпавильон», наркомат, санитарный контроль, Красная Армия, рентген, доноры.

Kirish. Ikkinchi jahon urushida 1 million 951 mingga yaqin o‘zbekistonliklar qatnashdi. Ulardan 538 mingdan ziyodi halok bo‘ldi, bundan tashqari yana 158 mingdan ortiq nafari jang maydonlarida bedarak yo‘qolgan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda bu masala alohida qayd etildi: “Bular shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida mushtipar onalarimiz, momolarimiz, mard va jasur otalarimiz, butun xalqimiz qalbidagi cheksiz qayg‘u va hasrat mujassam.” Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan ko‘plab tibbiy muassasalar: ko‘chirib keltirilgan shifoxonalar

(evakogospitallar – ko‘chirib keltirilgan, harbiy vaqtda tashkil etilgan shifoxonalar bo‘lib, u yerda bemor va jarohatlangan askarlarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Ushbu mavzuni yoritishda 1941-1945-yillarda O‘zbekiston, xususan, Farg‘ona vodiysida tibbiyot sohasi va sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan A. Xodjakov, K.Qodirov, G.Mo‘minova, Sh.Abdurahimova kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan va O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, O‘zbekiston ilmiy-texnika va

tibbiyot hujjatlari milliy arxivi materiallaridan tahliliy foydalanildi.

Maqolada O'zbekistondagi evakogospitallar, ayniqsa Farg'ona vodiysida tashkil etilganlarini davlat arxivi materiallaridan kengroq foydalanilib, ushbu ma'lumotlar ilmiy doiraga kiritildi. Ushbu davrni kompleks va tizimli tarzda o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari. 1939-yil 1-sentyabr–Ikkinchi jahon urushi boshlangan kun SSSRda “Umumiy harbiy majburiyat to'g'risida” gi qonun qabul qilinadi. Unga ko'ra, Mudofaa va Harbiy dengiz floti xalq komissarliklariga armiya hamda flotda harbiy xizmat o'tash uchun erkaklar bilan bir qatorda tibbiy, veterinar hamda maxsus texnik tayyorgarlik malakasiga ega ayollarni ro'yxatga olish va xizmatga jalb etish huquqi berilgan edi.

Ayollarning yordamchi va maxsus vazifalarni bajarishga jalb etilib nazarda tutilib, armiyada xizmat qilish uchun 19 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar ikkinchi darajali zahira erkaklar toifasiga kiritilgan. Shu vaqtdan boshlab, tibbiy mutaxassisligi bo'lgan ayollarga harbiy majburiyat yuklatilib, ular hisobga qo'yilgan. Shuning uchun urush sharoitida mutaxassislarining harbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. 1940-yil iyunda SSSR Sog'liqni saqlash xalq komissariati tomonidan “Evakuatsiya ospitallari, ya'ni harakatdagi tibbiy muassasalarni shakllantirish to'g'risida”gi Nizom tasdiqlanadi. Ular boshqaruv va moliyalashtirish jihatidan joylardagi sog'liqni saqlash organlariga bo'ysundirilib, amaliyot jihatidan mudofaa komissarligi tomonidan harbiy xizmat davomida yaralangan va kasallangan bemorlarga xizmat ko'rsatganlar. Ko'chish rejasiga asosan, ushbu tibbiy muassasalar maktab va boshqa jamoatchilik binolariga joylashtirilishi belgilangan. Har bir hospital jarrohlik, bog'lov, rentgen va tashxis bo'limlari hamda kasallar uchun alohida yotoq joylariga ega bo'lgan. Shu yo'sinda, har bir respublikada harakatdagi tibbiy muassasalar tizimi vujudga keldi. Urushning dastlabki yillarida dushman bosib olgan Ukraina, Belorussiya va Rossiya hududlaridan O'zbekiston SSRga aholini ko'chirish ishlari amalga oshirildi. Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy soveti sekretariatining 1941-yil 28-avgustdagi qarori bilan O'zbekiston Hospital boshqarmasi tashkil etildi. O'zbekiston SSR Hospital boshqarmasi tomonidan ko'plab amaliy ishlar bajarilgan: tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilangan, tajribali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan, tashxis tekshiruv-davolash ishlari yo'lga qo'yilgan. Ospitallar ko'proq Samarqand va Toshkent shaharlarida tashkil etilgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi hududiga ham ospitallari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, Ikkinchi jahon urushi yillarida bu evakogospitallar g'alabani qo'lga kiritilishida muhim o'rinni egallagan.

Respublikaga janglarda yarador bo'lgan askar va zobitlar ham keltiriladi edi. Bu borada ham o'zbek xalqi o'z mehr-saxovatini ko'rsatdi. O'zbekiston sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941-yil 1-oktabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega 47 hospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'ringa ega 48 hospital ko'chirib keltirilib, joylashtirildi va ishga tushirildi. Viloyat, tuman, shahar idora organlari ospitallardan xabar olib turdi, ospitallarga xo'jaliklar tashkil etish va ish yuritish uchun yer maydonlari ajratib berildi. Agar 1941-yilda shu maqsadda 385,5 gektar yer ajratilgan bo'lsa, 1943-yilga kelib ajratilgan yer maydonlari esa 656 gektarni tashkil etdi. 1942-yilda 1513 mehnat jamoalari, shu jumladan, 750 korxonalar, kolxoz va sovxozlar ospitallarni otaliqqa olib, ularni yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan ta'minlab turdi. O'zbekistonlik 18482 nafar donorlar yaradorlarni oyoqqa

turg'izish uchun qon berishdi. Urush yillarida O'zbekistondagi ospitallarga 164382 yarador va bemorlar joylashtirildi, ularning 87 foizi, 143101 kishi davolanib chiqdi. O'zbekistonliklar davolanib sog'ayganlarga sovg'a-salomlar berish bilan birgalikda doimo ularga chiroyli bir xaltacha tikib berishni ham kanda qilmaganlar.

Andijon viloyatida 1941-yili 5 ta harbiy hospital tashkil etilib, keyingi yillarda ular 10 taga yetdi. Ospitallar uchun maktab va institut, klub va teatr, dam olish uylari va sanatoriyalar bo'shatib berildi. Masalan, Andijon shahrining 24-son maktab binosiga 5161-evakogospitali joylashtirildi.

Qo'qon shahrida esa, 1942-yili 200 o'rinli 4513-sonli evakogospital 53-maktabga, 200 o'rinli 3968-sonli evakogospital 1-maktabga, 100 o'rinli 3969-sonli evakogospital O'qituvchilar institutiga joylashtirishga qaror qilindi. Bundan tashqari, 4104-son Oktabrning 10 yilligi Dam olish uyi bazasiga, 4105-son sil kasalligi ospitali esa (150 o'rinli) Oktabrning 15 yilligi nomli Toshkentning sil kasalligi sanatoriysiga joylashtirilgan. 4107-son umumiy jarrohlik ospitali Farg'onadagi dam olish uyida, 4108-son umumiy jarrohlik ospitali O'shdagi dam olish uyida, 4109-son umumiy jarrohlik ospitali Frunzedagi dam olish uyida joylashtirilgan. Farg'onadagi 4107 evakogospital binosi 1905-yil kvartira sifatida qurilgan. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin dehqonlar uyi bo'lgan, keyin choyxonaga aylantirilgan. Keyinchalik bino paxta sanoati xodimlari uchun Dam olish uyiga aylantirilgan va 300 kishilik sig'imga ega edi.

Evakogospitallarga yaradorlar va bemorlar sanitar poyezdlarda va mashinalarda olib kelingan. Jumladan, Farg'onadagi 4107 evakogospital Skobelev bekatidan 4 km. masofada joylashgan bo'lib, u yerda yarador va kasallar sanitar poyezddan qabul qilib olgan. Birinchi bor 120 yaradordan iborat bemorlar 1941-yil 22-oktabrda qabul qilingan va undan keyin 50-100 atrofida yaradorlar qabul qilingan. Ular ospitalga mashinalarda olib borilgan bo'lib, transport bilan ta'minlash mahalliy organlar zimmasida edi.

Ospitallar joylashtirilgan binolar ko'pincha talabga javob bermagan. Jumladan, ularda suv va kanalizatsiya tizimi o'tkazilmagan. Farg'onadagi 4107 ospitalda ham suv va kanalizatsiya mavjud emasdi. Palatalarning ko'pchiligi yo'laklarda joylashtirilgan. Binoning markazidagi yo'lakda 30 ta koyka joylashtirilgan. Yilning iliq faslarida u yerga 200-250 kishi qabul qilingan bo'lsa, qishda 11 ta palataga arang 150 koyka sig'dirish mumkin bo'lgan. 1944-yil ospitalda palatalar kasalliklar bo'yicha xonalarga joylashtirilgan. 1944-yil yoz, kuz mavsumlarida parkda “sog'lomlashtirish pavilyoni” tashkil etilgan. Yuqumli kasallikka chalingan bemorlar izolyatorga joylashtirilgan.

1942-yilda ospitallarda yaradorlarni saqlashga 7250, 4 ming rubl va taqsimot qilinmagan evakuatsiya ospitalari uchun 378 ming rubl mablag' sarflangan bo'lib, mazkur masala uchun ajratilgan 8139,5 ming rublning 89 foiz qismi ishlatilgan, xolos. Suv muammosi tufayli 2 ta xonaga joylashtirilgan sanitariya nazorati bo'limida atigi bitta vanna va 2 ta yomg'irli dush bo'lgan. Mavjud hammomning ahvoli achinarli bo'lib, ustiga ustak u ham bemorlarga ham, xodimlarga ham xizmat ko'rsatgan.

Andijonda urush yillarida g'arbdan ko'chirib kelingan N. Panishevskaya, A. Aslibekyan, I. Garinina, N. Mixaylova, A. Romanenko kabi tibbiyot xodimlari bor edi. Urush qatnashchilari va yaradorlarga tibbiy amaliy yordam va maslahatlar berishda tibbiyot sohasi olimlaridan V. Pilatov, V. Talalayev, N. Bogoraz, K. Maystrax va boshqalar jonbozlik ko'rsatdi. Harbiy ospitallarda mahalliy shifokorlardan T. Gulbasarova, I. Rasulov, M. Isaxonov, S. Muxammedov, R. Farhodi, A. Umarova, R. Yusupova va boshqalar fidokorona xizmat qildi.

1941-yil 23-sentabrdan 1941-yil dekabrgacha umumiy jarrohlik sohasida tibbiy xizmat ko'rsatish yuqori bo'lib,

o'rtacha 300 koykani tashkil etdi. 23-oktabrdan 1-yanvargacha koykalar 15480 ta etib belgilangan, lekin amalda 12466 ta koyka tashkil etilgan, ya'ni qamrov 80,5 foiz bo'lgan. 1942-yilda gospitallarda davolanarlardan 79,1 foizi yaralanganlarni, 6,4 foiz muzlab qolganlarni, 0,6 foiz kuyganlarni, 2,9 foiz kontuziya bo'lganlarni, 11 foiz turli kasalliklarga chalingan bemorlarni tashkil etgan.

Farg'onadagi 4107 evakogospitalda faoliyat yuritgan xodimlarning aksariyati urushda ishtirok etayotgan harbiylarning oila a'zolaridan iborat edi. Gospitalga 1941-yil sentabrdan 1944-yil iyulgacha kapitan Akinshin rahbarlik qilgan, uning o'rnini shifokor mayor B. Krinskiy egallagan. Bu gospitalda 1942-yilda 192 ta, 1943-yilda 380 ta, 1944-yilda 714 ta jarrohlik amaliyoti amalga oshirildi.

O'zbekistondan g'arbga ham Harakatdagi armiya qismlari uchun ham gospitallar tuzilib, frontga jo'natildi. Masalan, Andijon viloyatida shunday davolash muassasalaridan 8 tasi tuzildi va ular eng zarur tibbiy asbob-uskunalar, kadrlar bilan ta'minlanib, frontga yuborildi [10]. Shunday shifokorlardan biri 1939-yilda Toshkent Tibbiyot institutini tamomlagan Husniddin Salohiddinov 1942-yilda urushga jo'natildi. U Shimoliy Kavkaz frontlarida jang qilganidan so'ng Lvovdagi chegara qo'shinlari okrug gospitalining asab kasalliklari bo'limi boshlig'i etib tayinlanadi hamda 1946-yilgacha bu yerda faoliyat yuritadi.

Shunday qilib urush yillarida O'zbekistonga boshqa muassasalar qatori gospitallar ham ko'chirildi va ular respublikaning turli hududlariga joylashtirildi. Mazkur gospitallar uchun qator muassasalar binolari ajratib berildi hamda ularni moslashtirishga harakat qilindi. Lekin, ularning ko'pchiligida kanalizatsiya va suv tizimi o'tkazilmagan edi. Chunki, o'sha vaqtda O'zbekiston shaharlarida kanalizatsiyali va suv quvurlari o'tkazilgan binolar kam edi. Gospitallarda butun faoliyati davrida tibbiy asbob-uskunalar, xodimlar yetishmagan, moliyaviy taqchillik bo'lgan. Gospitallarda SSSR ning markaziy qismlaridan kelgan tibbiyot sohasidagi olimlar,

shifokorlar mahalliy shifokorlar bilan birga faoliyat yuritdi. Front oldi hududlaridan ko'chirib keltirilgan gospitallar urush harakatlari to'xtagach, yana ortga qaytarib yuborilgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbekistonlik tibbiyot xodimlari frontga jo'natilib, janggohlarda yaradorlarga va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishdi.

O'zbekistondagi ishchilar, dehqonlar va ziyolilar o'z vatanparvarlik burchini his etib, respublika gospitallarida davolanayotgan jangchilarga g'amxo'rlik ko'rsatib, ularning tuzalib yana o'z yaqinlari yoniga qaytishlari, jamiyatga foydali bo'lib yashashlari uchun yordam berib, ulug' insoniylik fazilatlarini namoyon etdilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1941-1945 yillarda O'zbekiston SSR yarador askarlarga tibbiy yordam beruvchi yirik shifoxonalardan biriga aylantirildi. Jang ichida qolgan hududlardan O'zbekiston SSR ga harbiy tibbiyot muassasalarini ko'chirib keltirish, ularning faoliyatini tez fursatda yo'lga qo'yish, yarador va bemor jangchilarning sog'lig'ini tiklab, harbiy xizmatga qaytarish borasida amaliy ishlar olib borilgan. Bu yerda yuzlab turli-tuman tibbiy muassasalar: ko'chirib keltirilgan shifoxonalar (evakogospitallar – ko'chirib keltirilgan, harbiy vaqtda tashkil etilgan shifoxonalar bo'lib, u yerda bemor va jarohatlangan askarlarga tibbiy yordam ko'rsatilgan. Ko'chirib keltirilgan shifoxonalar o'z hududlari (Rossiya, Belorussiya, Ukraina)da asosan, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni amalga oshirgan, ya'ni o'z xususiyatiga ko'ra, oddiy davolash muassasasi hisoblangan. Ammo, front ortiga ko'chirilgandan so'ng ularning xususiyati va vazifalari tubdan o'zgartirilib, harbiylashtirilgan rejimga o'tkazilgan. Ushbu tibbiyot muassasalari endilikda oddiy aholini emas, balki yarador jangchilarni tez fursatda davolab, frontga qaytarish vazifasini bajargan va harbiylarga xizmat ko'rsatuvchi shifoxonaga aylangan. Shu bilan birga, asli harbiylarga xizmat ko'rsatuvchi harbiy shifoxonalar ham ko'chirib keltirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021-йил Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқи. 2021 йил 9 май - <https://president.uz/uzlists/view/4335>. [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the Day of Remembrance and Appreciation 2021. May 9, 2021 - <https://president.uz/uzlists/view/4335>.]
2. Ходжаков А. Здравooхранение Андижанской области в годы Великой Отечественной войны// Медицинский журнал Узбекистана. -1985. -N -5. -С-9. [Khodzhaqov A. Health care of the Andijan region during the Great Patriotic War // Medical Journal of Uzbekistan. -1985. -N -5. -Sh-9.]
3. O'zMA.R-837 fond, 32-ro'yxat, 3347-yig'ma jild, 150-varaq [Fund UzMA.R-837, list 32, volume 3347, page 150.]
4. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 40-yig'ma jild, 80-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 40, page 80, 81, 84]
5. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 109-yig'ma jild, 1-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 109, page 1.]
6. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 109-yig'ma jild, 1a-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 32, volume 109, page 1a.]
7. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 40-yig'ma jild, 3-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 40, page 3.]
8. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 26-yig'ma jild, 2-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 26, page 2.]
9. O'zMA.R-2096 fond, 1-ro'yxat, 109-yig'ma jild, 2-varaq [Fund UzMA.R-2096, list 1, volume 109, page 2, 18]
10. O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 9463-yig'ma jild, 21-varaq [National archive of scientific, technical and medical documents of Uzbekistan. Fund 1, list 1, collective volume 9463, sheet 21.]



UDK: 9(58)004(09)681.1(584.4)

Mehridin NURIDDINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail:nmnismatullaevich@mail.ru

Kimyoxalqaro universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi, A.Zamonov taqrizi asosida.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE INTERNET AS A SOURCE OF HISTORICAL INFORMATION

Annotation

This article examines various aspects of the development of the Internet as a source of historical information. It also examines how the Internet has made historical research more accessible and efficient.

Key words: internet, interdisciplinarity, information, hypertext, e-education, media technology, research, e-mail.

СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНТЕРНЕТА КАК ИСТОЧНИКА ИСТОРИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные аспекты развития Интернета как источника исторической информации. В нем также рассматривается, как Интернет сделал исторические исследования более доступными и эффективными.

Ключевые слова: Интернет, междисциплинарность, информация, гипертекст, электронное образование, медиатехнологии, научные исследования, электронная почта.

TARIXIY MA'LUMOTLARNI OLISH MANBAI SIFATIDA INTERNETNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarixiy ma'lumotlar manbai sifatida Internet rivojlanishining turli jihatlarini muhokama qilinadi. Shuningdek, Internet qanday qilib tarixiy tadqiqotlarni tadqiq etishda yanada qulay va samaraliroq bo'lgani ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Internet, fanlararo, axborot, gipermatn, elektron ta'lim, media-texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar, elektron pochta.

Kirish. Yaqin vaqtlargacha Internet "mikrokompyuter inqilobi" hodisalaridan biri sifatida faqat ma'lumot almashish vositasi, ba'zan yordamchi vosita sifatida qabul qilingan bo'lsa, endi Internet jamiyatning ko'plab sohalarida yangicha o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'zgartirdi. Jamiyat va davlat haqidagi an'anaviy g'oyalarning mohiyati va formatini o'zgartirdi, bu orqali ilmiy bilimlar yangi mazmun bilan to'ldirilib borilmoqda[1].

Mavzuga chuqur kirishdan oldin Internet tarixiga nazar solsak. Internet elektron qurilmalar bilan bog'liq bo'lgan murakkab, rivojlanayotgan texnologiyalarning natijasidir. Masofaviy kompyuterlarni ulash tarmog'ini yaratish g'oyasi Internet paydo bo'lishidan ancha oldinroq yuz bergan edi. 1960-yillarda ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network) - AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq zamonaviy Internetning prototipi edi.

1990-yillarda ARPANET World Wide Web (WWW) bilan birlashtirildi, bu HTML hujjatlarini, fotosuratlar, audio va video fayllar kabi turli xil resurslarni qulay tarzda almashish imkonini berdi. Tarixiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan WWW-saytlar tez tarqala boshladi, bu esa qulay ma'lumot almashish imkonini berdi.

Olimlarning ta'kidlashicha, o'tgan 50 yil ichida informatika sohasida uchta inqilob sodir bo'ldi: birinchisi - "yirik" kompyuterlar (EHM) ning paydo bo'lishi, ikkinchisi - shaxsiy mikrokompyuterlarning yaratilishi, uchinchi - Internetning yaratilishi[2].

To'rtinchi inqilob bu sun'iy intellektning inson hayotiga tobora kuchli ta'sir etishida deb bilish mumkin. Shu kungacha biz Internetdan ko'proq ma'lumotlarni izlash maqsadida foydalangan bo'lsak, endi esa hayotimizning har bir jabhasida undan dasturulamal sifatida foydalanmoqdamiz.

1-jadval

Internet foydalanuvchilari soni bo'yicha mamlakatlar ro'yxati

№	Internet foydalanuvchilari	2005	2010	2017	2019	2021
	Dunyo bo'ylab foydalanuvchilar	16%	30%	48%	53,6%	59,5%
	Rivojlanayotgan mamlakatlardagi foydalanuvchilar	8%	21%	41,3%	47%	
	Rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilar	51%	67%	81%	86,6%	

2-jadval

Mintaqalar bo'yicha Internet foydalanuvchilari

№	Internet foydalanuvchilari	2005	2010	2017	2019
	Afrika	2%	10%	21,8%	28,2%
	Shimoliy va Janubiy Amerika	36%	49%	65,9%	77,2%
	Arab davlatlari	8%	26%	43,7%	51,6%
	Osiyo va Okeaniya	9%	23%	43,9%	48,4%
	MDH davlatlari	10%	34%	67,7%	72,2%
	Yevropa	46%	67%	79,6%	82,5%

Wikipediyaning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2020-yilga kelib Internet foydalanuvchilari soni 16 730 000 nafarga yetib, aholining qariyb 71,1 %i doimiy ravishda

foydalanib kelmoqda. Bu ko'rsatkich kundan kunga ortganini ko'rsatmoqda.

Hech kimga sir emaski, Vatanimizda yashayotgan aksariyat fuqarolarimiz o'tmishning ko'p qismini ilmiy

kitoblar, maxsus ilmiy nashriyotlarda bosib chiqariladigan maqolalar orqali emas, balki kino, OAV, internet, yoshi kattalarning esdalik xotiralari orqali bilishadi.

Bugun axborot kommunikatsiya texnologiyalarining izchil taraqqiy etishi jamiyatni modernizatsiya qilishda asosiy faktorlardan biri bo'lib, uning ta'sirini iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rivojlanishida ham ko'rish mumkin[3].

XX asrning 80-90 yillarida keng avj olgan axborotlashtirish jarayoni tarix faniga ham ta'sir ko'rsatdi. 90-yillarga kelib tarix fani tadqiqotlarida kompyuterlardan asosan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalanila boshlangan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llanila boshlandi. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari oshib bordi.

Arxivlarda va boshqa hujjat saqlanadigan joylarda tadqiqotchilar noutbukdan foydalangan holda o'zlarining juda katta ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlar bazalarini yarata boshladilar. 90-yillarning oxirlariga kelib esa turli mamlakatlarda tarixiy tadqiqotlar sohasida 20 dan ortiq yirik ma'lumotlar banklari faoliyat ko'rsata boshladilar. Tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirilishning tezkor jarayonlariga "elektron pochta" lar ham moslashib borib, "InterNET" tarmoqlari va undagi juda keng hajmli axborotlar bilan tanishish va ulardan foydalanish imkoniyatlarining yuzaga kelishi bilan axborot almashish borasida ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida endi "Internet" ham o'ziga xos "axborot manbasi" vazifasini bajara boshladi[4].

Avstriyalik olimlar keltirgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, G'arbiy Evropa universitetlaridagi ilmiy tadqiqotlarning qariyb 30%i Internet ma'lumotlar bazasidan tarixshunoslik va manbaviy materiallar sifatida foydalanishadi. Bular: demografiya, ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiyot, siyosat, sotsiolo-giya, psixologiya, axborotshunoslik va boshqalardir.

Butunjahon Internet tarmog'i ilmiy bilim va madaniy merosni tarqatishda amaliy va iqtisodiy sharoitlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda internetning ulkan imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish orqali ilmiy nashrlar mohiyatining sezilarli o'zgarishiga va mavjud ilmiy salohiyatni yuqorilatishda o'zgarishlarning boshlanishiga olib keldi[5].

Internetning keng qo'llanilishi ortidan ilmiy ma'lumotlarni olish yangilanmoqda, yangi ilmiy toifalar va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Hayotimizda allaqachon "Elektron kutubxona", "elektron hujjat", "elektron hukumat", "Internet ta'limi", "elektron pochta" va shu kabi tushunchalar (iboralar) tanish bo'lib ulgurdi. Yangi e-learning, e-library, e-science, e-data, e-culture, e-government, e-business kabi neologizmlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Bugun har birimiz kundan kunga butunjahon o'rgimchak to'ridan foydalanamiz: elektron pochtdan foydalanamiz, kerakli ma'lumotlarni izlaymiz, ijtimoiy tarmoq orqali bir-birimiz bilan muloqotga kirishamiz.

Har sohadagi ma'lumotlarning ko'pligi va uning hamma uchun olish imkoniyatining mavjudligi, Internetdan foydalanishni kundan kunga oshiradi va uning tobora ommalashib borishiga zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tajribasidan ma'lumki, tarix sohasiga oid ma'lumotlarni elektronlashtirish masalasi bilan yuqori texnologiya va tajribali mutaxassislariga ega bo'lgan xususiy kompaniyalar ham shug'ullanadi. Bunday loyihalar haqida Yu.V. Dunaeva, L.I.Borodkin va I.M.Garskovalarning ishlaridan ma'lumot olish mumkin[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning tadqiqotlari orqali tarix fani sohasida yangi tarixiy informatika fanining shakllanishi, shubhasiz, tarix fani taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Tarixiy informatika tarixiy tadqiqotlarda axborot texnologiyalarini qo'llashning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi: tarixiy ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklarini yaratishda axborot texnologiyalarini qo'llash; tizimli, matnli va grafik hamda boshqa manbalarni taqdim etish, tahlil qilish; tarixiy jarayonlarni kompyuterda modellashtirish; multimediyali texnologiyalari va tarix fani hamda ta'limini axborotlashtirishning boshqa yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llashni o'z ichiga oladi[7]. Bu kabi sohalarda tarix faniga oid tadqiqotlarni olib borishda Internetning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Internetni rivojlantirish va uning resurslaridan foydalanish muammolari 1990-yillarning o'rtalarida rus tarixchilarining alohida e'tibor mavzusiga aylandi. Xususan, 1996-yildan buyon bu muammo "Tarix va kompyuter" asotsiatsiyasi (AIK) a'zolari tomonidan o'rganib kelinmoqda. V.N. Vladimirovning so'zlariga ko'ra, Internetning tarixchilar uchun ahamiyati haqidagi birinchi jiddiy savol AIKning 5-konferensiyasida bo'lib o'tdi[8]. Bu ko'pchilik tarixchilarning Internetdan samarali foydalanishni boshlashi tarixiy tadqiqotlar va ta'lim uchun Internetning roli va ahamiyatini muhokama qilishga olib keldi va tarix bo'yicha ilmiy hamda ta'lim resurslarini yaratishni boshlash vaqti kelganini anglatardi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Internetning jamiyatimizda tutgan o'rnini yanada oshirish va raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalariga oid bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Raqamlashtirishdan maqsad-muddaomiz nima o'zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo'yish, adolatni ta'minlash, – deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev[9].

Bugungi kunda O'zbekistonda shunday Internet orqali o'rganishimiz mumkin bo'lgan axborot resurslari yaratilganki, bularning ko'lami kengayib bormoqda.

Shu jumladan, "InScience" jurnali g'ayratli olimlar tomonidan milliy va xorijiy ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyihalarning nazariy nuqtayi nazarlarini va amaliy natijalarining ommabopligini ta'minlaydigan ijtimoiy loyiha doirasida tashkil etilgan. Loyihaning maqsadi - yetakchi olimlar, ekspert-tahliliy va akademik doiralar uchun mustaqil munozaralar maydonchasini yaratish, shuningdek, dunyoning ilg'or tadqiqot va ta'lim muassasalarining innovatsion g'oyalarini muhokama qilishdir. "InScience" zamonaviy ilmiy yutuqlarni tezkor ravishda o'zaro almashish uchun www.inscience.loc platformasida joylashtirilgan "Jamiyat va Innovatsiyalar" fanlararo ilmiy jurnali formatida elektron ommaviy axborot vositasini yaratdi. Hozirgi kunda ushbu nashr Index Copernicus, Research Bib, Directory of Research Journals Indexing, Advanced ScienceIndex, CrossRef, Academic resource index, Google Scholar kabi xalqaro ilmiy-metrik ma'lumotlar bazalari safiga kirishga muvaffaq bo'ldi[10].

Bundan tashqari, Raqamli tarix platformasi A-OT-2021-542 – "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediyali kompleksini yaratish" amaliy loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, loyiha doirasida Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediyali kompleksini yaratish ko'zda tutilgan.

Mazkur grant loyihasi doirasida Qatag'on qurbonlari bo'lgan yurtdoshlarimiz haqida xotira kitobining mobil ilovasini yaratish, qatag'onga uchragan yurtdoshlarimiz va ularning xotirasini kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida elektron platforma yaratish, platformadan erkin foydalanish uchun elektron bazani shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish, Qatag'on qurbonlari ma'naviy merosini yanada chuqur o'rganish va abadiylashtirish maqsadida manbalarning elektron platformasini shakllantirish va multimedia to'plamini yaratilmoqda[11].

Bundan tashqari, inLibrary – ochiq fan (Open Science) paradigmasi asosida qurilgan ilmiy elektron kutubxonasidir.

Uning asosiy vazifalari ilm-fan va ilmiy faoliyatni ommalashtirish, ilmiy nashrlar sifatini jamoatchilik nazorati, fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish, zamonaviy ilmiy tadqiqot instituti hisoblanadi. inLibrary elektron kutubxonasining yana bir muhim vazifasi o'zbek ilm-fanining iqtiboslarini oshirish va bilim infratuzilmasini shakllantirishdan iboratdir[12]. Bugungi kunda inLibrary platformasida 16 500 dan ortiq maqolalar, 83 ta jurnal hamda 30 dan ortiq tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Yana bir muhim internet tadqiqot sayti www.tadqiqot.uz hisoblanadi. Ushbu internet resursining asosiy vazifasi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan vazifa ilmiy tadqiqotlar yutuqlarini, ya'ni e'tirofqa xizmat qiluvchi jurnallar faoliyatini joriy etish orqali fanni rivojlantirishdir. Jurnalda chop etilgan har bir maqolaga Xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olinadigan DOI (Crossref) raqami beriladi, hamda ushbu Jurnallar xalqaro indeks ma'lumotlar bazalariga kiritilgan.

Tahlillar va natijalar. Bu kabi Internet platformalarining O'zbekiston doirasida ko'plab mavjud bo'lishi va boyishi tarix fani sohasida ilmiy tadqiqotlarning yanada samarali tadqiq etilishiga olib keladi.

Internet asta-sekin rivojlanib, tarixiy ma'lumotlarning tobora muhim manbasiga aylanib ulgurdi. Bu esa tadqiqotchilar, o'qituvchilar, talabalar va boshqalarga tarixni turli nuqtayi nazardan o'rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Internet tadqiqotchilar va o'qituvchilarga tarixiy materiallar bilan ishlash, shuningdek, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar va boshqalar kabi turli manbalarning ma'lumot-

lariga kirish imkonini beradi. Bu tadqiqotchilarga tarixiy vaziyatni kengroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, Internet tarix fani sohasida ilmiy izlanish olib boruvchi tadqiqotchilarga o'zlarining "virtual" arxivlarini yaratish imkonini beradi. Ular ma'lum bir hodisa, shaxs, holat bilan bog'liq ma'lumotlarni izlashlari yoki ma'lum bir mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plashlari mumkin.

Internet tarixni o'rganish uchun eng qimmatli va kuchli vositalardan biridir. 1990-yillarning boshlarida paydo bo'lganidan beri Internet shu darajaga yetdiki, u tarixiy ma'lumotlarning mavjud va qimmatli manbasiga aylandi[13].

Internet ko'plab olimlar, ishlab chiquvchilar, dasturchilar, ma'murlar, arxivchilar, o'qituvchilar, talabalar va boshqalarning hamkorligi natijasidir[14].

Internetning o'sishi bilan bog'liq yana bir eng muhim jihatlaridan biri bu arxivlar, kutubxonalar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar, audio yozuvlar, video yozuvlar va boshqa tarixiy ma'lumotlarning mavjudligidir. Bu kabi manbalarning bunday yaxshilanishi tezlik, qulaylik, yaxlitlik, foydalanuvchilarga qulay formatdagi yaxshilanishlar natijasidir[15].

Nihoyat, Google va Yahoo kabi qidiruv tizimlarining ortib borishi ham tarixiy ma'lumotlar manbai sifatida Internetning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ushbu qidiruv tizimlari foydalanuvchilarga Internetda aniq tarixiy ma'lumotlarni tez va oson qidirish imkonini beradi[16].

Xulosa va takliflar. Bir so'z bilan aytganda, Internet O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar uchun ham bebaho vositaga aylandi. Bu kutubxonalar, arxivlar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar, audio yozuvlar va videolar kabi turli manbalardan ko'plab ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Nihoyat, qidiruv tizimlari foydalanuvchilarga Internetda aniq ma'lumotlarni tezda topishni osonlashtirdi. Shunday qilib, Internet tarixiy ma'lumotlarning bebaho manbai bo'lib, o'tmishni yanada chuqurroq tushunish uchun ijobiy jihatlarini alohida etirof etish joiz hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Internetdan keng foydalanish ilmiy bilimlarni tez va samarali tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa o'z navbatida tadqiqotchi o'rganayotgan mavzusining turli xil ma'lumotlar bilan solishtirish imkoniyatini beradi, bu esa tadqiqotning o'sishiga yordam beradi, ilmiy bilimlarning ko'lamini kengaytiradi hamda keng qamrovda ilmiy izlanish olib borilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Алимгазинов К.Ш. Интернет и историческое знание: от информатизации к новым горизонтам исследований. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2015. –С.102-103. Интернет и историческое знание: от информатизации к новым горизонтам исследований (cyberleninka.ru)
2. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.52.
3. Алимгазинов К. Современные технотронные источники: информационный анализ исторических гипертекстов. Монография. - Алматы: «Изд-во Елтаным», 2014. –С. 3.
4. Илхомов З.А. Тарих фани методологияси. –Тошкент.: 2013. –Б. 174-175.
5. Алимгазинов К. Современные технотронные источники: информационный анализ исторических гипертекстов. Монография. - Алматы: «Изд-во Елтаным», 2014. –С. 107.
6. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкция масалалари (жанубий Ўзбекистон мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2021. –Б. 20.
7. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.64.
8. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.145.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг рақамлаштириш бўйича 2023 йилги вазифалар ва режаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи. 22.02.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/5943>
10. <https://inscience.uz/index.php/socinov/about>
11. <https://raqamlitarix.uz>
12. <https://inlibrary.uz>

13. Whitehouse, D., & Williams, R. Digital history: A guide to gathering, preserving and presenting the past on the Web. London: Routledge. 2018. –P. 132.
14. Laudon, K., & Traver, C. G. E-commerce: Business, Technology, Society (12th ed.). Boston: Pearson Education. 2017. –P. 45.
15. Schofield, B., & Smith, K. The role of technology in historical research. *History Today*, 67(7), 2017. –P. 18-21.
16. Turban, E., King, D., Lee, J., Liang, T.-P., & Turban, D. Electronic commerce: A managerial and social networks perspective (9th ed.). Boston: Pearson Education. 2016. –P. 58.



Davronbek OLIMJONOV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tayanch doktoranti
E mail: davronbek.olimjonov@mail.ru

Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) X.Jumanazarov taqrizi asosida

“BOBURNOMA” ASARIDA HARB ISHI BILAN BOG'LIQ ETNOGRAFIK MA'LUMOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy salohiyati, jang san'ati va boshqaruv an'alarining etnografik tahlili haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bobur va boburiylar davridagi harbiy an'alar, jang usullari, qo'shin tuzilishi hamda jang qurol turlari bo'yicha tarixiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, harbiy san'at, etnografiya, qo'shin, jang, an'ana, jang qurollari, mudofaa, “Boburnoma”, “Humoyunnoma”.

MILITARY ETHNOGRAPHIC INFORMATION IN “BABURNOMA”

Annotation

This article presents interesting information about the military potential, martial arts and the ethnographic analysis of the leadership traditions of the warlord Zahiruddin Muhammad Babur. Historical information on military traditions, battle methods, army structure and types of weapons during the Babur and Baburids is given.

Key words: Babur, military art, ethnography, army, battle, tradition, weapons of war, defense, “Baburname”, “Humayunname”.

ВОЕННО-ЭТНОГРАФИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИЯ В “БАБУРНОМЕ”

Аннотация

В данной статье представлены интересные сведения о военном потенциале, боевых искусствах и этнографический анализ традиций полководца Захируддина Мухаммада Бабура. Даны исторические сведения о воинских традициях, методах боя, структуре армии и видах вооружения в эпоху Бабура и Бабуридов.

Ключевые слова: Бабур, военное искусство, этнография, армия, битва, традиция, оружие войны, оборона, «Бабурнама», «Хумаюннама».

O'tmishdan ma'lumki, harbiy janglar sirlari, qo'shinlarni saqlash, tartib bilan ish yuritish, yangi aslahalar bilan boyitish tajribalari davrdan-davrga o'tib kelayotgan harb an'anasi hisoblanadi. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahoratini, ularning yuksak jang tajribalarini tahlil qilish orqali yurtimiz mudofaa tizimini ilmiy jihatdan yuksaltirish mumkin.

Podshoh va buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida hayoti davomida sodir bo'lgan janglar va zamondosh harbiy sarkardalar faoliyati haqida ham ko'plab ma'lumotlar beradiki, bu ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Shu sababli “Boburnoma” tarixiy lavhalar va qimmatli ma'lumotlar bo'yicha noyob asar sanaladi. Asarda harbiy san'at va holat bo'yicha qiziqarli etnografik ma'lumotlar berilgan va ulardan ayrimlarini tahlil qilamiz.

Bobur 14 yoshidan boshlab harbiy yurishlarda qatnashishni boshlaydi, ungacha otasi Umarshayx zamonida harbiy mashqlar, ayniqsa, kamondan o'q uzish harbiy ilmini yaxshi o'zlashtirgan. Buni “Boburnoma”da bir nechta jang lavhalarida, ov jarayonlaridagi harakatlardan bilish mumkin. Uning o'smirlik davri tahlikali, suronli davrga to'g'ri kelganligi uchun “Men hamisha tinch omonlikda ham to'n, o'q yoyni tashlamay yotardim”[1] - deya yozadi. Janglardan oldin doimo ittifoqchilar bilan kelishuvlarda qo'shinlar jang payti bir-birlarini tanib olish va qo'shilib jang qilish uchun avvaldan maxsus o'ron (parol) tanlanadi. Jang payti undan foydalanish an'anasi haqida asarda shunday yozadi: “O'ron ikki xil bo'ladi: har bir qavmning o'roni bor Chunonchi: ba'zi qavmning o'roni “durdonadir va ba'zisiniki “to'qboy” yoki “lulu”; yana boshqasi: butun lashkarga jang payti ikki so'zini o'ron qilib qo'yadiki, zarur paytda har qayerda uchrashganda, biri bir so'zni aytsa, yana biri o'sha aytilishi kerak bo'lgan

ikkinchi so'zni aytadi. Ana shu yo'sinda el yovdan ayriladi va o'z kishisini yotdan farq qiladi. Bu yurishda rasmiy o'ron “Toshkent” bilan “Sayram” so'zlari edi. “Toshkent” desa, “Sayram” deyilgay va “Sayram” desa, “Toshkent”. Bu jangda Xoja Muhammadali ilgariroq ekan. Mo'g'ullar: “Toshkand, Toshkand” deydi. Mo'g'ullar uni yov kishisi deb hayol qilib, suron solib, nog'orachi nog'ora chalib, o'q qo'yadilar. Ushbu xatolik tufayli Lashkar bir joyda turmay, tarqalishib ketdik [1] – deb, harbiy sir haqida qiziqarli ma'lumot keltiradi. O'rta asrlarda jang oldi ittifoqchilar bir-birlari bilan o'ron orqali harakat qilishni qo'shin lashkarboshilari belgilashgan va jangda o'zaro muloqotda aytib, birgalikda harakat qilishganligini bilib olishimiz mumkin. Bu hozirgi davr harbiy san'at uchun qiziq ma'lumot hisoblanadi.

Bobur ko'pincha janglar uchun ona tomonidan bo'lgan mo'g'ullarni yordamga chaqirgan va ular jang usullari va odatlari bo'yicha ham etnografik ma'lumotlarni beradi: “Bizga ko'makka kelgan mo'g'ul lashkarlarining urushga toqatlari yo'q edi. Urushmoqni qo'yib, o'zimizning elniyoq talab, otdan tushirishga kirishdilar. Bir bu gal emas, hamisha badbaxt mo'g'ulning odati ana shunaqa. Bossa ham o'lja oladi, bostirsa ham o'z elini tanlab o'lja oladi”[1]. Mo'g'ullar tabiatan ko'chmanchi bo'lganligi uchun ularda yagona maqsadga intilish ustunroq bo'ladi. Shuningdek, ularda kelishuvga vafo qilish kabi qadriyatlar juda past darajada bo'lganligi uchun asarda ham Bobur amallar bilan ular haqida zikr etadi.

Bobur asarda yana bir harbiy an'ana haqida etnografik ma'lumot - urush vaqtida raqib qo'shinlari, dushmanga taslim bo'lishi yoki u tomon safiga kirish istagini bildiruvchi qiziqarli lavhani keltiradi: “Urush asnosida Piribek turkman to'rt-besh og'a-inisi bila dastor(salla)larin olib[10], yog'iy (dushman)din yuz evrub bizga kirdilar. Bu Piribek ul

turkmanlardindurkim, Shoh Ismoil Boyandur salotiniga musallit bo'lib, Iroq mamolig'ga mutasarrif bo'lg'onda Abdulboqiy mirzo va Murodbek Boyandur boshliq turkman beklari bila kelib edilar"[1]. Bundan ko'rinadiki, dushman jangchilar sallasini yetchib, quollarining uchini yerga qaratib qo'yishi raqibga taslim bo'lganligi yoki u tarafga o'tganligini anglatadigan harbiy an'analardan hisoblangan.

Jang usullaridan tashqari harbiy xiylalarni ham muallif "Boburnoma" asarida keltirib o'tadi: "Bannuga tushgan zahotiy oq xabar topildiki, dashtdagi bir qabila shimoldagi tog'larni singirib turipti. Jahongir Mirzo (Boburning ukasi) boshchilidga lashkar yuborildi. Kivi(Afg'on qabilasi nomi, hozirgi Afg'onistonning Bannu viloyatida yashagan - D.O.)ning singiri ekan. ... Bu singir olingandan so'ng kivining ulug'laridan Shodixon ismli kishi o't tishlab keldi. Asirlarni ozod qildik"[1]. Shu o'rinlarda matnda ikki tushuncha bir qarashda tushunarsiz ko'rinadi, bular "singir" va "o't tishlab keldi" so'zlaridir. E'tibor bilan qaralsa, "Boburnoma"da bu tushunchalarga qisqa ta'riflar berib o'tilgan. Ya'ni: "Singir lafzini Kobulga kelganda eshitildi. Bu el tog'ni berkitkanni singir derlar emish. Ya'ni: "singir" so'zini Kobulga kelganda eshitdik. Bu el tog'ni tosh bilan to'sishni singir deyisharkan"[1]. Tog'da yashovchi afg'onlar savdo yo'llarini atayin tosh bilan to'sib, karvonni o'zlari joylashgan hududga burish va uni talashni odat qilib olganini hamda Bobur bu bunga chek qo'rganini yozadi.

"Afg'onlar urushmoqdan o'z bo'lsalar dushmanlarning oldiga o't tishlab kelar ekan. Ya'ni bu - men sening molingman degani ekan. Bu odatni o'sha yerda ko'rdik. O'z qolgan afg'onlar o't tishlab keldilar"[1] deb holatni izohlaydi.

Bobur Afg'oniston diyoriga yurish qilganda ko'p mahalliy afg'on qabilalari qarshiliklar ko'rsatgan, hatto qal'a qamalida afg'onlar tunda devordan tushib, Bobur qo'shiniga ko'plab talofatlar qilishadi. Shuning uchun Bobur tungi qo'riqchilikni kuchaytirishga majbur bo'ladi. Ko'hatga yurish paytida shu bilan bog'liq harbiy etnografik ma'lumot keltiriladi: "...har kecha shu yo'sinda cherik elining hammasi navbatma-navbat (qo'riqchilikka) chiqarilardi. Ichki kishilarimizdan (Boburning yaqin odamlari, ukalar, qarindoshlar - D.O.) uch-to'rttasi mash'al ko'tarib har oqshom navbat bilan aylanib kelardi. Men ham biror navbat aylanar edim. Navbatida chiqmagan kishining burmini teshib, Lashkar o'rtasida aylantirardi"[1]. Demak, bundan ko'rinadiki, tungi navbatchilik qilish barcha uchun barobar va qattiq intizom talab etilgan. Mas'uliyatli bo'lish uchun intizomga ro'ya qilmaganlarni jazolash orqali nazorat qilib turilgan. Chunki bu qo'shinning xavfsizligiga bog'liq ahamiyat talab qiladigan jihat hisoblanadi.

Bobur qo'shini doimiy qurollangan holatda yoki qurollanishga tayyor holda yurishgan. Afg'on zaminlariga yurishlar qilinganda aksari qo'shin tarkibini piyoda qo'shinlar tashkil qilgan bo'lsa, Hindistonga yurish davrida otliqlar ko'p sonli bo'lganini jang lavhalar berilgan ma'lumotlardan bilib olishimiz. Lashkarning ta'minoti avval egallangan hududlar hisobidan ta'minlangan. Shuningdek, "uruq" nomli harbiy yurish paytida lashkar ketidan yuradigan ko'ch, yuk [1] bo'lib unda qo'shin chodirlari, qurol-aslahalar, hukmdorga tegishli anjomlardan iborat bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ko'p bo'lmagan qo'shin bilan Hind diyoriga yurish qiladi. Hindistondagi janglarda Boburning haqiqiy sarkardalik qobiliyatini ochib beradi. Xususan, Dehli sultoni Ibrohim va Mevar rojasi Rana Sangaga qarshi janglar u uchun juda katta shuhrat keltiradi. Bobur odatda janglar oldidan o'ziga xos udumlarni amalga oshiradi. Jumaladan, Panipat jangi oldidan "...jo'nab o'ng qanot, chap qanot va markaz qo'shinlarini saflab ko'rikdan o'tkazdim"[1]. Lashkar ko'rigi marosimi [2] o'tkazilgan. Bu marosim lavhalarini "Boburnoma" asariga bag'ishlangan, bugunda "Britaniya" muzeyida saqlanayotgan miniatyuralarda ko'rishi-

miz mumkin. Bunda qo'mondon qo'shinni sanalgan holatda qismlarga bo'lishi, unga sarkardalar tayinlash, jang harakat xaritasini tushuntirish va sadoqatlik bo'yicha qasamlar ichish hamda jang natijasi xayrli bo'lishi uchun qurbonlik keltirish kabi qismlarga ega marosim tasvirlangan. Qurbonlik keltirish uchun asosan yirik shoxli hayvon (miniatyurada oq rangli qoramolni qurbonlikka tayyorlangani tasvirlangan) tanlangan. Bu asosan, an'anaviy amal hisoblanib, Allohga atab qon chiqarish, jonli so'yish kelajakda qilinadigan ishlarni xayrli bo'lishiga ishonch sifatida amalga oshirilgan.

Panipat jang oldidan qo'shinni jangga tayyorlash, jang taktikasini tuzish ishlarini reja asosida olib borishadi. "Shu qo'nimjoyda (Panipatda - D.O.) butunlashkar xalqi holiga qarasha arava keltrishlarini buyurdim. Yetti yuzta arava olib keldilar. Ustod Aliquli[7]ga Rum usuli bilan aravalar orasida zanjir o'rniga ho'kizning xom terisidan arqon eshib tasma qilib bir biri bilan bog'lashga buyurdim. Har ikkita arava o'rtasiga olti-yetti to'ra[8] qo'yiladi. To'fanglardan shu arava va to'ra ortida turib, to'fang otadilar"[1]. Lashkar Bobur mazkur jangda mazkur diyori uchun yangilik bo'lgan to'fang (miltiqdan foydalangan va aynan qozonilgan g'alabada buning xizmati katta edi. Rum (Turkiya) harbiy usulidan xabardorligi Boburning harbiy o'rganuvchanligiga yana bir dalil hisoblanadi. Panipat jangidan so'ng g'alaba qozongan Bobur o'z qo'shini yutuqlari va raqib Sulton Ibrohim qo'shinini mag'lubiyatini ham izoh berib: "Hindistonda shunday odat bor: agar shunday urushlar ro'y bergudek bo'lsa, belgilangan muddat uchun pulga navkar yollanadi. Yollangan kishilarni "badhandiy" deb ataydilar"[1]. Raqib hindlar tarkibidagi yollangan askarlar tartibsiz jang qilishi va jonini fido qila olmaydigan jangchilar Bobur qo'shinining g'alabasiga sabab bo'lganini keltiradi.

Hind diyori fathida muhim rol o'ynagan hind rojasi Rana Sangaga qarshi Kanva jangi oldidan bir nechta harbiy an'anaviy marosimlar o'tkazilgan. Xususan, boburiy malika Gulbadanbegim o'z asari "Humoyunnoma"da: "Dholpur[9]da ham bir pora toshdan dah dar dahi (o'nga o'n) hovuz qurishga farmon berdilar va dedilarki, qachonki hovuz tayyor bo'lsa, sharop bilan to'ldiraman. Rana Sanga bilan bo'lgan jang oldidan sharop ichishdan to'vba qildilar va limon sharbati bilan to'ldirdilar[3]. An'anaga ko'ra qo'shin jangga kirishdan avval qo'rqov va havotirni bosish maqsadida hovuzga to'ldirilgan sharopdan ichiladi va jangga kirganlar. Bobur Kanva jangi oldidan qo'shin oldida turib, ichkilikni tashlash to'g'risida farmon beradi va Bobur bilan birga "mardlik, yakdillik va hamjihatlikka da'vogar to'rt yuz yosh yigitlar ham o'sha majlisda tavba qildilar".

An'anaga ko'ra, jang oldidan munajjimlarga murojaat qilinadi va to'qnashuv yulduzlar hisobiga ko'ra xayrli yoki aksincha bo'lishini ta'birini aniqlashtiradilar. Rana Sanga qo'shini qarshida turgan paytda munajjim Muhammad Sharif lashkarlarga "Podshoh hazratlari hozir jang qilmaganlari ma'qul, sakkiz yulduz barobar turibdi"[3] - deb gap tarqatadi. Lashkarlar havotirda qoladi. Bobur aqlli tadbirni o'ylab, yuqoridagi mast qiluvchi ichimlik ichishni tashlab to'vba qilish haqidagi farmoni beradi. Oldin kumush qadahlar sindirilib, kambag'allarga ehson qilinadi. Barcha farmonni qabul qiladi hamda "xotinini taloq qilish va Qur'oni karim"[3] bilan jasorat va sadoqali bo'lish, to'singgi nafasigacha jang qilishlariga qasamlar ichiladi. Bu jangni boshqa janglaridan farqi bu g'azot jangi edi. Jangda g'alaba qozongan Bobur g'oziy bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ko'p an'analardan oliy maqsadi yo'lida foydalandi, ayrimlaridan esa voz kechadi. Hind fathidan so'ng u diyorning ko'plab an'ana va marosimlarini tartibga soladi. Bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlarini jadallashadi. Xalqning turmush sharoiti yaxshilanadi. Hindistonda Bobur va boburiylar amalga oshirgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari hind va jahon sivilizatsiyasi rivojiga

xizmat qilmoqda.

Bobur podshoh butun hayotining aksari qismini harbiy holatda, janglar bilan o'tdi. Barcha g'alaba va mag'lubiyatli janglar unga kelajakda markazlashgan davlat barpo qilish yo'lida unga muhim tajribalar berdi. Zamonasining yirik sarkardalari – Imoil Safaviy, Shayboniyxon, Ibrohim Lo'diy, Rana Sanga kabilar bilan ittifoqda yoki qarshi janglardan Bobur ko'p bilimlarni o'zlashtirib, keyingi harbiy yurishlarida undan foydalanganini “Boburnoma” asari orqali bilamiz. Hindiston yurishida “to'lg'ama”[11], afg'on va turklardan

o'tochar qurol (to'fang)dan foydalanish, mo'g'ullardan pistirma va xiyla ishlatish kabi harbiy usullaridan foydalangan hamda keyinchalik o'zi ham “Harb ishi” nomli (topilmagan) risola yozishiga zamin yaratdi.

Xulosa qilganda, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning harbiy yutuqlaridan mamlakatimiz mudofaa tizimi va harbiy taktikasini boyitishda foydalanilsa, yanada qudratli bo'ladi. Zero, buyuk sarkardalarimizning harbiy usullari o'z zamonasining eng yaxshilari va muhimi sinovdan o'tgan tarjiba na'munasidir.

ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, “O'zbekiston” – Toshkent 2019.
2. Boburnoma rasmlari, “Fan” va “Korvina” – Toshkent, Budapesht 1979.
3. Gulbadanbegim, Humayunnoma, “Fan” – Toshkent 2021.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi, “Sharq” - Toshkent 2014.
5. Sharofiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, “Maxpirat”, Toshkent – 2005.
6. Olimjonov D., “Boburnoma” asarida etnografik ma'lumotlar // “Bobur va Axsikent” mavzusidagi Respublika uchinchi ilmiy konferensiya materiallari, Namangan 2023.
7. *Ustoz Aliquli – Boburning o'qotar jangchisi va qurolsoz ustasi.
8. *Odam bo'yli qalqon
9. *Agradan 57 km janubda joylashgan Dholpur hokimi Muhammad Zaytun 1526-yil ardog'ida Bobur hukmronligini tan olgan va Bobur Muhammad Junayid barlosni u yerga hokim etib tayinlagan.
10. Salla (bosh kiyimlarini) yechib demoqchi. Jang paytida dushmandan ajralib turish va o'z odamlarini tanish uchun bir xil rangdagi kiyim kiyish lozim bo'lgan.
11. *To'lg'ama – dushman kuchlariga qanotdan aylanib o'tib hujum qiluvchi otlq qism va bu qism amalga oshiradigan harbiy taktikasidir. Bu atama Amir Temur qo'shiniga xos bo'lgan qunbul qismiga mos keladi. Bobur to'lg'ama usulini o'zlashtirib qator janglarda, xususan, 1526-yilgi Panipat(Ibrohim Lo'diy bilan) va Kanva (Rana Sanga) to'qnashuvlarida muvaffaqiyat bilan qo'llagan.



Oybek SAYDATOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ozobek.radjabov.1994@mail.ru

TDSHU professori, tar.f.d. Shadmanova S. B. taqrizi asosida

ENGLISH MISSIONS IN CENTRAL ASIA

Annotation

There are problems in world history that have not lost their relevance and importance over the years. One of such problems is the Anglo-Russian rivalry in Asia, which began in the middle of the XIX century. This issue is reflected in the monographs of all major world historians, politicians and experts, as well as in many textbooks, magazines and newspaper articles on international relations and diplomacy.

The process of struggle that began between the two imperialist states, Britain and Russia, has gathered many states around it over the years. This area of struggle has covered a very large area of the Eurasian region and has caused very complex political, economic and social problems.

Key words: The Great Game, English Historiography, Indian Empire, Royal Colonial Institute, East India, Victorian Age, Royal Geographical Society.

АНГЛИЙСКИЕ МИССИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В мировой истории есть проблемы, которые не утратили своей актуальности и значимости за прошедшие годы. Одной из таких проблем является англо-русское соперничество в Азии с середины XIX века. Эта проблема отражена в монографиях всех крупнейших мировых историков, политиков и экспертов, а также во многих учебниках, журналах и газетных статьях по международным отношениям и дипломатии.

Процесс борьбы, который начался между двумя империалистическими государствами, Великобританией и Россией, собрал много государств вокруг этого за эти годы. Эта область борьбы охватила очень большую территорию Евразийского региона и вызвала очень сложные политические, экономические и социальные проблемы.

Ключевые слова: Большая игра, английская историография, Индийская империя, Королевский колониальный институт, Ост-Индия, викторианский век, Королевское географическое общество.

MARKAZIY OSIYODAGI INGLIZ MISSIYALARI

Annotatsiya

Jahon tarixida shunday muammolar borki, yillar davomida o‘zining dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shunday muammolardan biri sifatida XIX asr o‘rtalaridan Osiyoda boshlangan ingliz-rus raqobatchiligini ya‘ni “Katta o‘yin” siyosatini aytib o‘tishimiz lozim. Ushbu masala barcha yirik dunyo tarixchilari, siyosatchilari va ekspertlarining monografiyalarida, xalqaro aloqalar va diplomatiyaga bag‘ishlangan ko‘pgina darsliklar, jurnallar va gazetalarning maqolalarida o‘z aksini topgan. Dastlab ikkita imperialistik davlatlar Angliya va Rossiya o‘rtasida boshlangan kurash jarayoni yillar davomida o‘z atrofida juda ko‘plab davlatlarni to‘pladi. Ushbu kurash maydoni Yevroosiyo mintaqasining juda katta hududlarini qamrab olib, juda murakkab bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

Kalit so‘zlar: “Katta o‘yin”, ingliz tarixshunosligi, Hind imperiyasi, Qirollik mustamlaka instituti, Ost-Indiya, Viktoriya asri, Qirollik Geografiya jamiyati.

Kirish. Bugungi kunda respublikada ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix fanlari dolzarb mavzulari bo‘yicha ilmiy izlanishlarni tashkil etish va ta‘minlashda samarali ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizning rivojlangan xorijiy davlatlar bilan integratsiya va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda davlatlararo munosabatlar tarixini chuqurroq o‘rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqot 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018 yil 5 apreldagi PF-5400-son “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari[1] va sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. XIX asrning ikkinchi yarmi Buyuk Britaniya tashqi siyosatida butun dunyo, xususan Markaziy Osiyodagi raqobat uchun keskin davr bo‘lib, Buyuk Britaniya va Rossiyaning ushbu mintaqadagi qarama-qarshiliklari rivojlanishida ham muhim burilish davri bo‘ldi. 1854-1856 yillardagi Qrim urushi hamda 1857-1859 yillardagi Hindistondagi Sipohiyalar qo‘zg‘oloni mintaqadagi xalqaro munosabatlarning xolatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi va ingliz mualliflarini Hindistonning Buyuk Britaniya imperiyasi tizimida tutgan o‘rni, ingliz-rus raqobati, O‘rta Osiyodagi Buyuk Britaniya imperiyasining maqsad va vazifalarini o‘rganish jarayoniga jiddiy kirishishga undadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ikki buyuk davlat Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida “Katta o‘yin” siyosiy jarayonining shakllanish davri bo‘lib, bu o‘sha davr ingliz mualliflarining siyosiy va tarixiy asarlari yaratilishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

1857 yilda Hindistonda Buyuk Britaniya imperiyasiga qarshi Buyuk Sipohiyalar qo‘zg‘oloni boshlandi. Aytish

mumkin, bu qo'zg'olon Hindistondagi inglizlar hukmronligi davomiyligiga qattiq tahdid soldi. Natijada ingliz hukumati Hindistonda bir qator islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi. Jumladan, Ost-Indiya kompaniyasi tugatilib, Kalkuttadagi general-gubernator lavozimi bekor qilindi. Angliya qirolichasi Viktoriya Hindiston qirolichasi deb e'lon qilinib, amaldagi barcha hokimiyat vitse-qirol qo'lida to'plandi. Hindistondagi bu jarayonlar Britaniya hukmron doiralari Sharqdagi mustamlakachilik siyosati masalalariga e'tiborni kuchaytirishga sabab bo'ldi. Inglizlar bu davrga kelib, Hindistonni Britaniya imperiyasining asosiy elementi sifatida qabul qilishgan edi. Chunonchi, "Hind imperiyasi (Hindistondagi inglizlarning mulki) Rim imperiyasi davridagidek kengaya bormoqda va hozirgi kunda uni bemaol Yevropa davlatlari qatoriga qo'yish mumkin[2]" –deb ta'kidlana boshlandi.

Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati butun Yevropadagi tarix fani rivojiga, xususan, Britaniya tarixshunosligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tarix fanida bu davrga kelib liberallik yoki Viktoriya tarixi an'anasi yetakchilik qilgan. Bu tendensiyaga ko'ra, eski va yangi tipdagi jamiyat va davlat o'rtasidagi tafovut va kurash jarayonida sivilizatsiya, demokratiya va individual erkinlikning izchil kengayishi yangi taraqqiyot sari qadam qo'yish sifatida tan olinib boshlandi.

Aynan shu konsepsiya doirasida "Oq tanli kishining majburiyati" nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u Yevropa xalqlarining zamonaviy sivilizatsiya va madaniyat yutuqlarini Osiyo xalqlari orasida targ'ib qilishi Yevropa xalqlarining ma'naviy-ma'rifiy vazifasi ekanligi g'oyasini ilgari sura boshladi. Ushbu tushuncha u yoki bu darajada o'sha davr tarixshunosligida o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari, XIX asrning ikkinchi yarmida tashqi va mustamlakachilik siyosati muammolari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi davom etdi. Bu davrga kelib, Oksford va Kembrij universitetlarining olimlari Markaziy Osiyoda ingliz siyosati masalalarini tadqiq qilishni boshladilar.

XIX asrning birinchi yarmida ushbu universitetlarning yangi tarix kafedralarida Sharq mamlakatlari tarixi bilan shug'ullanuvchi kadrlar yetishmasligi kuzatilgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, mazkur tashkilotlarda

Sharq mamlakatlari tarixini o'rganish hamda sharqshunoslarning asarlarini chop etish yo'lga qo'yila boshlandi. Sharqdagi ingliz mustamlakachilik siyosatining muhimligi nuqtai nazaridan Oksford universitetida mustamlakachilik tarixi kafedrasida tashkil qilingan bo'lsa, London universiteti qoshida Sharq mamlakatlari tadqiq qilish markazi tashkil qilindi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotimiz davomida biz o'z oldimizga qanday innovatsiyalarni qo'llashni maqsad qilib qo'ydik. Birinchidan, ishning davriy chegarasidan kelib chiqqan holatda "Katta o'yin" siyosati haqidagi adabiyotlarni shartli ravishda turkumlash, ya'ni, adabiyotlarni til va hudud nuqtai nazaridan guruhlariga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Birinchi guruhga bevosita "Katta o'yin" siyosatining birinchi "qutbi" hisoblangan britaniyalik mualliflarga tegishli asarlarni kiritamiz. Bunda imperalistik hukumat hujjatlari, ingliz harbiylari, siyosatchilar, jurnalistlar hamda tarixchilarning asarlari, shuningdek shu davrga oid bo'lgan davriy matbuot nashrlari o'rin egallaydi: G.Roulinson, Ch.Mak-Gregor, E.G. Lasi, D.Ulqvart, R.Vilson, G.Pottinjer, J.Kinneyr, A.Konnoli, A.Byorn, J.Ebbot[4] kabilarning asarlarini ko'rsatish lozim.

"Katta o'yin" siyosati tarixshunosligidagi ikkinchi katta turkum sifatida rus tilidagi manbalarni tasniflashimiz mumkin.

Jumladan, M.A.Terentev, A.I. Maksheev, M.I.Venyukov, F.F.Martenev, A.Ye. Snesev,

A.N.Kuropatkin, V.A.Bartold, E.L. Shgeynberg, I.Y.Krachkovskiy, N.A.Xalfin, S.Z. Martirosov, F.X.Yuldashbaeva, G.A.Hidoyatov, M.T.Kojekina va I.Ye.Fyodorova, O.I.Jigalina, S.N.Brejneva, A.V.Postnikov[5] va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning yetakchi ilmiy konsepsiyasi muammoga sivilizatsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan muammoni to'g'ri hal etishda ilmiylik, bilishning xolis, tarixiy, qiyosiy va tanqidiy o'rganish, tizimlilik tamoyillari, kulturogenез prinsiplariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Qirollik Geografiya hamda Osiyo jamiyatlari kabi ilmiy tadqiqot markazlarida mustamlakachilik masalalari chuqur o'rganila boshlandi. XIX asrning 60 yillariga kelib, Hindistonda ham yangi sharq ilmiy jamiyatlari va markazlari tashkil qilina boshlandi. 1868 yilda Buyuk Britaniyada Uels shaxzodasi tashabbusi bilan Qirollik mustamlaka institutiga asos solindi. Institut mustamlakachilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi markazga aylanib, uning fondida katta kutubxona to'plandi, institut xodimlari imperiyaning turli qismlarida bo'lib, jamoatchilikda mustamlakachilikka qiziqish uyg'otadigan ma'ruzalar uyushtirar, mustamlaka va razvedka tipidagi ekspeditsiyalarni moliyalashtirib turar edi. 1886 yilda Qirollik mustamlaka instituti Imperiya instituti deb qayta nomlandi. XIX asrning 60 yillarida ingliz Hindistonda Sharqiy Hindiston Assotsiatsiyasi tashkil qilindi[6]. Ushbu tashkilot faoliyatida asosan Afg'oniston va Erondagi ingliz-rus raqobati tahlil qilindi.

XIX asrning 60-80 yillarida Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati asosan Qirollik Geografiya jamiyati tomonidan jiddiy tadqiq qilindi. Ushbu tashkilotning rahbari sharqshunos olim G.Roulinson bilan bir qatorda "Katta o'yin" siyosatining dastlabki tadqiqotchilari R.Murchison, Dj.Vud. D.Buldjer, Dj. Malleson, S.D.Littleded, F.Ye.Yangxasbendlar ilmiy izlanishlar olib borishdi[7].

Mazkur shahslar Ost-Indiya kompaniyasida uzoq vaqt xizmat qilgan harbiy va amaldorlar safini tark etgan olimlar bo'lib, uzoq yillar davomida Sharq mamlakatlari tarixi, geografiyasi, tili, urf-odatlarini o'rgangan edi. O'z navbatida Hindistondagi Britaniya hukumati ushbu tadqiqotlarni faol rag'batlantirib, Markaziy Osiyoga yo'nalgan ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalarining tashkilotchisi sifatida rol o'ynay boshladi.

XIX asrning 50-60 yillarida Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobatiga bag'ishlangan ingliz tarixshunosligi dastlab ikki maktab tarafdorlari ("Mohir harakatsizlik" va "tajovuzkor siyosat") o'rtasidagi qarama-qarshilik fonida paydo bo'ldi va rivoj topdi. Mazkur konsepsiyalarning yaratilishida taniqli harbiy va siyosiy arboblardan, diplomatlardan, mustamlaka ma'muriyati xodimlari, sayohatchilar, tarixchi va publitsistlar ishtirok qilishgan. Markaziy Osiyodagi "Katta o'yin" siyosati masalasi va uning ustuvorliklarini muhokama qilish nafaqat akademik munozara, balki siyosiy kurashga aylanib ketdi[8].

"Mohir harakatsizlik" maktabi tarafdorlari Rossiya Hindistonni egallab olishga intilmayotganligini ta'kidlashardi. Chunki, buning uchun Rossiya imperiyasida na real xoxish, na resurs mavjud edi. Shu jihatdan olib qaraganda Hindistondagi Britaniya chegaralarini ekspansiya yo'li bilan kengaytirish shart emasligini uqtirishardi. Mazkur g'oya tarafdorlari Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya nufuzini savdo va diplomatiya orqali kuchaytirish zarurligini keng jamoatchilikka e'lon qilishdi. "Mohir harakatsizlik" maktabining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan, ushbu ta'limot asoschisi, Hindiston vitse-qirol Dj. Lourens, o'sha paytdagi Buyuk Britaniya bosh vaziri V. Gladston, taniqli tarixchi va publitsistlar V.M. Tornbern, F. Trench, Ya.A. Mak-Gaxan, G.D. Kempbell (gersog Argayl), G. Xannalar edi[9].

Ular Markaziy Osiyodagi ingliz tashqi siyosatining ilmiy asoslarini yaratib, "Mohir harakatsizlik" yondashuvining asosiy qoidalarini ishlab chiqqan edi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa Yu.Skayler, P. F. Uolker, A. G. Forbs, E. Bell, F. Fisher, M. Morris, A. Abbot kabi tadqiqotchilar "Mohir harakatsizlik" maktabi g'oyalarini hukumat doiralarda va jamoatchilik o'rtasida tarqalishi va mustahkamlanishiga o'z hissalarini qo'shdilar[10].

Xulosa va takliflar. Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlari uchun imperialistik kuchlar o'rtasida boshlangan

raqobat maydonida turli xil g'oya va qarashlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Ikki konfrontatsion mafkura lagerlarida dastlabki davrda faqat bir-biriga qarama-qarshi kayfiyatdagi asarlar yaratilgan bo'lsa, keyinchalik vaziyat tubdan o'zgara boshladi. Bu g'arb mamlakatlaridagi fanning mafkura ta'sirlaridan mustaqil bo'la olganligi bilan bog'liq jarayon edi. Ingliz va xorij tarixshunosligida bu jarayonlarning natijalarini kuzatganimiz holatida, ularga raqobatchi bo'lgan rus tarixshunosligi sobiq Sovet davlati davrida ham mafkura qoliplaridan chiqa olmaganligini ta'kidlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилиги маълумотлар базаси.
2. Сили Дж., Крэмб Дж. Британская империя. М., 2004. - С. 201-202
3. Есмагамбетов К.Л. Историко-этнографическое изучение дореволюционного Казахстана в Англия и США. Автореферат дисс. канд. ист. наук. М., 1990. С. 13
4. The Central Asian research Center " // Royal Central Asian journal, vol LVI, February, 1969. part L p.105.
5. Эргашхужаева Г. 20 йиллар Ўрта Осиё хотин-қизлар эмансипацияси масалалари инглиз тарихшунослиги талқинида: Тарих фанлари номзоди... дисс... - Т., 1996. - Б. 38.
6. Жигалина О.Н. Великобритания на Среднем Востоке в XIX-начале XX века: Анализ внешнеполитических концепций. М.: 1990. - С. 180.
7. Thorburn W.M. Russia. Central Asia and British India. L., 1865; Trench, Capt. F. The Russo-Indian Question, Historically, Strategically and Politically Considered. L., 1869; Mac Gahan J. A. Compagning on the Oxus and the Fall of Khiva. L., 1874; Argyll. G. The Eastern Question. Vol. 1-2. L., 1879; Hanna H. B. The Indian Problems. Vol. 1-3. L., 1895.
8. Schuyler E. Turkistan. Notes on a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol. 1-2. L., 1876; Walker P.F. Afghanistan: A Short Account of Afghanistan, Its History and Our Dealings with It. L., 1881; Forbes A.G. The Empire and Cities of Asia. L., 1873; Bell E. The Oxus and the Indus. L., 1869; Fisher F.H. Afghanistan and the Central Asian Question, L., 1878; Abbott A. The Afghan War, 1838-1842. L. 1879; Morris M. The First Afghan War. L., 1878.
9. Malleson G.B. The Foundations of the Indian Empire. Delhi, 1882; Hamley E.H. On the Russia's Advance towards India. L., 1885; Hamley E.H. The Strategical Condition of our Indian North-West Frontier. L., 1879; Boulger D.C. India in the Nineteenth Century. L., 1901.
10. Bellevv H.W. Afghanistan and the Afghans: Being a Brief Review of the History of the Country and Account of its People with a Special Reference to the Present Crises and War with the Amir Sher AH Khan. L., 1879.



UO'K: 94 :316.422.42(575.151) "1939/1945"

Kamoliddin TOSHOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotseni v.b., (PhD)

Nurullo TURSUNOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotseni, tarix fanlari doktori (DSc)

E-mail: kamoliddintoshov81@gmail.com

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d S.Tursunov taqrizi asosida

THE HEROICS OF THE PEOPLE OF SURKHONDARYO REGION AT THE FRONT

Annotation

In the article, the contribution of the Uzbek people to the Great Victory, the life, courage and fortitude of our compatriots, as well as the heroism of the people of Surkhondarya region at the front, the mention of the names of the deceased citizens who sacrificed their lives for the freedom of the Motherland, and the pride in them are studied in the article. .

Keywords: front, scourge of fascism, military commissariat, letter, life-and-death struggle, defense, material goods, war, heroism, loyal to friendship, partisan, intelligence, kindness, patriotism, courage.

ГЕРОИКА НАРОДОВ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ФРОНТЕ

Аннотация

В статье вклад узбекского народа в Великую Победу, жизнь, мужество и стойкость наших соотечественников, а также героизм жителей Сурхандарьинской области на фронте, упоминание имен погибших В статье исследуются граждане, отдавшие свою жизнь за свободу Родины, и гордость за них.

Ключевые слова: фронт, бич фашизма, военкомат, письмо, борьба не на жизнь, а на смерть, оборона, материальные блага, война, героизм, верность дружбе, партизан, ум, доброта, патриотизм, мужество.

SURXHONDARYO VILOYATI AHLINING FRONTDAGI QAHRAMONLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada ikkinchi jahon urush yillarida o'zbek xalqining Buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi, vatandoshlarimiz hayoti, jasorati va matonati hamda Surxondaryo viloyati ahlining frontdagi ko'rsatgan qahramonliklari, Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan marhum azamat jangchilarning nomlarini e'zoz bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish kabi jihatlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: front, fashizm balosi, harbiy komissariat, xat, hayot-mamot jang, mudofaa, moddiy ashyolar, urush, qahramonlik, do'stlikka sodiq, partizan, razvedka, mehr-oqibat, vatanparvarlik, jasorat.

Kirish. Dunyoda tinchlikni saqlash insoniyatning tinch va xotirjam yashashini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida xalqimizning ma'naviy salohiyatini oshirish, milliy o'zlikni yuksaltirish, yurtparvarlik, insonparvarlik tamoyillariga alohida e'tibor berilmoqda. Qolaversa, o'zbek xalqi mardonavor bosib o'tgan Ikkinchi jahon urushi tarixini xolisona o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Albatta o'zbek xalqi ham ushbu g'alabani ta'minlanishiga o'zining munosib o'rini qo'shdi.

XX asr insoniyat tarixida Ikkinchi jahon urushi eng og'ir fojiviy iz qoldirgan tarixiy voqealardan sanaladi. Ikkinchi jahon urushida o'sha davrda mustaqil bo'lgan 73 ta davlatdan 62 tasi ishtirok etgan va bu jarayon er aholisining 80 foizini qamrab olgan. 110 million qurolli askar ishtirok etgan bu urushda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 60 million kishi qurbon bo'lgan. Shu bois ham bu urush chin ma'noda haqiqiy Jahon urushiga aylanib ketgani e'tirof etiladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida million-milionlab begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, go'daklar etim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi. Bu g'alaba jahon xalqlari tarixida hech shubhasiz, abadiy saqlanib qoladigan ulug' sanadir. Bu sana Xalqaro miqyosda ham e'tirof etilganligi sababli, Ikkinchi jahon urushi qurbonlari xotirasi uchun 2004 yil noyabr BMT Bosh Assambleyasi rezolyusi-yasida 8 va 9 may kunlarining Xotira va Yarash kuni sifatida e'lon qilinishi bu boradagi muhim tadbirlardan sanaladi. Chunki aynan shu g'alaba insoniyatni behisob bala-

qazolardan saqlab qoldi. Shu bois ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning ahamiyati hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi hamda bu mavzu dolzarbligicha qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni yoritishda Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi ahlining frontda va front ortidagi jasoratlari tarixiy manbalar asosida ko'rsatiladi. Maqolada ko'tarilgan masala tarixnavislik fanida nisbatan kam o'rganilgan soha sanaladi.

Surxondaryoliklarning urush yillarida frontda va front ortidagi jasoratlari to'g'risida ko'pgina asarlar yaratildi. Biroq Sh.Karimovning "G'alabaga qo'shilgan hissa" asarida o'zbek xalqining frontga qo'shgan hissasi yoritilgan bo'lsa, S.Tursunov va T.Pardaevlarning "Ikkinchi jahon urushi yillarida Sherobodliklarning jasorati", o'sha mualliflarning "Unitilmas jasorat", S.Tursunov, O.Soatov, X.Jo'raevlarning "Xotira barhayot-qadrlash mangu", O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Frontdan kelgan xatlar" kitoblarida Surxon vohasi ahliga jigargo'shalaridan kelgan xatlarida vatanparvarlik tuyg'ulari va ko'rsatgan jasurligi yoritilgan bo'lsa, O.Soatov, S.Tursunov va K.Toshovlarning "Vatan yo'lida fidoiy jonlar" asarida vatanimiz yo'lida o'z jonini fido etgan jafokash xalqimizning metin irodali vakillari haqida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda tarix fanining tarixiylik xolislik, muammoli xronologik, ketma-ketlik, qiyosiylik, taqqoslash, oddiydan murakkabga tomon izchillik sengretika metodlaridan umumiy foydalanildi. Surxondaryo tarixini haqqoniy o'rganib, uning mohiyatini

anglash o'quvchilarga ajdodlarning tarixiy an'alariga oid manbalari, ularning tarixan tarkib topganligini tushunib olishlariga yaqindan ko'mak beradi. Bu esa yosh avlodning tarixiy ongini shakllantirish vazifasini bajarishni maqsadi ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, fashistlar Germaniyasi ustidan g'alabani ta'minlashda o'zbek xalqining ham nihoyatda katta hissasi bor. Mash'um urush yillarida o'zbek xalqi ham fashizmga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko'rsatdi.

SSSR ga hujum qilgan fashistlarning qo'qqisidan havo hujumi uyushtirishi mumkin bo'lgan hududlar qatoriga Termiz shahri ham kiritildi. Chunki bu davrda Eronda beqaror vaziyat hukmron bo'lib, dushman samolyotlarining Eron yoki Afg'oniston orqali hujum uyushtirish xavfi ham yo'q emas edi. Buni inobatga olgan Termiz shahar ijroiya komiteti "havo hujumi bo'yicha Termiz shahar territoriyasini xavfli zona deb e'lon qilish haqida" farmoyish chiqardi. Havo hujumi bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va choratadbirlar belgilab olindi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan vohadoshlarimizning bir qismi 1941-yilning 28-avgustida 58-o'qchi korpusi 68-tog'-o'qchi diviziyasining 139-artilleriya polki tarkibida Eronga yuborildi. Negaki, AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari Sovet Ittifoqiga jo'natayotgan harbiy yordamning bir qismi aynan Eron orqali o'tkazilayotgan edi. Surxondaryolik jangchilar Tehron konferensiyasi ishining tinch o'tishida ham o'z hissalarni qo'shishdi. Ularning Eronda bo'lishi to 1945-yilning yoziga qadar davom etdi.

Urushning ilk oylaridan mehnatkashlarning iltimosiga binoan O'zbekistonda milliy qo'shilmalar tuzishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1942-yil yanvarida Termiz shahrida 92-alohida o'qchi milliy brigadasi tashkil qilindi[1].

Termiz shahrida surxondaryoliklardan 213-o'qchi diviziya shakllantirildi. 1941-yil 1-noyabridan diviziya O'rta Osiyo harbiy okrugiga bo'ysundirildi. Uning joylashish joyi Termiz shahri harbiy qo'rg'oni bo'ldi. Shu erdan frontga jo'natildi va 1943-yil 1-martidan Oliy Bosh Qo'mondonlik Stavkasining zahirasiga kiritildi. Ushbu qism dastlab Kursk ostonalarida o'zini ko'rsatdi. Jangchilarimiz Shebakino va Belgorod shaharlarining janubida qattiq turib jang qildilar, birinchilardan bo'lib Dneprdan kechib o'tishdi, Moldaviyani ozod etishdi, Yassi-Kishinyov operatsiyasi va Visla-Oder operatsiyalarida qatnashib, Ruminiya, Polsha va

Chexoslovakiyani ozod qilishda ishtirok etishdi. Dnepri kechib o'tishda ko'rsatgan jasoratlar uchun 213-diviziyaning quyidagi zobitlari-termizlik mayor Lyubimov Aleksey Ilich, diviziya shtabi boshlig'i podpolkovnik Baranov Nikolay Andreyevich, 739-o'qchi polkining komandiri, podpolkovnik Vashkevich Aleksandr Aleksandrovich va 585-o'qchi polkining komandiri Zaykovskiy Nikolay Vasilevichlar Sovet hukumatining yuksak unvoni bo'lgan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun faxriy 213-Novoukrain diviziyasi nomini oldi[2].

Termizlik A.F.Marchenko (1924-2003) urush boshlangan kezlarda endigina 9-sinfni bitirgan edi. Yosh bo'lishiga qaramay, hamshiralar tayyorlash kurslarida o'qidi va Termizdan frontga jo'nayotgan 213-o'qchi diviziyaning 373-tibbiy-sanitariya qismiga qabul qilindi. Shu tariqa bu ayolning jangovor hayoti boshlandi. Kursk yoyi janglaridagi jasorati tufayli "Jangovor xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlandi. Keyinchalik, Dnepr daryosini kechib o'tish paytida ko'rsatgan jasorati uchun ikkinchi marta ana shunday medal bilan mukofotlandi. Ruminiya, Polsha va Chexoslovakiyani ozod qilishda, Visla va Oderdagi jang maydonlaridan o'nlab yaradorlarni olib chiqqanligi uchun "Qizil Yulduz" ordeni va yana 3 ta medal bilan ham taqdirlandi. 1945-yilda u qadrdon Termiz shahriga sog'

salomat qaytib keldi. Keyinchalik, 1977-yilda Termiz shahridagi 3-sonli maktabda jangovor shon-shuhrat muzeyini tashkil etdi. Uch marta janggohlar o'tgan joyga borib, ko'plab eksponatlar olib keldi. Ana shunday eksponatlardan 28 tasini Ittifoq Qurolli Kuchlar muzeyiga, SSSR xalq yutuqlari ko'rgazmalariga taqdim etdi. U o'zi tashkil etgan jangovor shon-shuhrat muzeyi haqida va ikkinchi jahon urushi qatnashchilari to'g'risida hikoya qiluvchi kitob muallifi hamdir[3].

213-o'qchi diviziyasida xizmat qilgan sherobodlik Jovli Boymatovich Boymatov jangovor yo'lini 1943-yilning mart oyidan Shimoliy Donesk yoqasida to'p mo'ljallovchisi (navodchik) sifatida boshladi. Xarkov va Merefah shaharlari bo'sag'asidagi janglarda o'zini ko'rsatdi. Jovli Boymatov 1944-yil 20 avgustda boshlangan Yassi-Kishinev va Berlin operatsiyalarining qatnashchisi. 1945-yil 18-aprel kuni Jovli Boymatov komandirlik qilayotgan to'p raschyoti 16 ta tank madadiga tayangan holda qarshi hujumga o'tgan dushman bilan olti marta to'qnashdi. To'p raschyotining butun tarkibi ishdan chiqdi, ammo komandir Jovli Boymatovning bir o'zi jangni davom ettirdi va dushman hujumini qaytarish davomida fashistlarning uchta tanki va 50 nafar askarini safdan chiqardi.

Bu jangda Jovli Boymatovning o'zi ham halok bo'ldi, ammo birorta fashistni o'tkazmadi. Qahramonning jasi Germaniyadagi Nodersdref qishlog'idan 400 metr shimoli-sharq tomondagi Bezimyannaya tepaligida dafn qilingan. O'limidan so'ng 1943-yil 4-dekabrda 37-armiya qo'mondoni va 1945-yil 19-may kuni 52-armiya qo'mondoni buyrug'i bilan 1- va 2-darajali "Vatan urushi" ordenlari bilan mukofotlandi[4: B. 281-282].

Ushbu diviziya tarkibida xizmat qilgan sherobodlik vohadoshimiz G'ofir Aminqulov (1925-2017) ham katta jasorat ko'rsatdi. Dnepri narigi qirg'og'ida sovet qo'shinlari plasdarm egallab olganlarida sanitar bo'lib xizmat qilayotgan G'ofir Aminqulov o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yuzlab yarador jangchilarning hayotini saqlab qoldi. 1943-yil noyabr boshida bo'lib o'tgan janglarda yarador askarni olib chiqish paytida nemislar tomonidan otilgan mina portlashi oqibatida og'ir yarador bo'ldi va 1944-yili urush nogironi sifatida uyiga qaytarib yuborildi. G'ofir Aminqulov urushda ko'rsatgan jasorati uchun 1944-yilda 1-darajali "Vatan urushi" («Otechestvennaya voyna») ordeni bilan mukofotlandi[4: B. 97-100].

Ushbu diviziyada xizmat qilgan yurtdoshlarimizdan biri sherobodlik Umar Xolmurodovdir (1906-1966 yy.). 1943-yilning 6-martida harakatdagi armiya safiga chaqirildi. Urush yillari 1-gvardiyachi havo desanti diviziyasi, 4-gvardiyachi havo desanti artilleriya polkida batareya komandiri o'rinbosari, keyinchalik batareya komandiri sifatida Novgorod oblastining Staraya Russa ostonasidan boshlab, Ukrainaning Kiyev, Chernigov, Korsun-Shevchenko, Cherkassk oblastlari, Moldaviya SSR, Ruminiya, Vengriya va Chexoslovakiya singari davlatlarni fashistlardan ozod qilishda qatnashdi. 1944-yilning sentyabrda yarador bo'ldi. Shunga qaramay, quroldoshlaridan orqada qolib ketmaslik maqsadida davolanishni to'liq tugatmay, jangovor faoliyatini davom ettirdi. Urush vaqtida jangchi-shoir sifatida tanildi. Uning frontdan yo'llagan she'rlari Surxondaryo oblast va front gazetalarida muntazam chop etib turildi. Janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun bir nechta orden va medallar bilan taqdirlandi[4:B.165].

O'nlab surxondaryoliklar razvedkachilik bilan shug'ul-landi. Ana shunday qo'rqmas va dovyurak razvedkachilar orasida termizlik Xurram Ashurov, Normurod Mamatqulov va sherobodlik Sergey Petrov singari vatanparvarlar ham bor edi. Bu yigitlar dushman ichiga kirib, "til" olib kelishdek og'ir vazifani sharaf bilan bajardilar. Normurod Mamatqulov urush davomida 70 nafar fashistni

qo'lga tushirishga muvaffaq bo'ldi. Ulardan 65 nafari oddiy askar va 5 nafari zobitlar edi[5].

Termiz shahrilik Xurram Ashurov 14 yoshda bo'lishiga qaramay 1941-yil iyunida frontga jo'nab ketdi. Xurram Ashurov urushda razvedkachi sifatida ish boshladi. Qo'mondonlik topshirig'i bilan tez-tez front chizig'idan o'tib, ma'lumot to'plash hamda "til" olib kelish bilan shug'ullanar edi. Urushdan keyin shtabdagilar hisoblab ko'rishsa, u to'rt-yil ichida 233 nafar "til", shundan 34 nafari fashist zobiti edi. 1945 yilning yanvarida 57-gvardiyachi diviziya qo'mondoni, atoqli o'zbek sarkardasi general Sobir Rahimov uni o'z ad'yutanti etib tayinladi. O'zining tili bilan aytganda, u "polk o'g'li" (ruscha «sin polka») va general Sobir Rahimovning tutingan o'g'li edi. Urush davomida 8 marta jarohat, Xurram Ashurov uch marta kontuziya oldi. Qizil askar daftarchasi o'q bilan teshilgan edi. 21 ta hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi[6].

Yana bir dovyurak razvedkachi-yurtdoshimiz sherobodlik Ulash Qurbonovdir (1910-2000 yy). Uning jangovor hayoti 1943-yildan boshlandi. Oldiniga aloqchi, so'ngra razvedkachi bo'lib xizmat qildi. Bir necha marta razvedkaga jo'natilgan bo'lsa, hammasi muvaffaqiyatli kechdi. U ko'p marta "til" olib kelishga muvaffaq bo'ldi. 1944-yil aprel-mayida Sevastopolni ozod qilishda qatnashdi. Bundan keyin 2-Belorussiya fronti tarkibida Polsha va Germaniyani ozod qilishda qatnashdi. Urushda ko'rsatgan jasorati uchun 1-darajali "Vatan urushi" ordeni, 1-darajali Shuhrat ordeni va boshqa medallari bilan taqdirlandi.

Urush yillarida dushmanning orqa tomonidan turib olib borilgan partizanlik harakatlarida qatnashgan vohadoshlarimiz polk komandiri Ahmad Siddiqov va sariosiyolik partizan A.P.Sornaskiyning nomini keltirib o'tish mumkin. Andrey Petrovich Sornaskiy batalon komandiri bo'lib, o'z jangchilari bilan bosqinchilarga qaqshatqich zarbalar berdi. A.P.Sornaskiy bataloni 49 kunda etti marta jangovar operatsiyalar uyushtirishga erishdi. Ular bu operatsiyalarda 82 nafar fashistni o'ldirib, dushmanlarning 6 ta mashinasini qo'lga tushirdi, 160 bosh qoramol esa nemislar qo'lidan tortib olindi[7].

Urush yillarida frontda ko'rsatgan jasoratlar uchun o'zbekistonliklardan 120000 jangchi hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi. Ulardan 280 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, shundan 69 nafari o'zbek edi. 32 kishi "Shuhrat" ordenining har uchala darajasi bilan taqdirlandi. Surxondaryoliklardan olti nafari-yefreytor I.M.Kolodiy, mayor A.I.Lyubimov, Kichik leytenant M.F.Murashkin, polkovnik S.F.Protsenko, gvardiyachi polkovnik S.I.Chernishev, A.B.Shamkaevlar Sovet Ittifoqi Qahramoni, uch nafari esa "Shuhrat" ordenining to'la nishondori bo'ldilar. 3769 kishi turli xil orden va medallar bilan mukofotlandi.

1941-yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, shundan urushda O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi ishtirok etib, shundan 538 ming o'zbekistonlik fuqarolar xolok bo'ldilar. Urush davrida 158 ming hamyurtlarimiz bedarak ketgan bo'lsa, sovet tuzimi siyosati tufayli boshqa o'lkalarga quloq va surgun qilingan 59 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz urushda boshqa o'lkalar hisobidan qatnashgan[8]. Surxondaryoliklardan 82274 kishi frontga jo'natilgan bo'lsa, shundan 22500 nafari qaytib kelmadi.

Mustaqillik yillarida front va front orti ishlarida qatnashgan fuqarolarimiz hukumatimiz tomonidan alohida g'amxo'rlikka olindi. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 50 yilligi munosabati bilan janglarda halok bo'lgan 400 mingga yaqin yurtdoshlarimiz to'g'risida 33 jildlik "Xotira" kitobi yaratildi. 1999-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida" gi Farmoni e'lon qilindi. Shundan buyon fashizm ustidan g'alaba qozonilgan 9-may kuni yurtimizda "Xotira va qadrlash" kuni sifatida o'tkazilmoqda. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylari va front orti ishlarida qatnashgan yurtdoshlarimizni qadrlashdek insoniy ishlar yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda esa keksalik gashtini surayotgan urush faxriylari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hissa qo'shib, mustaqil O'zbekistonimiz yoshlariga Vatanga muhabbat, do'stga sodiqlik, sabr-qanoat, insofu diyonat, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik hislarini o'z nasihat va o'g'itlari orqali singdirmoqdalar hamda davlatimizning yanada ravnaq topishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Jumladan, jaryi yilning 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha umumxalq referendumida ikkinchi jahon urushi qatnashchilari Qumqo'rg'on tumanidagi "Munchoqtepa" mahallasidan 100 yoshdagi Hayit Musaeov hamda Denov tumanidagi "A. Jomiy" mahallasidan 98 yoshli Dosek Meredovlar vatan oldidagi vazifasini bajarish uchun Surxondaryodagi referendum uchastkalarida o'zlari borib qatnashdilar. Bundan ko'rinib turibdiki yigitlik chog'ida vatan uchun kurashgan bo'lsa, keksalik chog'ida ham vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi ikkinchi jahon urushi va front orti qatnashchilarining soni 2023-yil 6-may holatiga ko'ra 174 nafarni tashkil qiladi. Ularning soni viloyatlar kesimida qataydigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 nafar, Andijon viloyatida 6 nafar, Buxoro viloyatida 7 nafar, Jizzax viloyati 6 nafar, Qashqadaryo viloyatida 10 nafar, Navoiy viloyatida 9 nafar, Namangan viloyatida 3 nafar, Samarqand viloyatida 10 nafar, Sirdaryo viloyatida 3 nafar, Surxondaryo viloyatida 8 nafar, Toshkent viloyatida 26 nafar, Farg'ona viloyatida 19 nafar, Xorazm viloyatida 5 nafar hamda Toshkent shahrida 55 nafarni tashkil etadi. Respublika bo'yicha 100 va 100 yoshdan oshgan Ikkinchi jahon urushi va frontorti qatnashchilarining soni 25 nafarni tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm balosiga qarshi kurashda butun insoniyat qatorida O'zbekiston, shu jumladan, Surxondaryo viloyati aholisi ham mislsiz jasorat ko'rsatdi. Fashizmni yakson qilishda surxondaryolik botirlar ham qo'llariga qurol olib mardlik namunalari ko'rsatib, dushmanga ayovsiz qirg'in keltirdilar. Bu qonli janglarda vatan ozodligi yo'lida minglab surxondaryoliklar shahid bo'lgan bo'lsa, minglab botir azamatlar g'alaba bahorini qarshilab, o'z yurtlariga ochiq yuz bilan qaytish baxtiga muyassar bo'ldilar.

Umuman olganda Ikkinchi jahon urushi butun insoniyatni og'ir sinovdan o'tkazdi. Ushbu urushdan chiqarilgan eng katta saboq sifatida urushning oldini olish, dunyoda tinchlikni saqlab qolish umumbashariy muammolardan biri ekanligi e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 204-varaq.
2. Termiz shahridagi 213-novoukrain o'qchi diviziyasining Jangovor shon-sharaf muzeyi arxivi materiallaridan foydalanildi.
3. Soatov O., Tursunov S., I.Umarov, K.Toshov. Frontdan kelgan xatlar-B.281-282.
4. Моложавенко В. Жаркое солнце Сурхана.-Москва: Мысл, 1982.-С. 186-188.
5. Tursunov S.N. Xotira barhayot-Qadr mangu. - Toshkent: Fan, 2010. - B. 189.

6. Тошов, К. Т. (2021). Героизм Жителей Сурхандарьинской Области В Годы Второй Мировой Войны. *Central Asian journal of social sciences and history*, 2(3), 91-96, 2021
7. Toshov, K. T. (2023). The beginning of the war and the involvement of all forces at the front. *Modern Science and Research*, 2(10), 264-268.
8. Тошов, К. Т. (2020). Деятельность трудящихся Сурхандарьинской области по укреплению тыла в годы Второй мировой войны. *Бюллетень науки и практики*, 6(3), 567-570.
9. Тошов, К. Т. (2020). Ғалабага қўшилган муносиб ҳисса. *взгляд в прошлое*, 3(2).
10. Тошов, К. Т. (2023). Начало войны и задействование всех сил на фронте, *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, Volume-22, 300-305.
11. Toshov, K. T. (2024). Ikkinchi jahon urush yillarida surxondaryo viloyati aholisining g'alabaga qo'shgan munosib hissasi. *взгляд в прошлое*, 1, 42-49.



Baxtiyor XALMURATOV,

*O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi
Namangan viloyati filiali dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: baxtiyor_m@mail.ru*

Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi B.Isoqov tahriri ostida

RIZQ-RO'Z VA BARAKA MANBAI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalqining kundalik turmush tarzida muhim o'rin tutgan oshxona anjomlaridan biri bo'lgan tandir va u bilan bog'liq xalqona qarashlar tahlil qilingan. Xususan, maqolada asosiy e'tibor tandir qurilishi, uning Farg'ona vodiysi mahalliy aholisining kundalik turmush tarzida tutgan o'rni va ahamiyati o'z ifodasini topgan. Maqolada vodiya aholisining tandir-o'choq kultiga bo'lgan munosabati va tabulari dala-etnografik materiallar asosida ilmiy tadqiq qilingan. Shuningdek, maqolada tandir bilan bog'liq turli xil qarashlar va an'analari, vodiya aholisining etnik o'ziga xosligi to'g'risida fikr mulohazalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, o'zbek xalqi, mahalliy aholi, oshxona anjomlari, tandir, o'choq, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, tabular, urf-odatlar, marosimlar, non, nonvoylar, nonvoychilik, islom.

СТОЧНИК СНАБЖЕНИЯ И БЛАГОСЛОВЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется тандыр, одна из важнейших кухонных принадлежностей в повседневной жизни узбекского народа, и популярные представления о нем. В частности, в статье рассматривается конструкция тандыра, его роль и значение в повседневной жизни местного населения Ферганской долины. В статье также исследуются отношение и табу населения долины к культуре тандыра на основе полевых этнографических материалов. В статье также отражены различные взгляды и традиции, связанные с тандыром, а также мнения об этнической принадлежности жителей долины.

Ключевые слова: Ферганская долина, узбеки, местные жители, кухонная утварь, тандыр, печь, материальная культура, духовная культура, табу, обычаи, обряды, хлеб, пекарни, пекарня, ислам.

A SOURCE OF SUPPLY AND BLESSING

Annotation

This article analyzes the tandoor, one of the most important kitchen utensils in the daily life of the Uzbek people, and popular ideas about it. In particular, the article examines the construction of the tandoor, its role and significance in the daily life of the local population of the Fergana Valley. The article also examines the attitude and taboos of the valley population towards the tandoor cult based on field ethnographic materials. The article also reflects the various views and traditions associated with the tandoor, as well as opinions about the ethnicity of the inhabitants of the valley.

Key words: Fergana Valley, Uzbeks, local residents, kitchen utensils, tandoor, oven, material culture, spiritual culture, taboos, customs, rituals, bread, bakeries, bakery, Islam.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, har bir xalqning moddiy va ma'naviy xususiyatlari ularning xo'jalik-iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ijtimoiy tarixiy qonuniyat hisoblanadi. Masalan, oddiy bir xo'jalikni yuritishda ro'zg'or uchun zarur bo'lgan ko'plab oshxona jihozlari asbob-anjomlar kerak bo'ladi. Oshxona burchagida yoki hovlining bir chetidan qurilgan tandir ana shunday vositalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mazkur muammo V. V. Nalivkin va V. M. Nalivkina, U. Abdullayev, A. Ashirov, M. Fayzullayeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida qisman o'z aksini topgan bo'lib, ularda Farg'ona vodiysi va Surxon vohasi aholisining kundalik turmush tarzida tandir-o'choq kulti bilan qarashlar yoritib berilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada etnografiyada qo'llaniladigan kuzatuv, intervyu, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Odatda, tandir – non, somsa, kabob va boshqa taomlarni yopib pishirish uchun qurilgan maxsus loy o'choq hisoblanadi. Tandır yasash uchun echki yoki tuya juni loyga qo'shib qoriladi. Yaxshi pishitilgach, ustiga namakob sepib, latta bilan o'rab qo'yiladi. Bir necha soatdan keyin qayta tepib pishiriladi. So'ng eni 20–30 sm, qalinligi 8–10 sm, bo'yi 80–90 sm atrofida bo'lak-bo'lak

parchalar tayyorlanadi va ulardan bir nechtasini bir-biriga tikka qilib, yopishtirib tandir hosil qilinadi [2]. Ayrim tandirsozlar tandir yasash uchun silindrsimon chuqur (qolip) qazib, ushbu chuqur devoriga tayyorlangan loy bo'laklarini yopishtiradilar. Tandirning ichi namakob sepib silliqiladi.

Xonadonlarga quriladigan o'rtacha tandirning ichki diametri 0,8 m chamasi, yerdan 0,8–1 m baland qilib o'rnatiladi. Bundan kattaroq tandirlar novvoyxonalariga quriladi. Buxoro va Samarqandda tandirlar yerga yoki maxsus supaga og'zi tik qilib qurilsa, Farg'ona vodiysi va Toshkentda yotiq qilib o'rnatiladi. Atroflariga tutun tortadigan va havo kiradigan teshik (10–15 sm li)lar qilinadi. Yangi qurilgan tandirning ichki devorlariga paxta yog'i surkab, bir kechakunduz davomida olov yoqib qo'yiladi. Shunday qilinsa, yopilgan nonning orqasiga kesak ilashmaydigan bo'ladi. Tandır non yopishdan oldin shox-shabba, yantoq, g'o'zapoya, o'tin va boshqalar bilan oqarguncha qizdiriladi [3].

Taniqli etnograf M. Fayzullayevaning yozishicha, vohada tandirlar o'rnatilishiga qarab "yer tandir" hamda "devori tandir" deb ataladi.

Devori tandirdan asosan, novvoylar foydalansa, xonadonlarda esa yer tandir quriladi. Yer tandir tayyorlash maxsus ustalardan tashqari mahalliy aholi, ko'proq ayollar

zimmatisiga yuklangan. Tandir qurishda duch kelgan loyni ishlataverishmay, maxsus tandir loyi -gilmoyadan foydalanishgan. Buni Surxon vohasida saqqizloy (saqichloy), deb ham yuritishadi. Loy qilish vaqtida echki juni, somon aralashtirib, oyoq yalang holatda tovon bilan tepib, ishlov berilgan. Yaxshilab pishirilgan loy yerda maxsus o'yilgan qolipga tasma-tasma shaklida joylashtirilib, taxtakach bilan yaxshilab urilgan, qolipdagi loy qurigandan so'ng, chiqarib olingan va o'rnatilgan [4].

Farg'ona vodiysi aholisi qadimdan tandir-o'choqqa juda e'tiqod bilan yondashgan. Axborotchilarning fikricha, tandir-o'choqning o'z piri bo'lib, eskirgan tandirni buzayotganda "Hazrati Mirikulol bobo"ning ruhlariga atab ikkita non sindirilgan. Yangi tandir o'rnatishdan oldin ham beshta cho'zma qilinib, tandir pirlariga atab chiroq yoqilgan. Qishloq qariyalari tandirni "barchani lol qoldirgan mulk", degan ma'noda "mulkilol", deb atashgan [5].

Yangi tandirga xonadon xo'jayini birinchi bo'lib olov yoqqan va u bir kecha-kunduz davomida tutatib qo'yilgan. Olov yoqayotganda hazorispand tashlansa, yangi tandirni yorilib ketishdan saqlaydi, deb ishonilgan. Bundan tashqari, yangi tandir yorilib ketmasligi uchun, unga dastlab, olov yoqayotgan kishi og'zini ochmasligi kerak ekan. Tandirga birinchi marta yog'li patir pishirilib, qo'ni-qo'shnilariga tarqatilgan. O'z navbatida, ushbu odat xonadonning yangi tandir sohibi bo'lganligini anglatadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, avvalo, tandir-o'choqning atrofi yopiq bo'lishi kerak bo'lgan, chunki ko'chadan har xil odamlar o'tib qaytadi, begonaning nazari tushmasligi kerak deb o'ylashgan. Non pishirib olgandan keyin tandirga yopishib qolgan non qoldiqlari (pushtaklari) qirib tashlangan, ularni tandirda qoldirish juda uvul hisoblangan. Non yopish uchun ishlatiladigan supra, rapida, yengcha (yengsa), nonpar kabi anjomlar, alohida dasturxoniga o'rab qo'yilgan. Non yopib bo'lingandan keyin barakasi ketmasin deb, tandir og'zi ham yopib qo'yilgan [7].

Farg'ona vodiysida qadimdan tandir xosiyatli hisoblanib, nopok, g'usl qilmasdan tandir-o'choq yoniga borish va ular bilan bog'liq anjomlarni qo'lga olish gunoh sanalgan. Bundan tashqari, tandir-o'choq ustiga chiqish, uvul bo'ladi deb, man qilingan. Chunki tandirga qadimdan ozodalik va halollik ramzi sifatida qaralib, momolarimiz yoshlarni doimo tandir-o'choqlarni ulug'lash, qadrlash va doimo toza saqlashga o'rgatganlar. Shuningdek, to'y-ma'rakaning katta o'chog'i to'g'ri kelgan joydan qazilavermay, avvalo, uning uchun toza va pokiza joy tanlangan. O'choq boshi qibladan boshqa tomonga qaratilishi shart bo'lgan. To'y o'chog'ini doimo to'y-to'yga ulansin, to'y tilab tursin, degan maqsadda shirinliklar tashlab ko'milgan. Xonadonga yangi tushib kelgan kelinni kuyov hovlisidagi tandir-o'choq yoniga olib borib, ta'zim qildirganlar, o'choq boshida kelinga quyruq to'g'ratganlar [8].

Xo'jalik yuritish va oilani tebratishda tandir-o'choqning o'rni nihoyatda muhim bo'lgan. Shuning uchun tandir-o'choq ustida doimo gugurt, tuz, qalampir va pichoq turishi shart bo'lgan. Chunki, ushbu buyumlar tandir-o'choqning o'ziga xos "barakasi" hisoblangan. Qolaversa, vodiyliklar har kuni tandirning oldiga borib, yaxshi niyatlar izhor qilish, kishini murod-maqsadiga yetkazadi, degan tasavvurlarga ishonganlar. Tandir-o'choq e'zozlanganligi uchun unga tuflash, ovqat qoldig'i, tirnoq, chiqindi, supurindi va shunga o'xshash iflos narsalarni tashlash gunoh sanalgan, uy hayvonlaridan ot va eshak tezagini yoqish man qilingan [9].

Tandir-o'choq anjomlari bilan ham xalqimiz tomonidan ba'zi magik amallar bajarilgan. Masalan, bo'yi o'sib ketayotgan o'spirin qizlarni tandir yonida ammasi, yelkasiga rapida (non yopgich) bilan uch marta ursa, bo'yi o'sishdan to'xtaydi, deb ishonganlar. Tandir kosovining ham

so'g'liq uchun foydasi katta deb, qizib turgan kosovni suvga botirib, shu suv «ko'k yo'tal» bo'lgan bolalarga ichirilgan.

Tandir kosovi albatta, mevasiz daraxt butog'idan tayyorlangan. Kosov ishlatilgandan so'ng oyoq ostiga tashlanmagan, undan hatlab o'tilmagan, u hech qachon tik qo'yilmagan, uning tik qo'yilishi oilaga putur yetkazadi, deb tushunilgan [10].

Kulolchilik hunarmandchiligining muhim bir tarmog'i tandirchilik bo'lib, tandir vodiyni barcha mintaqasida uy sharoitida yasab kelingan. Jumladan, V. Nalivkina XIX asr oxirida Namangan uezdining Nanay, Ko'kyor, Qizilyozi, Oqtom kabi tog' oldi qishloqlaridagi aholi o'zi uchun tandir yasashni qayd etgan edi [11]. Shuningdek, tandir yasash vodiyni Chodak, Sang, janubdagi Oq yer, Gulqishloq singari kabi aholi maskanlarida ravnaq topgan edi.

Odatda, tandir yong'oq va chinordan yasalgan tovoqcha, sopol g'o'ndak, bandak yordamida yasilib, uni daskir, dehqonbob, nimcha, ikki yarim pesh, uch pesh, somsapaz, o'choq tandir, to'y tandir turlari bo'lgan. Shuningdek bu davrda o'choq tandir turi ham yasalgan.

Ma'lumki, kulolchilik vodiya juda qadimdan mavjud bo'lib, yuqorida nomlari keltirilgan timsollar ancha kech kirib kelgan. Sababi, kulolchilik bilan bir sohaga kiruvchi tandirchilar homiy-piri misolida buni ko'rish mumkin. O'troq o'zbek tandirchilari bergan ma'lumotga ko'ra, ular piri "Mehri kulol" sanalib, ushbu ulug' zotning qabri Farg'ona viloyati So'x tumanining Gul qishlog'ida joylashgan. Qo'qon yaqinidagi Gul qishlog'i tandirchilari bir yilda bir marta bahorda Buvayda tumani hududidagi Poshshopirim ziyoratgohida yillik anjumanlarini o'tkazib turganlar [12].

O'cho-tandir yasash ayniqsa, Rishtonning janubiy qismidagi qishloqlarda keng tarqalgan bo'lib, "Oshtan" deb atalgan. Unda qozon osilib, ovqat tayyorlangan, qolgan cho'g'da uni devoriga non yopilib pishirilgan. Tandir mustahkamligini oshirish uchun loyiga qo'y, echki juni qo'shilgan [13].

Tandir yasash uchun pishirilgan loy guvala qilib ajratib olinib, ikki metr uzunlikda pesh loy qilib yoziladi. Loy ko'tarish mumkin bo'lgan darajaga yetkazilgach, u ko'tarib aylana qilib birlashtiriladi.

Ichkarisidan g'o'ndak, tashqarisidan tovoncha bilan urib mustahkamlanadi. Ma'lumki, loy yozda 15-20 minutda yetiladi. So'ng yana bir pesh loy yoziladi, lekin u yoysimon qilib yoziladi. U ko'tarib taglik ustiga qo'yiladi. Ikki qism tosh bilan bir-biriga yedirib ulab chiqiladi. G'o'ndak va tovoncha bilan ishlov beriladi. Ikkinchi peshni tepasi ichkariga egib tandir yelkasi chiqariladi. 1 soatda u ham yetiladi. Uzun og'ir loy qilinib, tandir og'zi bog'lanadi. Lapkash bilan (kigiz bo'lagi) suvlab silliqilganadi. Tandir qurigach, u tayyor bo'ladi. Buyurtmachiga berishdan avval yoriqlari bo'lsa, shirali loy bilan yamab chiqiladi [14].

Aslida tandirchilarni piri afsonaviy Mehri Kulol bo'lib, qabri So'xning Gul qishlog'ida deyiladi.

Poshshopirimni o'ziga xos jihati bu yerga faqat erkak hunarmandlar e'tiqod qilganlar, yana bu yerda biz hunarmandlarni qadimiy homiy-pir timsoliga bog'liq holda erkak hunarmandlarni erkak siyomosidagi "avliyolarga" topinish kultiga duch kelamiz. Shuningdek, Buvayda tumani hududidagi "Bostonbuva" ziyoratgohiga atrofdagi 40 ta qishloqdagi hunarmandlar topinganlar. Ziyoratgoh imomi Ortiqali Karimovning so'zlariga ko'ra, ushbu obyekt XIV asrda yashagan Xoja Boyazid Bastomiy maqbarasi asosida vujudga kelgan [15].

O'z o'rmi shuni qayd etish mumkinki, tandir nafaqat rizq-ro'z manbai, qolaversa, davolash anjomi ham hisoblanadi. Vodiyni ba'zi bir hududlarida yashovchi shomon-tabiblar tandirdan ham unumli foydalanadi. Masalan, uchko'priqlik Maqsuda baxshining so'zlariga qaraganda, tabibning mehnati deganda birgina kasalni davolashda qilgan faoliyatini

tushunmaslik kerak. U o'z oldiga kelgan shamollash kasalligiga duchor bo'lgan bemorlarni turli qizigan tandirga solish orqali davolaydi [16].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, o'zbek xalqi etnomadaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uy-joy qurilishi bilan bog'liq an'analari qadim tarixga ega bo'lib, insonlarning jismonan, aqlan va ruhan kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida xalqimizni tandir qurish va unga non yopish bilan

bog'liq urf-odatlar, oshxona asbob-anjomlariga bo'lgan munosabat, ya'ni ularga nisbatan ehtiyotkorlik va pokizalik kabi qadriyatlarimizni yoritish masalasiga alohida e'tibor berildi. Mahalliy aholi orasida rizq-ro'z va baraka manbai hisoblangan tandir bilan bog'liq turli xil qarash va an'analarga to'xtalgan holda vodiy aholisining etnik o'ziga xosligi va maishiy turmushi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Nalivkin V. V., Nalivkina M. V. Ocherki bita jenshini osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani. – Kazan: Universitet, 1886; Abdullayev U. S. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005; Ashirov A. A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007; Fayzullaveva M. Surxon vohasi ijtimoiy hayotida taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar (XX asrning birinchi yarmi). Tarix. fan.nom.ilmiy.dar.olish.uchun.yozil.diss. – Toshkent, 2009.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME, 2002. T.9. – B. 91.
3. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2018 yil.
4. Fayzullaveva M. Surxon vohasi ijtimoiy hayotida taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar (XX asrning birinchi yarmi)... – B. 56.
5. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Urganji qishlog'i. 2017 yil.
6. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani Qo'shtepa qishlog'i. 2017 yil.
7. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dangara tumani Tumor qishlog'i. 2023 yil.
8. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Qaqir qishlog'i. 2018 yil.
9. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Bordimko'l qishlog'i. 2018 yil.
10. Наливкин В. В., Наливкина М. В. Очерки быта женщины... – С. 28.
11. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Zohidon qishlog'i. 2018 yil.
12. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2018 yil.
13. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Zohidon qishlog'i. 2018 yil.
14. Fayzullaveva M. Surxon vohasi ijtimoiy hayotida taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar... – B. 58.
15. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2018 yil.
16. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani Qaqir qishlog'i. 2010 yil.



UO*K: 94:336.22(575.1)

Zumradxon XATAMOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali dotsenti

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali dotsenti I.Rustamov taqrizi asosida

QO'QON XONLIGI MOLIYA TIZIMI TARIXIDAN: XAZINA SARFI MASALASI

Annotatsiya

Maqolada O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan davlat Qo'qon xonligi moliya tizimi tarixiga oid ma'lumotlar yoritilgan. Xazinadagi mablag'ning sarf etilishi va moliyaviy xujjatlarda qanday aks etishi arxiv va qo'lozma manbalar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: Xonlik, moliya, mablag', xazina, hujjat, manba.

ИЗ ИСТОРИИ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ КОКАНСКОГО ХАНА: ПРОБЛЕМА КАЗНЕРАВНЫХ РАСХОДОВ

Аннотация

В статье описана история финансовой системы Кокандского ханства – важного государства в истории среднеазиатской государственности. Использование средств казны и то, как это отражается в финансовых документах, подтверждается на основе архивных и рукописных источников.

Ключевые слова: Ханство, финансы, фонд, клад, документ, ресурс.

FROM THE HISTORY OF THE FINANCIAL SYSTEM OF KOKAN KHAN: THE PROBLEM OF UNEQUAL EXPENDITURES

Annotation

The article describes the history of the financial system of the Kokand Khanate, an important state in the history of Central Asian statehood. The use of treasury funds and how this is reflected in financial documents is confirmed based on archival and manuscript sources.

Key words: Khanate, finance, fund, treasure, document, resource.

Kirish. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda moliya tizimi tubdan isloh qilinish, bu sohada keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotga oid hujjatlarda moliya, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, tushumlarini davlat budjetiga va maqsadli jamg'arma-lariga yo'naltirish tartiblari, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish ishlari yanada takomillashmoqda. «Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy-chora tadbirlarni ishlab chiqish"[1] ni iqtisodiyotning rivoji taqozo etmoqda. Qo'qon xonligi moliya tizimi an'alarini manbashunoslik, tarixshunoslik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabat-lar kabi yo'nalishlarda tadqiq etish O'zbekistonda mavjud moliya siyosatini tarixiy shakllanishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekiston hududida qadim zamonlardan beri shakllanib va rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning uzviy davomchisi bo'lgan Qo'qon xonligida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning ayrim jihatlariga bag'ishlangan H.Bobobekov, O.Masaliev, G.Agzamova, D.Sangirova, K.Voxidova, V.Ishquvvatov, Z.Ilhomov, O'.Sultonov, Sh.Maxmudov, B.Tursunov, N.Topildiyev, Z. Madraximov, Sh.Qo'ldoshev, T.Xudoyqulov, B.Babadjanov, M.Axmedova, M.Alixojiyev, R.Arslonzoda [1] kabi tadqiqotchilarning asar va maqolalari chop etildi. Ularda xonlik tarixining turli masalalari, xususan, Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari va ularning ijtimoiy - siyosiy asoslari, turli tarixiy shaxslar, jumladan, Aliquli Amirlashkarning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni, xonlikdagi ijtimoiy - iqtisodiy hayotning ba'zi masalalari, ma'muriy - boshqaruv tizimining ayrim muammolari, Qo'qon xonligi manbashunosligi masalalari

ko'tarilgan va o'zining ilmiy talqinini topgan. Shu bilan birga, bu asarlar mualliflari xonlikning moliya masalalariga oydinlik kirituvchi ba'zi fikrlarni keltirib o'tadilar.

Natija va yechimlar. Qo'qon xonligi xazinasining sarf etilishi bo'yicha R.Nabiyeov va Z.Xatamova tadqiqotlarida ma'lumotlar uchraydi [3]. R.Nabiyeov asosan Qo'qon xoni Xudoyorxon davriga oid ma'lumotlarni keltirgan bo'lsa, Z.Xatamova tadqiqotida Olimxon, Umarxon, Mallaxon, Xudoyorxon kabi xonlarning boshqaruviga oid arxiv hujjatlarini uchratish mumkin.

Qo'qon xonligi devonxonasida xazinaga kirim bo'lgan mablag'larni qayd etish daftari mavjud bo'lganidek, uning sarf etilishi ham alohida daftarda qayd etilgan. O'ZMA da saqlanayotgan hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha Qo'qon xonligi xazinasiga kelgan mablag'lar va ularni sarf harajatlari to'g'risida ma'lumotlarni bilish mumkin [4].

A.Kunning ma'lumotiga ko'ra, bir botmon g'alla 1 rub. 50 kop.dan 2 rub.gacha narxlangan. Agar o'rta miqdorini olganda 1 botmon g'alla 1 rub. 75 kop bo'lsa, unda xarbiy amaldorlarga berilgan bir yillik g'allaning narhi 532 775 rub.ga to'g'ri kelishi hamda ularga berilgan rus puliga (5 tanga 1 rub.ga to'g'ri kelishini hisoblangan) 148 800 rub.ni tashkil etgan. Shunda g'alla va tangalarni birga xisoblaganda bir yilda xarbiylar uchun xazinadan 681 675 rub. ajratilgan. Bu xonning yillik daromadini 1/5 qismini tashkil etgan. Bundan tashqari, A.Kun xon daromadini bundan ikki-uch baravar ko'p bo'lganligini ta'kidlasa, Midendorf Xudoyorxonni yillik daromadi 7 mln rub ekanligini va bu xonni rus podshosi himoyasiga o'tgan, ya'ni daromadi pasaygan vaqtidagi ma'lumot ekanligini ta'kidlagan.

Velyamin-Zernov ma'lumotida ham xarbiy qism ta'minoti uchun moliyaviy xarajat amalga oshirilganligini bilish mumkin. Askarlikka kiruvchi kishilarning har biri ot va u uchun egar-jabdug' bilan ta'minlangan, bu uchun sarf

harajat davlat xazinasidan amalga oshirilgan. Madalixon urush yillarida xarbiy mulozimlariga oshirilgan holda maosh to'lagan. Masalan, yuzboshiga 2 tilla, ellikboshiga 1,5 tilla, oddiy askarga esa 1 tilla pul tarqatilgan, bu maoshdan tashqari. Xarbiy boshliqlarga urush safariga chiqishdan ortiq sarupu, ya'ni, qimmatbaho to'nlarni hadya etilgan. Urush vaqtida o'zini jasurlik bilan ko'rsatganlarni ham pul va qimmatbaho soqq'alar bilan taqdirlanganlar. Yil sayin askarlarni soni oshib borishi bilan moddiy ta'minotning moliyaviy sarfi ham oshib borganligi tabiiy.

Masalan, 1835-1836 yillarda yuzboshiga ajratilgan maxsulotlar pulga o'g'irilganda ja'mi 36 tilla 107 tangani tashkil qilgan [3.213b]. Bu jadvalda yuzboshi uchun davlat xazinasidan bir oylik maosh sifatida bir oyda 1 tilla 4 tanga mablag' ajratilgani va bu bir yilda 14 tilla 6 tanga bo'lganligi keltirib o'tilgan.

1835-yillar Madalixon hukmronligi davri (1822-1841)ga to'g'ri keladi. Bu davrda panjboshi 28 tilla xizmat haqi olgan, dahboshi 18 tildan ortiqroq, oddiy askar esa 12 tildan ortiqroq xizmat haqi olgan.

Askarlarni kiyim kechaklari uchun sarf etilgan mablag' to'g'risida ma'lumot beruvchi xujjatlar ham mavjud. Sh uhujiatda askarlar yerlari va g'allalari haqida ham ma'lumotlar bor.

Qo'qon xonligida jangchilarni ushlab turish 150 000 chervones ga tushar edi. Bu mablag' A.Kunning ma'lumotidagi mablag'ga mos kelmasligi R.Nabiyev ta'kidlab o'tgan. Qo'qon xonligi xazinasidan mablag' sarflanishiga ko'ra xarbiy sohadan keyingi saroy ma'murligida ishlaydigan amaldorlar maoshi va ular uchun hadalarga katta mablag' sarflangan.

R.Nabiyevning jadvalida bir kishi uchun ajratilgan don miqdori keltirilgan. Lekin, hujjatda har biri uchun shu miqdordan berilganligi qayd etilgan. Shunda naqibga 500 botmon don bir yilda berilgan bo'lsa, jadvalda ikki nafar naqib ko'rsatilgan. Demak, ularga 1000 botmon don ajratilgan. Mirasad lavozimidagi 5 nafar shaxsga 300 botmondan ja'mi 1500 botmon don berilgan. Sadr lavozimidagi 10 nafar kishilarga 200 botmondan ja'mi 2000 botmon don berilgan. Sudur lavozimidagi amaldorlar 50 nafarni tashkil etgan, ularga ja'mi bo'lib 5000 botmon don berilgan. O'roq lavozimidagi 100 nafar kishilarga ja'mi 2000 botmon don berilgan. Ja'mi 11500 botmon don ajratilganligi jadvaldagi ma'lumotlarni umumiy hisoblaganda tashkil etmoqda. Pul ham har biriga alohidadan berilgan. Shunda, ikki nafar naqib 1000 tangadan har biriga olgan bo'lsa, xazinadan 2000ming tanga sarf etilgan bo'ladi. Besh nafar mirasadga 3500 tanga, o'n nafar sadrlarga 6000 ming tanga, ellik nafar sudurga 20000 tanga, yuz nafar o'roqlarga 200000 tanga xazinadan ajratilganligi ma'lum bo'ladi. Shunda xazinadan shu amaldorlar uchun ja'mi katta miqdordagi mablag' davlat xazinasidan ajratilmoqda.

Xulosa. Qo'qon xonligining moliya tizimi tamoyillari yurtimizda qadimdan shakllanib kelgan an'analarga va jahonda e'tirof etilgan moliya nazariyalariga mos holda rivojlangan bo'lsada, 1709-yildan 1876-yilgacha bo'lgan davrda xonlikdagi daromadlar miqdorini o'sish hamda pasayish A.P.Xoroshinning ma'lumotiga ko'ra, Qo'qon xonligi xazinasiga kelib tushgan mablag'lar miqdori, ularni tasarruf etilishi bo'yicha ma's'ul shaxs mehtar deb atalgan[5]. Uning fikriga ko'ra, mehtar moliyaviy boshqaruvdagi birinchi raqamli shaxs bo'lish bilan birga yana bir qancha vakolatlarga ham ega bo'lgan [7]. Qo'qon xonligida mehtar 1865-yilgacha xarbiy qo'shinni turli hil mahsulotlar bilan ta'minlovchi shaxs vazifasini ham bajargan. 1866-yilda xazina ishlari bilan shug'illanuvchi mehtar xonga xisobot sifatida davlatning yillik daromadini 60ming tilla deb ko'rsatadi, lekin aslida olingan daromad 90ming tilla bo'ladi [3.208B].

Qo'qon xonligi xazinasining sarf etilishi masalasiga kelganda, xarbiy sohaga yil davomida eng ko'p sarf harajat

qilinganligi ma'lum bo'ladi. Urush bo'lmagan vaqtlarda Qo'qon xonlarining xarbiy askarlari viloyat yoki shahar xokimlarining qaramog'ida bo'lgan. Ularning moliyaviy ta'minoti davlat soliqlarining ayrimlaridan ozod etilganliklari hisobiga bo'lgan.

Bulardan tashqari, Geynsning ma'lumotiga ko'ra, urush vaqtlarida axolidan xarbiy soliqlar yig'ilgan. Uning miqdori boy kishilardan 5 tilla, o'rtaxol kishilardan esa 2,5 tillani tashkil qilgan.

Saroy kutubxonasi nodir va qimmatli kitoblarga boy bo'lganligi manbaalardan ma'lum. Chet davlatlardan keltirilgan kitoblarni uchun ham xazinadan katta mablag' ajratilib turilgan. Hujjatlarida Mirza Muhammad Yusufga taxta sandiq, oq kigiz, uch to'p gulli mato, 8 tanga berilgan, Qo'qonga kitob olib keltirishi uchun[4]. Bu yerda gap aynan xonning kutubxonasiga kitob keltirilganligi haqida aytilmoqda. Chunki bu hujjatlar devonxonada mirzolar tomonidan qayd etilgan va arxivda saqlanib qolgan. Mulla Mirza Olim ibn domla Mirza Raxim Toshkandiy o'zining "Ansob-us salotin va tavorix-ul xavoqin" asarida rus podshosi xizmatchilari xondan qolgan kitoblardan 50 tasini topshirishi kerakligini aytgani va u 10gina kitobni topshirgani haqida yozgan: "Rus tuhmat aylab manga behisob, Kasinda qolib ekan ellik kitob, A'lo joylay olmay o'n kitob, Xulosa ayladi, menga berdi javob" Mulla Mirza Olim Sheralixon, Mallaxon, Xudoyorxon kabi xonlar hukmronligi davrida va rus podsholigi bosib olgan vaqtlarning ilk yillarida yashagan va asarida shu davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxs sifatida bayon qilgan. R.Nabiyevning ta'kidlashicha, Rus hukumati undan hisob topshirish so'ralganiga qaraganda, u ayni o'sha davrda kitobdor vazifasida yoki xozirgi kutubxonachi lavozimida ishlayotgan bo'lishi ham mumkin[3].

N.Pantusov Umarxonxon davrida qazilgan Shaxrixon kanali suvidan yetishtirilgan xosildan xonning poytaxtdagi xarbiy qo'shini ta'minoti amalga oshirilgan deb yozganligi, Umarxon hukmronligi, ya'ni yillarga oid ma'lumot ekanligiga diqqat qilish kerak. Xudoyorxon davrida qo'shin ta'minotiga moliyaviy jihatdan xazinadan katta mablag' ajratilganligi haqida esa "Qo'qon hududidagi 210 qishloqning yarmidan ko'pidan olingan g'alla xirojining mablag'i xarbiy qismning moliyaviy ta'minoti uchun ajratilgan edi".

A.Kun Qo'qon xonligida amaldorlarning maxsulot va pul ko'rinishidagi moliyaviy ta'minotlari haqida ma'lumot keltiradi. Unda xonlikdagi otaliq, qushbegi, parvonachi, dadho, biy, eshik og'asi, to'qsoba, miroxo'r, qorovulbegi, qo'rchi, divachi, mirzaboshi, chor-og'asi, botirlar (xarbiy mulozimlar)ning soni va ularga ajratilgan bir yillik don maxsulotlari botmon o'lchovida keltirilgan va pul mablag'lari bir yilga kumush tanga hisobida keltirilgan. A.Kunning ma'lumotlari Qo'qon tarixi moliya tizimini o'rganishda nihoyatda muhim va uning ishini davomi sifatida bu ma'lumotlarni R.Nabiyev o'z tadqiqotida jadval ko'rinishida keltirib o'tganligi ham e'tirofqa loyiq[3.197b].

A.Kunning ma'lumotlarida xarbiylarning tarxon, ya'ni soliqdan ozod etilgan mulklari keltirilmagan bo'lishi lozim. Chunki, tarxon mulki mavjud xarbiy mulozimlarga mas'ul amaldorlar tomonidan pattalar berilganligi ma'lum. Lekin, R.Nabiyevning fikriga ko'ra, A.Kunning ma'lumotlari tarxon mulklari hisobidan keltirilgan. Bundan tashqari, A.Kun o'z ma'lumotlarini tayangan manbani keltirmaganligi, Qo'qon xonligi moliya tizimida majburiylik, adolatparvarlik, aniqlik, qulaylik, tejash, nazorat-taftish hamda fuqarolarning murojatlari bilan ishlash tamoyillarga asoslanib ish olib borilganligi qo'lozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida ochib berilgan. Qo'qon xonligi moliya tizimida faoliyat olib borgan amaldorlar ham davlatning iqtisodiy hayotiga yetarlicha o'z ta'sirini o'tkazgan. Mamlakatda siyosiy vaziyatning o'zgarib borishi hamda hukmdorning davlat

iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadi ba'zan harbiy soha amaldorlarini ham soliq yig'ish ishlariga keng jalb etilishiga olib kelgan. Bu esa davlatning moliya tizimini o'zgarishlariga olib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 11.
2. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 239 b.;
3. Masaliyeva O.M. XX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent 1999. – 172 b.;
4. Agzamova G.A. So'ngi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – Toshkent, 2000. – 52 b.; O'sha muallif. O'rta Osiyo xonliklaridagi savdo va unga xos an'analar // "Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004. – B. 81-87.;
5. Sangirova D. «Tarixi Aziziy» - chor mustamlakachiligi davriga oid muhim tarixiy manba. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2000. – 153 b.;
6. Vohidova K. Ishoqxon Junaydullox xo'ja o'g'li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi. Tarix fan. nomz. diss.. – Toshkent, 2002. – 126 b.;
7. Ishkuvvatov V. XX asrning II yarmi tarixshunosligida Qo'qon Rossiya diplomatik munosabatlari. Tarix fan. nomz... diss... – Toshkent, 2003. – 152 b.;
8. Ilxomov Z. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b.;
9. Sultonov O'. Muhammad Solihxojaning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.;
10. O'sha muallif. Muhammad Solihxoja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009. – 269 b.;
11. Maxmudov Sh. Qo'qon xonligida maxalliy boshqaruv tizimi // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2004. – №1. – B. 67-68.;
12. O'sha muallif. Qo'qon xonligining ma'muriy boshqaruviga oid ma'lumotlar. ("Tarixi Aliquli Amirlashkar" asari asosida) // Imom al-Buxoriy saboqlari. – Toshkent, 2005. – №4. – B. 64-65.;
13. O'sha muallif. Oliy Kengash (Vysshiiy sovet) Kokandskogo xanstva // Qonun himoyasida. – Toshkent, 2005. –№2. – B. 36.;
14. O'sha muallif. Qo'qon xonligining ma'muriy boshqaruv tizimi. Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 166 b.
15. Maxmudov Sh. Qo'qon xonligida xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilish // "Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda" mavzusidagi IV respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Farg'ona, 2017. – B.136-138.;
16. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Ташкент, 1973. – С. 259-274.; Хатамова З. Қўқон хонлигида солиқ тизими. Фарғона, 2021. – Б. 123. ЎзМА 1043-фонд.
17. Хорошхин А.П. Очерки Кокана, Сборник статей, касающихся до Туркестанского края.А.П.Хорошхина, СПб.,1876, стр.48.
18. Обзорение Коканского ханства в нынешнем его состоянии, ЗИРГО, кн. III, СПб, 1849, стр. 208.
19. Пантусов Н. О податях.... "Туркестанские ведомости", 1876, № 16.
20. Вельямин-Зернов.Сведения о Коканском ханстве, ВИРГО, 1856, ч.18, стр.118.



UDK: 94(575.151)“18/20”:656.2

Utkir XUDAYBERDIYEV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: utkir_xudayberdiyev@tues.uz

TISU professori, t.f.d E.Qobulov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SOURCE STUDIES OF THE EASTERN BUKHARA EMIRATE

Annotation

In this article, the analysis of source studies of the history of the eastern regions of the Bukhara Emirate, the coverage of information about the strategic importance of the eastern regions of the Bukhara Emirate in the works of local historians was studied. In addition, research on these sources was carried out during the Soviet era and in the years of independence. In the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century, the collection of works and information belonging to the first period, created by direct witnesses and participants of the historical events of this period, is considered rare written sources in terms of their value and importance.

Key words: Source, source studies, Eastern Bukhara beklik, Mirzo Salimbek, analysis, Surkhan oasis, muddaris, Kushbegi archive, Denov, Boysun, Sherobod, bek.

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

В данной статье изучен источниковедческий анализ истории восточных областей Бухарского эмирата, освещение сведений о стратегическом значении восточных областей Бухарского эмирата в трудах краеведов. Кроме того, исследования этих источников проводились и в советское время, и в годы независимости. Во второй половине XIX - начале XX века собрание произведений и сведений, относящихся к первому периоду, созданное непосредственными свидетелями и участниками исторических событий этого периода, считается редким письменным источником с точки зрения их ценность и важность.

Ключевые слова: Источник, источниковедение, беблики Восточной Бухары, Мирзо Салимбек, анализ, Сурханский оазис, мударис, Кушбегский архив, Денов, Байсун, шеробод, bek.

BUXORO AMIRLIGI SHARQIY BEKLIKLARINING MANBASHUNOSLIGI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi sharqiy hududlari tarixining manbashunosligi tahlili, Buxoro amirligi sharqiy hududlarining strategik ahamiyati haqidagi ma‘lumotlarining mahalliy tarixchilar asarlarida yoritilishi o‘rganildi. Bundan tashqari, ushu manbalarni o‘rganish borasida sovetlar davrida va mustaqillik yillarida ham ilmiy izlanishlar olib borilganligi, mavzuga oid ilmiy tadqiqot va adabiyotlar guruhga bo‘lib tadqiq qilindi. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida mazkur davr tarixiy voqealarining bevosita guvohlari va ishtirokchilari tomonidan yaratilgan birinchi davrga mansub asar va ma‘lumotlarning yig‘indisi hozirgi kunda o‘z qimmatini va muhimligi jihatidan nodir yozma manbalar hisoblanishi maqolada tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: Manba, manbashunoslik, Sharqiy Buxoro beklilari, Mirzo Salimbek, tahlil, Surxon vohasi, muddaris, Qushbegi arxivi, Denov, Boysun, sherobod, bek.

Kirish. Buxoro amirligi sharqiy hududlarining strategik ahamiyati haqidagi ma‘lumotlarini yoritish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, bunday tadqiqotlarni Rossiya imperiyasi amaldorlari va harbiylarining o‘z ma‘lumotlari hamda esdaliklarida uchratish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot hududi haqida sovetlar davrida va mustaqillik yillarida ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida mazkur davr tarixiy voqealarining bevosita guvohlari va ishtirokchilari tomonidan yaratilgan birinchi davrga mansub asar va ma‘lumotlarning yig‘indisi hozirgi kunda o‘z qimmatini va muhimligi jihatidan nodir yozma manbalar hisoblanadi. Ular ilmiy jamoatchilik tomonidan yozma manba sifatida e‘tirof etilayotganligini inobatga olib, ularni ham birlamchi manbalar qatoriga qo‘shishga qaror qildik va ulardan manba sifatida foydalandik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolani yozishda mahalliy yozma manbalar, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri yoritilgan va o‘sha davrda yaratilgan mavzuga oid tarixiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Ushbu asarlar mualliflari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sha davrni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bevosita voqealar ishtirokchilari tomonidan yaratilgan asar va ma‘lumotlar

jamlanmasi bo‘lib, hozirgi kunda o‘z qiymati va muhimligi jihatidan ushbu asarlar nodir qo‘lyozma manbalar va tadqiqotlar darajasida hisoblanadi.

Jumladan, mahalliy yozma manbalardan Muhammad Vafoyi Karminagiyning “Xonning tuhfasini” yoki “Tarixiy Rahimxoniy” ([Muhammad] Rahimxon tarixi), Mullo Ibodulla va Mulla Muhammad Sharifning “Tarixi amir Haydar” (Amir Haydar tarixi), Mir Olim Buxoriyning “Fathnomayi sultoniy” (Sulton fathnomasi), Ahmad Mahdumi Donishning “Mang‘itlar saltanati sulolasi tarixidan qisqacha risola”, “Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro” (1885 yildan keyin yozilgan), “Mang‘itlar sulolasi tarixi”) Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniy (1838/39-1914 yildan keyin)ning “Mang‘it saltanati tarixi”, Mirza Salimbekning (to‘liq ismi: Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim)ning “Salimiy tarixi”, Muhammad Ali Baljuvoniyning “Foydali tarix” nomli asarlaridan ham tarixiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola yozishda umum qabul qilingan taqqoslash, tarixiylik, manbashunoslik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, XVII asr oxiri - XX boshlarigacha Buxoro amirligi Sharqiy beklilarning manbashunosligi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Vohaning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga oid zarur ma'lumotlar va mang'itlar hukmronlik qilgan hududlar geografiyasi, topografik hamda etnik nomlari Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'itlar saltanati tarixi" asarida keltirilgan [1]. Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy [1839 – Buxoro, Bo'ston qishlog'i (hozirgi Qiziltepa tumani) — 1908] — tarixchi olim, xattot. Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Ustozi Qozi Sa'diddin Mohir maslahati bilan Somiy – «olijanob, yuksak» taxallusini olgan [2]. U dastlab Buxoro amirlari saroyida, xususan amir Muzaffar (1860-1885) va amir Abdulahad (1885-1910)lar hukmronligi davrida saroy munshiyi vazifasida ishlagan.

Mirzo Abdulazim Somiyning xabar berishicha, Amir Muzaffar Sharqiy Buxoro erlariga rus gubernatori bilan do'stona munosabatni o'rnatgach, qo'ldan ketgan Zarafshon vohasi hududi o'rnini to'ldirish, ikkinchidan Abdulmalik to'rani qo'llab-quvvatlagani, uchinchi hududning strategik nuqtaligini hisobga olgani holda o'zining harbiy yurishlarini boshladi. Sherobod bekligi qo'ng'irotlari va saroy qabilalaridan o'ch olish uchun dastavval Qarshi begi etib Abdumominto'ra va G'uzor hokimi etib Yoqub qo'shbegini tayinlab ularni harbiy qurollangan qo'shin bilan Sherobodga jo'natdi.

Mirzo Abdulazim Somiy mazkur asarining ko'p joylarida mahalliy hukmdorlar, bek va amlokdorlar haqida ham ma'lumot beradi. Mahalliy tarixiy muarrixlar asarlarida tarixiy shaxslar haqida ijobiy fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Buxoro amirligining markazidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot tarixini yoritishga qaratilgan. Bu holat uchinchi guruhga mansub adabiyotlardagi ko'pchilik ma'lumotlar va xulosalarga tanqidiy nuqta nazardan baho berish, tahlil qilishni taqozo etadi. Bu tadqiqotlarda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi Surxon vohasi beklklarining tutgan o'zni (Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari asosida) kam yoritilgan bo'lib, ularning ba'zilar o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini yoritishda muhimdir. Sovet davriga oid ilmiy izlanishlarning asosiy qismi Buxoro amirligining sharqiy hududlari, ya'ni sharqiy Buxoro bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tashkil qiladi [3, 4, 5].

Mazkur davr tarixnavislik maktabining eng yirik vakillaridan biri Ahmad Donish taxallusi bilan mashhur bo'lgan ma'rifatparvar Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqdir. Ahmad Donish Maxdum ibn Nosir (1827 - Buxoro -1897) yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. Mudarris oilasida tug'ilgan. XIX – asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. U o'z zamonasining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egallagan bo'lib, 1850-yillarda Amir Nasrulloh (1826-1860) saroyida xattot va me'mor vazifalarida ishlab, keyinchalik bosh me'mor darajasiga ko'tarildi. Uch marotaba Rossiya imperiyasiga safar qilgan Ahmad Donish yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan, nisbatan ilg'or mamlakat Rossiya bilan tushkunlikni boshidan kechirayotgan Buxoro jamiyatini taqqoslab, amirlikda islohotlar o'tkazish lozim, degan qarorga keladi. "Risola dar nazmi tamaddun va taovun" (Madaniyat va o'zaro ko'maklashuv haqida risola) nomli asarini yozib, uni amirga taqdim etadi. Tadqiqotchilar bu asarni "Siyosiy risola" deya nomlashgan. Uning ushbu risolasida Buxoro davlati va jamiyatini qonuniylik va insonparvarlik asosida isloh qilish g'oyasi dadili ilgari surilgan. Ahmad Donishning bu ilg'or fikrlari tabiiyki amirga yoqmaydi va uni "aql o'rgatish"da ayblab 1882-yil G'uzorga qozi etib tayinlaydi. Bu bilan Ahmad Donish poytaxtdan uzoqlashtiriladi. Amir Muzaffar vafotidan keyin Buxoroga qaytgan Ahmad Donish umrining qolgan qismini faqat ijodga bag'ishlaydi.

Ahmadi Maxdum Donishning Buxoro amirligi tarixiga oid «Mang'itlar sulolasi tarixining risola yoki qisqacha

mazmuni» asari «Tarixiy risola» nomi bilan ham yuritilib, unda mutafakkirning siyosiy-ijtimoiy, ma'rifiy qarashlari juda mufassal ifodalangan. Bu risola olimning yakunlay olmagan asarining birinchi qismidir. Asar to'liq bo'lmaganligi uchun uning mazmuniga ko'ra tadqiqotchilar «Tarix», va «Mang'it amirlari biografiyasi» nomlarini qoldirishgan.

O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida olimning tarix, falakiyot, jug'rofiya va boshqa fanlarga oid yigirmaga yaqin asarlari saqlanmoqda. Donishning "Navodir al-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az Amir Doniyol to asri Amir Abdulahad" (Amir Doniyoldan to Amir Abdulahadgacha bo'lgan Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai hollari) asarlari uning ilmiy-adabiy merosida asosiy o'rin egallaydi. Bu asarlarda muallifning falsafiy, siyosiy va tarixiy qarashlari o'z aksini topgan. "Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mang'itiya" deb ham nomlanuvchi keyingi asarini umrining oxirlarida, ya'ni XIX asrning 90-yillarida yozib tugatdi. "Tarixiy risola" ko'plab qiziqarli va muhim ma'lumot-larga boy.

Masalan, mamlakat iqtisodiyini rivojlantirish uchun taklif etilgan loyiha, Buxoro va uning atrofini suv bilan ta'minlash haqidagi fikrlar, Rossiyaga qilgan sayohati xotiralari shular jumlasidandir [6]. Bu asarda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmdorlari, ularning davlatni boshqarishda yuritgan siyosatlarini, amirlik hududidagi aholining turmush tarzi va boshqa qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Buxoro tarixnavislik maktabi vakillaridan biri bo'lmish Mirzo Badi' Devonning "Majma' ul-arqom" asarida Buxoro amirligida ma'muriy, moliya, soliq tizimi, xazinadagi kirim va chiqimlar, vasiqa va arizalar tuzish qoida-tartiblari keng yoritgan. Mazkur asarda muallif amirlikdagi amal va mansablar, ular egalarining vazifa va majburiyatlarini bayon qilib, tadqiqotchilarga muhim ma'lumotlarni qoldirgan. "Majma' ul-arqom" sharqshunos A.B.Vildanova tomonidan maxsus o'rganilib, zarur izoh, so'zbo'shi va boshqa tadqiqotlar bilan qo'shib rus tilida chop etilgan [7].

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod etgan tarixnavislardan biri Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim bo'lib, u 1850-yilda Buxoroda tavallud topgan. U 20 yoshligidayoq o'zining ilmliligi bilan tanilib, Narpay va keyinchalik Ziyovuddin hokimining kotibi etib ishga olinadi. Oradan olti oy o'tgach Salimbek amir Muzaffarning farmoni bilan choyfurush savdogar qiyofasida rus ma'murlarining faoliyatini kuzatish va ma'lumot to'plash maqsadida Toshkentga jo'natiladi. Bu erda 12 yil istiqomat qiladi. Mirza Salimbek Buxoro inqilobiga qadar amirlikning yirik amaldori sanalib, turli yuqori vazifalarda xizmat qilgan. Inqilobdan keyin u Buxoroda tashkil etilgan "Anjumani tarix" (Tarix jamiyati)ga a'zolari tarkibiga kiritiladi. Mirza Salimbek 1930-yilda vafot etgan.

Mirza Salimbekning bir necha tarixiy, adabiy va diniy mavzuda tartib berilgan asarlari mavjud. Uning tarixiy asarlari "Kashkuli Salimiy" va "Tarixi Salimiy" nomlari bilan mashhur. "Tarixi Salimiy" 2009-yilda tadqiqot doirasida N.Norqulov tomonidan o'rganilgan va rus tilida nashr etilgan [8:6]. "Tarixi Salimiy"ning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini o'rganishdagi ahamiyati beqiyosdir. Buxorolik tarixchi Mirzo Salimbek (1850-1930)ning "Tarixi Salimiy" asari Buxoro amirligida mang'itlar sulolasining so'nggi vakillari hukmronligi davri tarixiga bag'ishlangan. Unda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix, etnografiya, madaniyat, tarixiy geografiyaga oid turli ma'lumotlar va boshqa materiallar mavjud. Ushbu asar Surxon vohasida kechgan tarixiy voqealarni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, asarda muallif o'zi qatnashgan voqealar xususan Sherobod bekligi va qo'shni hududlarning siyosiy,

iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ma'lumotlarni bayon etgan.

Mirza Salimbek turli yillarda Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod va Shahrisabz bekliklari hukmdori bo'lgan. Mirza Salimbek o'z asarida XIX asrning oxiri - XX asrning boshida Surxon vohasining tarixini, ayniqsa Boysun va Sherobod bekliklarida boshidan kechirgan, ko'zi bilan ko'rgan, o'zi guvoh bo'lgan narsalar haqida chiroyli va hammaga tushunarli tilda yozgan. Muallif o'zi haqida qisqacha ma'lumot berib, o'sha davrda Boysun va Sherobod viloyatining ma'muriy tuzilishi haqida quyidagi tarixiy ma'lumot keltirib o'tadi: "Boysun viloyati besh amlokdan iborat bo'lib, maydoni to'rt farsaxni tashkil etar edi. Bundan tashqari, o'nta qishloqlarga bo'lingan 3 ta amlokliklar bo'lib, ular 10 farsaxgacha cho'zilgan edi. Yana Kiyik tog'da uchta amloklik bo'lib, ularning uzunligi 10 farsax edi". Shuningdek, mahalliy hukmdorlar, bek va amlokdorlar haqida ham ma'lumot beradi.

"Sherobod viloyatining uzunligi qibladan to' sharqiy tomongacha olti farsax, shimoldan janubga qadar bo'lgan masofa etti farsaxni tashkil etardi. Viloyat besh amloklikdan iborat. Uning qibla, janubga qaragan tomonida Jayhun deb ataladigan daryo oqib o'tadi. Cho'chqaguzar bilan Pattakesar o'rtasidagi masofa etti farsax. Daryoning qirg'og'i bo'ylab turkman qabilalari istiqomat qiladilar. Ular yuqorida qayd qilingan amlokliklardan tashqarida yashasada, har yili belgilangan er solig'ini Sherobod hokimiga to'lab keladilar." Asarda voha ahlining dehqonchiligi va uning o'ziga xos tomonlarini qalamga olgan. Umuman olganda, "Tarix-i Salimi" Buxoro amirligining 1860-1920-yillar tarixini o'rganishda muhim qo'llanma.

Shuningdek, Mirzo Salimbekning Boysun va Sherobodda bek lavozimida ishlagan davrida bekliklarning boshqarilishi, qishloq xo'jaligi uchun ekinzorlarning kengaytirilishi, o'zi ham yangi erlarni o'zlashtirib katta daromad olgani, vohaning iqlimi, sug'orilish tizimi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirgan [9].

So'nggi Buxoro amiri Sayyid Olimxon (1910-1920) qalamiga mansub "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida amirning tolibi ilm bo'lgan chog'laridan, amirlik chog'i, bolsheviklarning Buxoroni zo'rlik bilan bosib olishi va vatandan uzoqda, muhojirlik yillarga qadar kechgan umri suronli va murakkab tarixiy davr ko'zgasida yaqqol namoyon bo'lgan [10].

Asarda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda, o'sha davrda, Buxoro davlati yigirma sakkiz beklikka bo'lingan. Chunonchi, hozirgi Nurota, Qorako'l, Chorjo'y, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Denov, Yakkabog' kabi joylarning har biri beklikdan iborat bo'lgan. Beklik bizing hozirgi iste'molimizda rayon(tuman)ga to'g'ri keladi.

Amir Olimxonning yozishicha, o'sha davrda Buxoro davlatiga qarashli erlar 225 000 kvadrat kilometr bo'lgan.

Aholisi asosan o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat bo'lgan. Muallifning yozishicha, "Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podsholari mo'g'il odatlariga ko'ra to'shakka (oq kigizdan tayorlangan) ustiga tabarrukona o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni erdan ko'taradilar". Turkiy podshohlarni oq kigizga solib ko'tarish qadim-qadimdan qolgan an'ana bo'lgan.

Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi nafeiy" asarida XX asr boshlari Buxoro amirligiga oid muhim ma'lumotlarni beradi. Amirlikning davlat tizimi, idora usuli, 1918-1922-yillar davomida yuz bergan siyosiy voqealar guvoh tomonidan bayon qilingan [11]. Asarda Denov, Boysun, Sarijo'y, Sariosiyo, Sherobod shaharlaridagi siyosiy vaziyatlar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Sovet davrida Sharqiy Buxoro bekliklari tarixiga bag'ishlab yaratilgan adabiyotlar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, bu davrda Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi tarixiga bag'ishlab, qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, lekin chop etilgan ilmiy tadqiqotlarda mavzuga g'oyaviy asosda bir tomonlama yondashilgan. Ularda Rossiya imperiyasi siyosatining Sharqiy Buxoro ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri asosan ijobiy baholangan. Shuningdek, asosiy e'tibor Buxoro amirligining markazidagi ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot tarixini yoritishga qaratilgan [12]. Bu tadqiqotlarda XIX-XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro bekliklarida kechgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tarixi kam yoritilgan bo'lib, ularning ba'zilar o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini o'z ichiga qamrab olganligi bilan muhimdir.

Xulosa va takliflar. Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Sharqiy Buxoro bekliklari tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Sharqiy Buxoro bekligining biz tadqiqot olib borayotgan davr tarixiga oid manbalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: mahalliy tarixchilar asarlari; arxiv materiallari; rus amaldorlari, harbiylari, sayyohlari, geograf olimlari tomonidan yozilgan ma'lumotlar, esdaliklar va hisobotlar;

Shuningdek, bu asarda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmdorlari, ularning davlatni boshqarishda yuritgan siyosatlarini, amirlik hududidagi aholining turmush tarzi va boshqa qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan;

Mirza Salimbek turli yillarda Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod va Shahrisabz bekliklari hukmdori bo'lgan. Mirza Salimbek o'z asarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Surxon vohasining tarixini, ayniqsa Boysun va Sherobod bekliklarida boshidan kechirgan, ko'zi bilan ko'rgan, o'zi guvoh bo'lgan narsalar haqida chiroyli va hammaga tushunarli tilda yozgan.

ADABIYOTLAR

1. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (история мангытских государей). / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л. М. Епифановой. – Москва: Восточная литература, 1962. –С.109
2. Мир Мухаммад Хикмат. Тазкират аш-шуаро. ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси, инв.№ 2727-76 а, б вв.
3. Дониш Ахмади Махдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангития. Тахйи Далер. – Душанбе: Сарват, 1992. – 92 с.;
4. Хамраев А.Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX веке. - Т.: САГУ, 1948;
5. Ишанов А.И. Бухара в период первой русской революции. - Т.: АН УзССР. 1955;
6. Османова и Л.М. Демидчик. – Душанбе: Таджикгосиздат, 1960;
7. Мирза Бади' Диван. Маджма' ал-аркам (предписания фиска, приёмы документации в Бухаре XVIII в.). Факсимиле рукописи, введение, перевод, примечания и приложения А. Б. Вильдановой. – Москва: Наука, 1981. – 122 (+198).
8. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий таворихи мутакаддимин ва муттаахирын /Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Йўлдошев. –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003. -344 б.
9. Мирза Салимбек . Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: ки. н. Н. К. Норкулов. Редактор перевода: д. ф. н. А. К. Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д.и.н. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – 330 с.

10. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. /Форсийдан таржима, муқаддима ва изохлар муаллифи Абдусодиқ Ирисов. –Тошкент, 1991. Б. 1.
11. Муҳаммад Али Балжувоний. “Тарихи нафеий”Т.: Академия. 2001. 2-бет.
12. Аминов А., Бабаходжаев А.Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. - Т.: Узбекистан, 1966; Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. - М.: МГУ, 1981.



UO•K: 930.25(584.4)

Sherzodjon CHORIYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: sherzodch42@gmail.com

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD), M.Darmonova taqrizi asosida

O‘ZMADA SAQLANAYOTGAN O‘ZBEKISTON SSR TARIXIY HUJJATLAR TASHQI TAHLILI (1924-1941 YILLAR)

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekiston Milliy arxividagi saqlanayotgan O‘zbekiston SSRning 1924-1941 yillarga oid hujjatlarining manbahunoslik nuqtai nazaridan tashqi tahlil etish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada arxiv hujjatlarining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, arxiv manbalarining yozuvi, qog‘ozlari neografik, neopaleografik va tarixiy diplomatika maxsus tarix fanlarining tadqiqot usullari yordamida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston SSR, mikrofilm, raqamli nusxa, sovet hokimiyati, paleografiya, neografiya, diplomatika.

ВНЕШНИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР, ХРАНЯЩИХСЯ В НАЦИОНАЛЬНЫХ АРХИВАХ УЗБЕКИСТАНА (1924-1941 ГОДЫ)

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам внешнего анализа документов Узбекской ССР 1924-1941 годов, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана, с точки зрения источниковедения. В статье описаны виды архивных документов и их характеристика. Также были проанализированы записи и документы архивных источников с использованием исследовательских методов специальных исторических наук неографической, неопалеографической и исторической дипломатии.

Ключевые слова: Национальный архив Узбекистана, Узбекская ССР, микрофильм, цифровая копия, Советская власть, палеография, неография, дипломатика.

EXTERNAL ANALYSIS OF HISTORICAL DOCUMENTS OF THE UZBEKISTAN SSR STORED IN THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN (1924-1941)

Annotation

This article is devoted to the issues of external analysis of documents of the Uzbek SSR of 1924-1941, stored in the National Archives of Uzbekistan, from the point of view of source study. The article describes the types of archival documents and their characteristics. Records and documents from archival sources were also analyzed using research methods of special historical sciences of neographic, neo-palaeographic and historical diplomacy.

Key words: National Archive of Uzbekistan, Uzbek SSR, microfilm, digital copy, Soviet power, paleography, neography, diplomatics.

Dolzabligi. Bugungi kunda arxiv manbahunosligi sohasi nafaqat respublikamizda balki, MDH davlatlaridan Rossiya, Belorusiya, Ukraina va boshqa davlatlarda tezkor rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalish manbalarining bir turi bo‘lgan arxiv hujjatlarining manbaviy ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘kidlab o‘tish lozimki, respublikamiz Milliy arxiv fondi 16 mln.dan ortiq saqlov birligiga ega bo‘lib, ulardan 8 mln.dan ortig‘i doimiy saqlanuvchi hujjatlar hisoblanadi. Aynan ushbu hujjatlarining tarixiy manbaviy jihatdan o‘rganilishi, ilmiy iste‘molga kiritilishi O‘zbekiston tarixining sovet davriga oid ko‘plab yangi tarixiy ma‘lumotlar bilan boyitilishiga sabab bo‘ladi.

O‘rta Osiyo davlatlari ichida O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘zMA deb beriladi) tarixiy hujjatlarga eng boy arxiv hisoblanadi. bugungi kunda O‘zMAda 1,8 mln. dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanib, ularning 800 mingdan ortig‘i sovet davriga tegishli hisoblanadi.

Aynan ushbu hujjatlarni manbaviy tahlil etish, ilmiy tadqiqotchilarga havola etish, tarix sohasidagi tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarga muhim yo‘lko‘rsatkich vazifasini o‘tadi.

Tadqiqot usullari va adabiyotlar sharhi. Arxiv hujjatlarini tashqi tahlil etishda tarix va manbahunoslik sohasining yordamchi fanlari bo‘lgan paleografiya va diplomatika maxsus tarix fanlarining tadqiqot metodlaridan foydalanish orqali bir qancha samarali natijalarni qo‘lga kiritish mumkin.

Paleografiya maxsus tarix fani har qanday tarixiy manbaning tashqi tahlili ya‘ni, manbaning yozuvi, siyohi, qog‘ozi, muallifi, sanasi, aslligi, kabi ma‘lumotlarni aniqlaydi. Bugungi kunda zamonaviy yozuvlarni neopaleografiya maxsus tarix fani o‘rganadi va tahlil etadi. O‘z navbatida tarixiy diplomatika maxsus tarix fani tarixiy hujjatlarining yozuvi, muallifi, aslligi, hujjatning tarkibiy tuzilishi, devonxonada yoki boshqa joyda yozilgani kabi ma‘lumotlarni tahlil etadi. Aynan ushbu maxsus tarix fanlarining tadqiqot metodlari ham O‘zbekistonning sovet davri arxiv hujjatlarini manbaviy tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar ushbu mavzu tarixiy nuqtai nazardan bir qator mualliflar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, rossiyalik va belorusiyalik tadqiqotchilardan S.O.Shmidt, V.I.Tixonov, M.N.Chernomorskiy [1] S.G.Kuleshov [2], YE.M.Burova [3], I.YE.Xvorovalar [4] tomonidan arxiv hujjatlarining manbaviy xususiyatlarini ochib berishga

bag'ishlangan ilmiy maqola va monografiyalar nashr etilgan. O'zbekiston tarixchilardan N.V.Mandralskaya [5], L.M.Landa, A.N.Xalfin [6], V.G.Ioffe [7], Sh.SH.Choriyevlar tomonidan ham kino-foto-fono hujjatlar, Turkiston ASSR arxiv hujjatlarining manbaviy tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston SSR arxiv fondlari tarkibida saqlanayotgan tarixiy hujjatlar o'zida muhim tarixiy ma'lumotlarni saqlagan manbalar hisoblanadi. Aynan ushbu hujjatlarini ish yuritish, arxivshunoslik va tarixiy manbashunoslik fanlari kesimida tahlil etish va turkumlashtirish masalalari ham ularning tarixiy manbaviy ahamiyatini yanada ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hujjatlar jamiyat, davlat va shaxsiy munosabatlar jarayonida vujudga keladi. 1980 yillarning o'rtalarida B.S.Illizarov tomonidan hujjat tadqiqot o'zida sifatida chuqur izlanishlar olib borgan. Muallif o'z tadqiqotida hujjatshunoslik, informatika va manbashunoslik sohalarini kesimida hujjat tushunchasiga izoh berishga harakat qilgan [8].

Ammo hujjatlarining tarixiy manba bo'lib shakllanishida ham ma'lum bir bosqichlar mavjud. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarining ma'lum bir qismi tarixiy hujjat sifatida doimiy saqlovga olinadi. Bugungi kunda ish yuritish jarayonida foydalanayotgan oddiy hujjat tarixiy hujjat yoki manba bo'lishi uchun uch bosqichni bosib o'tadi.

Birinchi bosqich bu hujjatning yaratilishi va ish jarayonida foydalanish muddati. Ikkinchi bosqichda hujjatning foydalanish muddati tugagach, tashkilotning idoraviy arxivida vaqtincha saqlovga olinadi va u arxiv hujjatiga aylanadi. Uchinchi bosqichda esa hujjatning vaqtincha saqlov muddati tugagach, ekspert tekshiruv komissiyasi qaroriga ko'ra, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan arxiv hujjatlari doimiy saqlash uchun qabul qilinadi va u tarixiy hujjatga aylanadi.

Arxiv hujjatlarini tahlil etish va turkumlashtirishda avvalo ularning turlari, tashqi xususiyatlari, yozuvi, tili va saqlanish holatiga e'tibor qaratish lozim.

Manbashunos olim S.O.Shmidt fikriga ko'ra, qachonki tarixiy manba tarixiy tadqiqot obyektiga aylangandagina o'ziga xos tarixiy manbaga aylanadi. Bundan oldingi bosqichda manbaning tarixiy manbaviy ahamiyati yashirin bo'ladi [9]. Aynan bu fikrlarni arxivshunos olim V. N. Avtokratov ham qo'llab-quvvatlaydi va tarixiy hujjat ustida manbashunoslik tadqiqoti olib borilmasa, u oshkor etilmagan o'tmish haqida ma'lumotlarni o'zida saqlovchi vosita bo'lib qoladi xolos deb ta'kidlab o'tadi [10].

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida hujjatlarining turlari ko'payib bormoqda. 1980 yillarda Arxivshunoslik nazariyasi va uslubiga oid adabiyotlarda arxiv hujjat turlariga qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik, kino, foto, ovozli, mikrofilm va boshqa turlari qayd etilgan [11].

Shunga ko'ra, O'zMA'dagi O'zbekiston SSR tarixiga doir arxiv hujjatlari tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan ular shakli yoki turiga ko'ra, qog'oz, mikrofilm va raqamli [12] hujjat turlariga bo'linadi.

O'zbekiston SSR arxiv fondlarida saqlanayotgan qog'ozli hujjatlar qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik va bosma shakldagi (gazeta, instruksiya varaqalari va boshqalar.) hujjat turlariga ajratish mumkin. Qog'ozli hujjatlarda ma'lumotlar qo'lyozma, pechat mashinkasi va bosma shaklda qayd etilgan.

Qo'lyozma hujjatlar qalam, siyohli ruchkalarda yozilgan. Qalamda qayd etilgan matnlar qizil, ko'k rangda ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda qizil qalamda imzo quyilganini ham ko'rish mumkin. Siyohli ruchkalardagi matnlar ko'k, qora, to'q ko'k ranglarda uchraydi. Ruchkalarda matnlar ko'proq fuqarolarning ariza murojatlari, anketa hujjatlarida o'chraydi.

O'zbekiston SSR davlat organlarining ish yuritish hujjatlarining katta qismi pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan. Pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan matnlar binafsha, qora, to'q ko'k, ayrim hollarda pushti rangda ham uchraydi. O'zbekiston SSR hujjatlarida qayd etilgan matnlarining binafsha rangda yozilgan matnlar bugungi kunda ko'rimisiz holatga kelib qolgan. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSR Markaziy ijro qo'mitasi ish yuritish jarayonida "Lenotip" mashinkalaridan foydalangan [13]. Ushbu yig'majildda "Lenotip" mashinkasining klavaturalari haqida ko'rsatmalar mavjud.

Arxiv fondlari orasida bosma shakldagi hujjatlar, gazeta parchalari ham uchraydi. Ko'p hollarda chiqarilgan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash maqsadida tipografik shaklda ko'rsatmalar nashr etilgan. Bosma hujjatlar asosan kiril va arab alifbosida uchraydi.

Hujjatlarining yozuvlari neografiya yoki neopoleografiya maxsus tarix fani tadqiqot usullari yordamidagi tahlili maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixidan ma'lumki, VII asrdan keyin mintaqada arab alifbosidan rasmiy davlat ish yuritish tizimi, ilm-fan sohasida keng foydalanila boshlangan. Ammo O'rta Osiyo hududlarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini o'rnatilishi o'lkaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida tub o'zgarish yasadi. Eng avval Rossiya imperiyasining davlat tili bo'lmish rus tili va kiril alifbosi davlat ish yuritish tizimiga joriy etilgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonlar nashriyot, davriy matbuot, ta'lim tizimi, adabiyot va boshqa sohalarini qamrab oldi hamda arab alifbosi asosida shakllangan eski o'zbek tili keyinchalik (1927 yildan keyin) muomaladan chiqarildi. 1924 yilda Turkiston o'lkasida tashkil etilgan respublikalarning barchasi davlat boshqaruv tizimi hududiy bo'linish sohalarida katta o'zgarishlar bo'ldi.

RSFSRda 1920 yillarda boshlangan lotin alifbosiga o'tish jarayonlari 1937 yilda uning batamom kiril alifbosiga o'tish bilan yakunlandi. Shu sababli O'zbekiston SSR davrining 1937 yilgacha bo'lgan ish yuritish hujjatlari kirill, lotin va arab alifbosida qayd etilgan. Hujjatlar asosan rus, o'zbek tillarida yozilgan. Ammo SSSR davrida mavjud bo'lgan Millatlar ishlari bo'yicha xalq komissarligi tarkibidagi turli millat vakillarining bo'limlarida polyak, yahudiy, nemis, ingliz va boshqa tillaridagi hujjatlarini ham ko'rish mumkin. Ammo shuni qayd etish lozimki, o'zbek tilidagi arab va lotin alifbosida qayd etilgan matnlarning lingvistik tahliliga ko'ra, hujjatlardagi matnlar eski turkiy til lahjasida, 1937 yildan keyin kiril alifbosida qayd etilgan matnlar hozirgi o'zbek tilining ish yuritish, so'zlashuv uslubiga mos bo'lib, ko'plab ruscha yoki xalqaro atamalar uchraydi.

MIQ va XKS fondlaridagi juda ko'plab hujjatlarda 1929 yilgacha bir tomonida rus tilida, bir tomonida arab alifbosidagi o'zbek tilida bitilgan. Chunki sovet hokimiyati o'rnatilgach, butun mamlakatda hujjatchilik, idoraviy ish yuritish asosan rus tilida olib borilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zi hollarda arab alifbosidagi matnlar qo'lyozma, pechat qilish mashinkasi va bosma turlari uchraydi.

Hujjatlar orasida ko'pgina fuqarolarning murojaat yoki ko'rsatma (masalan tergov jarayonidagi) hujjatlarda arab alifbosidagi eski turkiy tilda qalam va ruchkalarda yozilgan hujjatlarini ham uchratish mumkin [14]. Qo'lyozma hujjatlar ko'k siyoh ruchkalarida, grafitli qalamning qora, qizil, havorang ranglarda qayd etilgan. Qizil va havorangli qalamlarda faqatgina mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar matnidagi ayrim muhim jumalarni belgilash, ayrim hollarda imzo ham chekilganini ham ko'rish mumkin [15].

O'zMA'da uchraydigan hujjat turlaridan biri bu mikrofilm hujjatlari bo'lib, ular qog'ozli hujjatlarining sug'urta nusxalari hisoblanadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, O'zMA'da arxiv hujjatlarini mikrofilmlashtirish ishlari asosan

Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi jarayonlariga oid hujjatlarga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston SSR va Mustamlaka davriga oid arxiv hujjatlarining mikrofilmlashtirilgan nusxasi uchramaydi.

Bugungi kunda butun jahon miqqiyosida nafaqat arxiv hujjatlarini balki tarixiy manbalarning raqamli nusxalarini yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirishda eng kamida ikki nusxasi yaratiladi. Jahon tajribasida qog'ozli hujjatlarning raqamli nusxasini yaratishda TIFF i JPEG formatlaridan keng foydalaniladi [16]. O'zMAda ham tasviriy ma'lumotlarni saqlashda TIFF formati ko'proq keng qo'llaniladi, chunki ma'lumotlarni kichraytirib saqlash algoritmiga ko'ra tasvirli ma'lumotlar aniq saqlanadi. JPEG formatida tasvirli ma'lumotlarni saqlashda ayrim yo'qotishlar kuzatilishi mumkin.

Shuning uchun ushbu formatda tasvirli ma'lumotlarning so'nggi texnik qayta ishlangan nusxasini saqlash tavsiya etiladi. Elektron hujjatlarning yaratishning xalqaro meyoriy huquqiy masalalari bo'yicha dastlab 2003 yil sentabr-oktabr oylarida Parijda Yuneskonning 32 sesiyasi va bosh konferensiyasida raqamli merosni saqlash bo'yicha xartiya qabul qilingan [17].

O'zMAda arxiv hujjatlarini raqamli nusxasini yaratishda ularni davriga ko'ra alohida hisob kitob ishlari amalga oshirilmagan. Shu sababli sovet davri bo'yicha raqamlashtirilgan arxiv hujjatlarini bo'yicha aniq statistik ma'lumot aytish mumkin emas. Hozirda arxiv hujjatlarini raqamli nusxalarini yaratishda pdf, tiff formatlaridan keng foydalanilmoqda [18].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arxiv hujjatlarining manbaviy tahlili ularning tarixiy ahamiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Milliy arxivi bugungi kunda O'zMAda 1,8 mln. dan ortiq tarixiy hujjatlar saqlanib, ularning 800 mingdan ortig'i sovet davriga tegishli hisoblanadi.

O'zMAdagi O'zbekiston SSR tarixiga doir arxiv hujjatlari shakli yoki turiga ko'ra, qog'oz, mikrofilm va raqamli ko'rinishda saqlangan.

O'zbekiston SSR arxiv fondlarida saqlanayotgan qog'ozli hujjatlar qog'ozlarda qayd etilgan matnli hujjat, ilmiy texnik va bosma shakldagi (gazeta, instruksiya varaqalari va boshqalar.) hujjat turlariga ajratish mumkin. Fondlar tarkibidagi qog'ozlar och va to'q novvot, ko'k, to'k ko'k (asosan loyiha hujjatlarida uchraydi) ranglarda bo'lib, asosan qora, binafsha rangli siyohlarda ma'lumotlar qayd etilgan. Qog'ozli hujjatlarda ma'lumotlar qo'lyozma, pechat mashinkasi va bosma shaklda qayd etilgan.

Qo'lyozma hujjatlar qalam, siyohli ruchkalarda yozilgan. Qalamda qayd etilgan matnlar qizil, ko'k rangda ko'p uchraydi. Ba'zi hollarda qizil qalamda imzo quyilganini ham ko'rish mumkin. Siyohli ruchkalardagi matnlar ko'k, qora, to'q ko'k ranglarda uchraydi. Ruchkalarda matnlar ko'proq fuqarolarning ariza murojatlari, anketa hujjatlarida o'chraydi.

O'zbekiston SSR davlat organlarining ish yuritish hujjatlarining katta qismi pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan. Pechat qilish mashinkalarida qayd etilgan matnlar binafsha, qora, to'q ko'k, ayrim hollarda pushti rangda ham uchraydi. Bosma hujjatlar asosan kiril, lotin va arab alifbosida uchraydi. Bugungi kunda sovet hujjatlarining ham katta qismi raqamlashtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Черноморский М.Н. Источниковедения истории СССР (советский период). -М.: Высшая школа. 1966. 343 стр.
2. Кулешов С.Г. Документ как исторический источник: свойство, состояние, статус. // Архивоведение и источниковедение отечественной истории. Проблемы взаимодействия на современном этапе. Доклады и тезисы выступлений на третьей Всероссийской конференции. 25-26 февраля 1998 г. М., 1999.-С.95-96
3. Бузова Е. М. Архивный документ как объект изучения: история и современность //Документ. Архив. История. Современность. - Екатеринбург, 2010. – 2010. – С. 22-33.
4. Хворова И.Е. Процесс оцифровки документов для создания электронного архива. // История и архивы. 2017. –С.22-29 (<https://cyberleninka.ru/article/n/protsess-otsifrovki-dokumentov-dlya-sozdaniya-elektronno-go-arhiva/viewer>)
5. Мандральская Н.В. Аудиовизуальные источники историко-партийной науки и их использование в изучении деятельности партии: на материалах Узбекистана периода Великой Отечественной войны 1941–1945 гг.: Дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: ТашГУ. 1981. – 328 с.
6. Ланда Л.М., Халфин А.Н. Документальные материалы центральных государственных архивов Узбекистана. (вопросы истории).1947.№8. –С.152-154; Государственные архивы СССР. (краткий справочник), М.1956, -С.374-376
7. Иоффе В.Г., Г.П. УФИМЦЕВ. Личные фонды архивов и архивы музеев Узбекистана – ценные источники по истории русской диаспоры в средней Азии. // Журнал "Вестник архивиста". 2012. №3. 230-237 стр. <https://www.vestarchive.ru/2015-2.html>
8. Тихонов В. И. Архивная теория В. Н. Автократова: анализ основных положений и подходов // История и архивы. 2015. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/arhivnaya-teoriya-v-n-avtokratova-analiz-osnovnyh-polozheniy-i-podhodov> (дата обращения: 05.10.2022).
9. Чориев, Ш. Ш. (2016). Из истории формирования фондов государственных органов Туркестанской АССР. *Документ. Архив. История. Современность. - Екатеринбург, 2016, 209-212.*
10. Кулешов С.Г. Документ как исторический источник: свойство, состояние, статус. // Архивоведение и источниковедение отечественной истории. Проблемы взаимодействия на современном этапе. Доклады и тезисы выступлений на третьей Всероссийской конференции. 25-26 февраля 1998 г. М., 1999.-С.95-96
11. Бузова Е. М. Архивный документ как объект изучения: история и современность //Документ. Архив. История. Современность.- Екатеринбург, 2010. – 2010. – С. 22-33.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги “Ахборотлаштириш тўғрисида” ва “Электрон рақамли имзо тўғрисида” ҳамда 2004 йил 29 апрелда Олий Мажлис томонидан қабул қилинган “Электрон ҳужжат алмашинуви тўғрисида”ги қонунлар архив муассасалари фаолиятини ислоҳ этишда етарлича ҳуқуқий-меъёрий база яратилишида муҳим омили бўлиб қилмоқда.
13. ЎзМА, Р-86-фонд, 1-фонд, 5911-ийғмажилд
14. ЎзМА, Р-1714 –фонд, 1-рўйхат, 427-ийғмажилд
15. Масалан, Қаранг: ЎзМА, Р-93, 1-рўйхат, 2-рўйхат, 1-варак
16. Хворова И.Е. Процесс оцифровки документов для создания электронного архива. // История и архивы. 2017. –С. 22-29)

17. UNESCO. General Conference; 32nd; Records of the General Conference, 32nd session, Paris, 29 September to 17 October 2003, v. 1: Resolutions; 2004
18. Choriev, S. S. (2017). Classification of the Turkestan ASSR documentation in the Central State Archive of the Republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(56), 50-54.



UDK: 398:63(575.1)

Sirojiddin ESHKURBONOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

E-mail: sirojiddin_eshkurbonov@tues.uz

TISU dotsenti, t.f.d N.Tursunov taqrizi asosida

ETHNO-TERRITORIAL LOCATION OF THE POPULATION OF SURKHAN OASIS BY ECONOMIC ACTIVITY

Annotation

In this article, the economic characteristics of the population engaged in farming in the Surkhan oasis, which is considered the southern region of Uzbekistan, according to the ethno-territorial location, were studied. The natural and geographical conditions of the Surkhan oasis for farming, its inhabitants are Uzbek and Tajik-speaking Chigatoys, Karluq, Barlos, Turks, Kaltatoys, Kungirats, Mountain Qatags, who are mainly engaged in agriculture. The location of ethnic and ethnographic groups such as "on" and "yuz" was analyzed based on scientific literature and sources. It was also considered that they specialize in farming types suitable for the natural conditions of the place where they live.

Key words: Farming, ethno-territorial, ethnographic unit, Tokharistan, lalmi, obi, deymi, qaryaki, tramoj, reservoir, canal, chigatoy, horticulture, Karabakh, Zarabog, Novbog.

ЭТНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА ПО ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье изучены экономические характеристики населения, занимающегося земледелием в Сурханском оазисе, который по этнотерриториальному расположению считается южным регионом Узбекистана. Природно-географические условия Сурханского оазиса для земледелия, его жители – узбекские и таджикоязычные чигатойцы, карлуки, барлосы, турки, калтатои, кунгиратцы, горные катаги, которые занимаются в основном земледелием. как «он» и «юз» анализировалось на основе научной литературы и источников. Считалось также, что они специализируются на видах земледелия, подходящих к природным условиям того места, где они живут.

Ключевые слова: Земледелие, этнотерриториальная, этнографическая единица, Тохаристан, лалми, оби, дейми, каряки, трамои, водохранилище, канал, чигатой, садоводство, Карабах, Зарабог, Новбог.

SURXON VOHASI AHOLISINING XO'JALIK FAOLIYATI BO'YICHA ETNOHUDUDIY JOYLASHUVI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy hududi hisoblanmish Surxon vohasidagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining etnohududiy joylashuv bo'yicha xo'jalik xususiyatlari o'rganildi. Surxon vohasining dehqonchilik qilish uchun tabiiy-geografik sharoiti, unda istiqomat qiluvchi asosan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan o'zbek va tojik tilli chig'atoylar, qorluq, barlos, turk, kaltatoylar, qo'ng'irotlar, tog'chi qatag'onlar, yuzlar kabi etnik va etnografik guruhlarning joylashuvi ilmiy adabiyot va manbalarga asoslanib tahlil etildi. Shuningdek, ular yashaydigan joyning tabiiy sharoitlariga mos dehqonchilik turlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashganliklari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Dehqonchilik, etnohududiy, etnografik birlik, Tohariston, lalmi, obi, deymi, qayroqi, tramoj, suvombor, kanal, chig'atoylar, bog'dorchilik, Qorabog', Zarabog', Novbog'.

Kirish. Surxon vohasi turli elat va millatlar bilan yonma-yon bo'lgan chegara hududlarida joylashganligi sababli aholisi etnik jihatdan murakkabdir. Vohada turli millat vakillari, o'zbek, tojik, turkman, arab, afg'on va boshqa etnoslar bevosita qo'shni yoki aralash holda yashab kelmoqda. Bundan tashqari, voha o'troq aholisi va turli davrlarda ko'chib kelgan etnik komponentlar bir-biriga yaqin etnik birliklarni tashkil etsa ham, o'zining kelib chiqanligi, yuz tuzulishi, shevalari, xo'jaligi madaniyati, turmushi, udumlari va urug'larga bo'linishi saqlanib qolganligi bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. L.P.Potapov, M.V.Sazonova, G.P.Snesarev, N.G.Borozna, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov, I.Hidayatov hamda X.Toshev singari etnograf olimlarning asarlarida o'zbek xalqining ananaviy xo'jaligi to'g'risidagi tadqiqotlar mavjud. O'zbek xalqining xo'jalik madaniy an'analari, uning rivojlanishi, mintaqaviy xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha yozilgan. Xususan, S.N.Tursunov, E.O.Qobilov, U.S.Abdullaev, A.A.Ashirov, O.Bo'riev, F.Sh.Raxmonov, N.N.Tursunov, A.R.Qayumov, A.E.Qurbonov, Z.S.Isoqov, M.Sh.Usmonov, I.Umarov va

Ya.A.Turdimuradovlarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy-tahlil, qiyosiy-tahlil, dala ma'lumotlarini to'plash, intervyu va anketa so'rovnomalari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasi aholisi mamlakati-mizdagi boshqa tarixiy-madaniy hududlardan farqlanadi. Aholi istiqomat qiluvchi ma'lum bir kichik va yirik hududlar o'rtasida ham ayrim farqlar mavjud. Har bir etnik va etnografik guruhlar joylashgan hududning iqlim-tabiiy sharoitlarini inobatga olsa, ularning yashashi, xo'jalik hamda moddiy madaniyatlarida o'ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan [1].

Vohaning tog'li hamda tog'oldi hududlarida, daryoga yaqin joylarda dehqonchilik, bog'dorchilik xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi turg'un aholi va chorvachilik xo'jaligi yetakchi hisoblangan yarim o'troq aholi istiqomat qilgan. Asosan tog'li hududlarda tojiklar, past tog'li yarim dasht hududlarda hamda past-baland dashtlarda yarim o'troq

o'zbeklar, tog' oldi va tog' yonbag'irlaridagi hududlarda esa aholi aralash tarzda yashaganlar [2].

Surxon vohasida dehqonchilik tabiiy-geografik sharoitga qarab uchta qismga bo'linadi: 1) sug'orma dehqonchilik; 2) lalmi dehqonchilik, bog'dorchilik hamda uzumchilikka ixtisoslashgan tog' va tog' oldi hududlar; 3) dasht donchiligi va cho'l dehqonchiligi.

Dehqonchilik xo'jaligi turlarining vohadagi ko'plab etnik guruhlar o'rtasida o'ziga xos taqsimoti mavjudligini ularning etnohududiy joylashuvi haqidagi ma'lumotlarda ham aks etgan.

Vohaning asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi xo'jalik sharoitlariga ko'ra joylarda turlicha taqsimlangan bo'lib, ma'lum hududlarda o'zlari yashaydigan joyning tabiiy sharoitlariga mos dehqonchilik turlari bilan shug'ullanishgan. To'plangan materiallar asosida quyida bularga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Chig'atoylar asosan dehqonchilik uchun qulay bo'lgan daryoga yaqin joylarda, tekisliklarda va tog' etaklarida yashaydilar.

Chig'atoylarning asosiy mashg'uloti bog'dorchilik uzumchilik, sug'orma va lalmikor dehqonchilikdir. I.Hidoyatov Sariosiyo va Denov tumanlaridagi Dashnobod (oldingi Dashtinovad), Shohqishloq, Gazarak, Dehqalandar va Irman kabi katta-katta qishloqlarda yashagan chig'atoylarning dehqonchilik ilmi bo'yicha tajribasi yuqori bo'lganligini ta'kidlagan [5].

S.Tursunov va E.Qobilovlar vohaning janubiy qismida yashovchi dehqonchilik bilan shug'ullanadigan chig'atoy qishloqlarini shartli ravishda uch guruhga bo'ladi [7].

Birinchi guruhga Sherjon, Vandob, Zarabog', Qorabog', Poshxo'rd, Chakob, Xatak, Qizilolma, Laylagon va Korizot kabi Ko'hitang tog'larining sharqiy yonbag'irlarida joylashgan qishloqlar kiradi. Bu qishloqlar aholisi buloq hamda koriz suvlaridan foydalanib, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik bilan shug'ullanganlar va lalmi yerlarda esa donli ekinlar ekishgan[8].

Chig'atoylar o'zbek va tojik tilida gaplashadigan guruhlarga bo'linishadi. XIX asr oxirlarida topograf Petrov Shohqishloq va Dashtinovad qishloqlari aholisi tojiklar hamda o'zbeklardan iborat deb yozadi [9]. 1924 yilda tuzilgan ro'yxatda Shohqishloq va Dashtinovad qishloqlarining aholisi tojiklar ekanligi qayd etilgan [10].

Samarqandda yashagan chig'atoylar sug'orma va lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik, pillachilik, hamda chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ular Samarqandda anor yetishtirishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, yangi ko'chirilgan joylariga anor qalamchalarini olib kelganlar va bu yerda ham anor ekishni yo'lga qo'yganlar. Dashnobod o'zining anorlari bilan mashhur edi. N.A.Maevning yozishicha "nisbatan katta va boy qishloq bo'lgan Dashnobod o'zining ajoyib ta'mga ega anorlari bilan mashhurdir" [11]. Ushbu qishloq aholisi nafaqat anorlar yetishtirishadi, balki anorlarni chuqurlarga (choh) ko'mib, may oyigacha toza holda saqlashganlar.

Chig'atoylarning dehqonchilik xo'jaligi mahsulotlari qishloq bozorida sotilgan. Dashnoboddagi bozor kunlari viloyatning boshqa savdo markazlari bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan [2].

Yuzlar yoki juzlar Surxon vohasining o'rta va yuqori qismlarida qo'ng'irotlar bilan yonma-yon yashashgan. B.Karmisheva ularning yashash joyi hududi Hisor vodiysining sharqiy chekkasigacha cho'zilganligini qayd etadi [11]. 1924 yilda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalariga ko'ra Surxondaryoning yuqori oqimida juzlarning 2715 nafari ro'yxatga olinadi. Bundan tashqari Mirshodi qishlog'ida I.P.Magidovich 23580 kishining aksariyati turkman juz guruhidan bo'lganligini aytib o'tgan [5].

Yuzlar dehqonchilik uchun qulay bo'lgan suv manbalariga yaqin sug'oriladigan joylarda o'troq hayot

kechirishib, xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Ular asosan sholi yetishtirishda katta tajribaga ega bo'lishgan. Voha tojiklari sholi yetishtirishni yuzlardan o'zlashtirganligi qayd etiladi. Yuzlar yerga 8-10 kilogramm og'irlikdagi ulkan ketmonlari bilan ishlov berishgan. Bu kabi yirik mehnat qurolidan jismonan baquvvat kishilar foydalana olishlari mumkin bo'lgan. Bu ketmonlar Samarqanddan keltirilib, Sariosiyo va Uzun tumanlarida ularni "chimbur" (o't, ya'ni olov kesuvchi) deb atashgan. Keyinchalik bunday ketmonlardan foydalanilmay qo'yilgan [2].

Barloslar asosan Uzun tumani Jonchekka, Namuna qishloqlari, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Quduqli, Shohqishloq va Qarabandi kabi qishloqlarda, Qoratog'daryo havzasida, shuningdek Hazorbog' kanali bo'yidagi Shonsoy, Sangardak, sharqda Chimtepa kabi qishloqlarda o'zbek-chig'atoylari va tojiklar bilan aralash tarzda yashaganlar. Ushbu hududda yashaydigan barloslar o'zlarini turk-barlos deb ham atashadi. Barloslar Denov, Uzun hamda Sariosiyo tumanlariga 350-400 yil avval ko'chib kelishgan [5]. Barloslar dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanishganlar. Yonma-yon yashagan chig'atoylar ularga bog'dorchilikni o'rgatishgan.

Surxon vohasida do'rmonlar Sherobod tumanidagi Hojaki qishlog'ida (Sheroboddaryoning o'ng irmog'ida joylashgan) boshqa urug'lar bilan birgalikda yashashgan. Shuningdek, Ular Xolchayon, Fayzobod, Serharakat, Jiydabuloq, Anorbuloq va Pistamozor kabi qishloqlarda ham istiqomat qilganligi aniqlangan. Ularning asli hududi Qabodiyon (Tojikiston) bo'lib, bir qismi bundan 255-300 yillar ilgari Sariosiyo va Denov tumanlariga ko'chib kelishgan [12]. Ba'zilar vohaga kelib joylashganliklarini Shayboniyxon bilan bog'lashgan[13, 12]. Ular sug'orma va lalmi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Sovet davrida do'rmonlar boshqa xo'jalik turlari, xususan, polizchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullana boshlashgan [14, 16]. Dastlab Uzun tumanidagi bir qancha qishloqlarda do'rmonlar yashaganligi kuzatilgan bo'lsa, XX asrning 60-yillarida ular soni 15 dan ortiqni tashkil etgan.

Qo'ng'irotlar butun voha bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, bir qancha mayda urug'larga bo'lingan. Qo'ng'irotlar urug'lari haqida bir qancha tadqiqot ishlari qilingan bo'lib, ularning shajarasi ham tuzilgan. Boysundaryo, Sheroboddaryo, Amudaryo hamda Surxondaryo bo'ylarida qo'ng'irotlarning aholi manzilgohlari joylashgan. Surxon vohasining shimoliy va janubi-g'arb qismlarida zich joylashgan[15]. 1926 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, qo'ng'irotlarning Qoratog'daryo havzasida, vohaning yuqori va Bobotog' qismida ham yashaganligi aniqlangan [16]. Ular vohaning yuqori qismida, tog'li hududlardagi Sangardak, Changloq, Bog'cha va boshqa qishloqlarda tojiklar bilan aralash yashaganlar. Sariosiyo, Denov, Dashnobod, Sarijo'y va Yurchida esa ular alohida qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shuningdek, Boysun tumanidagi Munchoq, Chilonzor, To'da va Gumatak qishloqlari aholisi asosan qo'ng'irotlardan tashkil topgan. Sariosiyo va Denov tumanlarida yashovchi qo'ng'irotlar 280-290 yil oldin Dehqonoboddan (Qashqadaryo) ko'chib kelishgan bo'lib, bunga Dehqonobodda yaylovlar va yaroqli yerlarning yetishmasligi, ocharchilikning boshlanishi sabab bo'lgan [5].

Qo'ng'irotlarning an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari tarixini o'rganishda xalk dostonlari ham muhim ma'lumotlar beradi. Chunonchi, bu borada "Alpomish" dostonida dehqonchilik bilan shug'ullangan o'trok holda yashaydigan qo'ng'irotlar va chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qo'ng'irotlar qayd etilgan [17].

XX asr boshlarigacha dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanmagan, asosan, chorvachilikka e'tibor qaratishgan. Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida ko'ng'irotlar azaliy joylarini tashlab,

yangi tashkil qilingan jamoa va davlat xo'jaliklariga ko'chirilgandan so'ng ular dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan [18].

Qarluqlarning katta guruhi asosan Hisor tog' tizmasining janubiy yonbag'rlarida joylashgan bo'lib, o'zlarini turkiy qarluqlar deb ham atashadi. Sariosiyo tumanida qarluqlar Tog'chiyon, Bayqishloq, Zag'nivot, Pozilko'chdi, Ko'lmozor, Cholmiyon, Sarimozor, Buyropush hamda Neloba kabi qishloqlarda yashaganlar va "besh yuz uyli qarluq" nomi bilan atalgan [19].

Sovetlar davrida qarluqlar kolxozlarda paxtachilik, bog'dorchilik, pillachilik bilan shug'ullanadi, shuningdek Sharg'un ko'mir konida ham ishlaganlar [5].

Ular yerga mohirona ishlov berib bahorgi, kuzgi bug'doy, arpa, shuningdek polizchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni ekib o'ziga xos xo'jalik madaniyatini o'zlashtirganlar [19].

Xalqayor daryosi bo'yida esa ularning yirik Qarluq qishlog'i joylashgan. Bunda XX asr boshlarida 120 xo'jalik (636 kishi) ro'yxatga olingan. Uning aholisi etnik jihatdan aralashgan, ammo ko'p qismini qarluqlar tashkil etadi. Oltinsoy tumanidagi Ipoq daryosi sohilida Ipoq qarluqlari (Qarluq qishlog'i) XX asr boshlarida o'troq xayot kechirib, asosan dehqonchilik hamda bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Ipoq qarluqlari antropologik, lingvistik belgilari hamda urf-odatlari jihatidan Qashqadaryo vohasining Muborak tumanida yashovchi qarluqlarga o'xshaydilar [20]. Sariosiyo va Uzun tumanlarida yashovchi qarluqlar XX asr boshlarida yarim o'troq hayot kechirganlar.

Qatag'onlar Ko'hitang tog'i yonbag'irlaridagi Xatak va Xo'janqon qishloqlarida, Boysun tizmasidagi Olachopon va Qayroq qishloqlarida, Sariosiyo tumanidagi Sangardak (tojiklar bilan aralash holda), Changloq, Bog'cha qishloqlarida, Surxondaryoning o'ng qirg'oqlarida yashashgan. Sovet davrigacha qatag'onlar sug'orma va lalmi dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanishgan.

Vohada qoraqalpoqlar asosan Sherobod tumanidagi Xomkon qishlog'ida yashaydi. 1949-1953 yillardagi ko'chirishdan keyin xomkonlik qoraqalpoqlar Jarqo'rg'on tumanining "Surxon", "Navoiy", Angor tumanining Tallimarjon, Qumqo'rg'on tumanining "Besh qahramon", Qiziriq tumanining Oxunboboev, Bandixon tumanining "Paxtakor", Sherobod tumanining "Kallamazor", "Tallashqon", Boysun tumanining "Chilonzor", Muzrabod tumanining "Navbahor" va "Navoiy"nomli hududlarida

yashab kelishmoqda [21]. Bugungi kunda ular xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etadi.

Vohaning tog'li qismlarida yashovchi tojiklar ikki guruhga mansub bo'lib, birinchisiga azaldan yashab kelgan ko'histoniy (tog'lik), ya'ni o'zlarini turli joy aholisi deb hisoblovchilar, ikkinchi guruhga esa turli joylardan kelgan viloyati yoki hisorilar kirgan. Birinchi guruhga mansub ko'histoniy tojiklari uncha katta bo'lmagan tog'li Fyypyt Shotrut, Qarsh, Tamshush, Choch, Nilu, Zevar va boshqa qishloqlarda, ikkinchi guruhga mansub viloyati yoki hisorilar esa Xufar, Sina, Malau, Sariosiyo, Yurchi, Dehqalandar va boshqa qishloqlarda yashaganlar.

Sovet davrida Beshqo'ton, Istara va Muzrobd cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida ushbu yangi yerlarga asosan vohaning tog' va tog'oldi hududlaridagi aholisi ko'chirilgan. Ichki migratsiyalar tufayli vohada yashovchi urug'larning ko'pchiligi o'zaro aralash holda yashay boshlashi aholining aralash xo'jalik faoliyatini yuritishiga olib kelgan. Shuningdek, jahon urushidan oldingi yillarda sovet hukumati Farg'ona vodiysidan yangi o'zlashtirilayotgan Surxon vohasi yerlariga aholini majburiy ko'chirtirgan bo'lib, ular paxta ekishni yaxshi o'zlashtirgan edilar. "Paxta ustasi", "paxta ustoz", yoki "tajribakorlar" sifatida ko'chirib keltirilganlarni mahalliy aholi "farg'onachilar" deb atagan [22]. Ular Termiz, Qumqo'rg'on, Denov va Sho'rchi tumanlariga joylashtirilgan. Natijada ushbu hududlarda xo'jalik almashinuv jarayonlari sodir bo'la boshlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki Surxon vohasining tabiiy-geografik iqlim sharoiti bu hududda istiqomat qilgan xalqlarning qadimdan turli xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratgan. Turli tarixiy davrlarda bu hududga ko'chib kelgan etnik guruhlar aholi xo'jalik madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazib borgan, yoki ularning o'zlari ushbu hududga xos xo'jalik yuritish an'alarini o'zlashtirganlar. XX asrda Surxon vohasidagi asosiy etnomadaniy jarayonlar – o'zaro madaniy ta'sir, o'troq va chorvador aholining yaqinlashuvi va qisman qo'shilib ketish jarayoni kuchayib bordi. Vohadagi yarim o'troq o'zbeklar va turklar zich bo'lib yashaydigan joylarda o'troqlashuv hamda urug'chilik an'alarining yo'qolib borishi jarayoni, shubhasiz, asta-sekin davom etgan. Qo'ng'iroq, qarluq, laqay va do'rmon kabi o'zbek urug'larida XX asrning 30-yillariga qadar ziroatchilik keng tarqalganligiga qaramasdan, ularda yarim o'troq hayot tarzi va urug'-qabilachilik tizimi unsurlari saqlanib qolgan.

ADABIYOTLAR

1. Курбонов А.Э. Этнические и локальные особенности традиционной культуры жителей Северсурханского оазиса (конец XIX – первая половина XX в.) Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2009. – 30 с.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 4.
3. Турсунов Н.Н. Жанубий Сурхон воҳаси аҳолиснинг этник хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фанлари номзоди ... дис. – Т., 2007. – Б. 60-61
4. Мухетдинов А. По Восточной Бухаре. «Народное хозяйство Средней Азии». Ташкент, 1924, № 2—3.
5. Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. Сборник статей. - Т., 1965. – С. 124–133.
6. Турсунов С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Т., 2006. -Б. 85-86.
7. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. Монография. – Тошкент: Академнашр, 2012. –390 бет.
8. Материалы по районированию Средней Азии» Кн.1 «Территория и население Бухары и Хорезма». 4-1. Бухара, Ташкент, 1926, С. 45.
9. Извлечение из путевых заметок классного топографа тит. сов. Петрова. 1884, С. 99
10. Список населенных мест УзССР и ТаджССР, вып. VII. Самарканд, 1925. стр. 16-17.
11. Маев А. Очерки Бухарского ханства (Гиссарский край. Куляб и побережье Аму-Дарьи). Ташкент. 1876. С. 87.
12. Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. Сборник статей. - Т., 1965. – С. 124–133.
13. Мухаммед Юсуф Мунши. Мукимханская история, перевод А.А. Семенова. – Т., 1956. – С. 204–205.
13. Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхан-Дарьинской области.-Т.: САГУ, 1958. - С. 84 ; Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. - Т., 1965. - С. 12.

14. Борозна Н.Г. Социалистическая преобразования в хозяйстве и быте узбеков-дурменов в долины Кафернигана и Бабатагских гор. Афтореферат дис. канд. ист. наук. – М.: МГУ, 1966. – С. 16.
15. Этнический атлас Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – С. 329.
16. Бердикулов Қ. Қўнғиротлар. – Т.: Ёзувчи, 1999. – Б. 10.
17. Алпомиш. Айтувчи Эгамберди Олломурод ўғли. Ёзиб олувчилар М.Муродов ва Т.Мирзаев. 1962 йил // ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. №1530. 1-варақ.
18. Усмонов М.Ш. Жанубий Ўзбекистон ўзбек қўнғиротлари (тарихий-этнологик таҳлил): Тарих фан. фалсафа док.(PhD) ... дис. - Тошкент, 2018.
19. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. Тошкент, 1964. – С. 45-67; Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. Тошкент, 1962. 4-китоб. Б. 481-490.
20. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. –Тошкент, 1999. – Б. 152.
21. Кичкилов Х. Хомконлик қорақалпоқларнинг кўчиши // Ўзбекистонда моддий маданият ва этномаданий жараёнлар. Республика илмий-амалий анжумани. – Термиз, 2010. – Б. 39–43.
22. Ботирова Б.Н. Ўзбекистонда ўтказилган советларнинг аҳолини кўчириш сиёсати (1926-1941 йй.) тарих фанлари номзоди дисс афтореферати... - Тошкент, 2010. –Б. 15-16.